

ANNOTATSIYA

Mazkur o‘quv qo‘llanmada amaliy san’at turlari faniga mo‘ljallangan nazariy va amaliy materiallar berilgan. Qo‘llanmada xalq amaliy bezak san’ati fanining tarixi, amaliy san’at turlari va ularning maktablari, naqsh kompozisiyalari tuzish qoidalari yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma amaliy san’at turlari fan dasturi asosida yozilgan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida amaliy san’at yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Undan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining fakultet va bo‘limlari talabalari, umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining tasviriy san’at o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

АННОТАЦИЯ

В данном пособии представлены теоретические и практические материалы по прикладному искусству. В пособии описывается история народных художественных промыслов, виды прикладного искусства и их школы, правила композиции.

Учебник основан на научной программе прикладного искусства и предназначен для студентов прикладного искусства в высших учебных заведениях. Может использоваться студентами факультетов и отделений высших и средних специальных учебных заведений, учителями изобразительного искусства общеобразовательных школ.

ANNOTATION

The textbook contains theoretical and practical materials on the subject of applied art. The manual tells about the history of folk art crafts, types of applied art and their schools, rules of composition.

The textbook is written on the basis of applied arts programs and is intended for students of applied arts faculties of higher educational institutions,

students of departments of general education schools, teachers of fine arts can use it.

Kirish

O‘zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik an’analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq boy tarixga ega. Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘zbekiston hududida ko‘plab me’moriy yodgorliklar, qadimiy qal’a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo‘lib ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi ob’ektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda. O‘zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko‘p asrlik an’analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq boy tarixga ega.

Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘zbekiston hududida ko‘plab me’moriy yodgorliklar, qadimiy qal’a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo‘lib ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi ob’ektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik va xalq amaliy bezak san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan beباho san’at asarlarining namunalari bo‘lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, mavjud barcha san’at turlari o‘z o‘quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o‘tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta’siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o‘rinda amaliy bezak san’ati turlarining fazilatlari juda ham o‘ziga xos bo‘lib, ularni boshqa hech narsa bilan

almashtirib bo‘lmaydi. Bunday san’at asarlari ayni choqda ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

Yaqin o‘tmishda o‘zbek amaliy bezak san’atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog‘och, tosh va suyak o‘ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo‘zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo‘yrachilik kabi turlarining o‘ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san’atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Bunday holat hozirgi kunda san’atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san’at havaskorlari oldiga amaliy bezak san’atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o‘rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san’at sir asrorlarini o‘rgatish orqali o‘rinbosarlar tayyorlash san’at asarlarini keng targ‘ib qilish orsali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga erishish vazifalarini qo‘yadi.

Bu maqsadlar yo‘lida olib boriladigan izlanishlar xalqustalari, san’atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta’lim olishlari, san’atlarni egallahshlarini tashkil etish va to‘g‘ri ilmiy-metodik yo‘nalishda olib borish, san’atkor pedagoglar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo‘lishi kerak. San’atkorlarni targ‘ib qilish o‘choqlari sifatida maktablar, klublar, madaniyat saroylari va o‘quvchilar saroylarida tashkil etiladigan to‘garaklar alohida ahamiyatga ega.

Amaliy-badiiy bezak san’ati-teatr, kino, musiqa, tasviriy san’at turlari qatorida muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘z nomiga ko‘ra amaliyotda, ya’ni kundalik turmushda qo‘llaniladigan bezak san’ati ma’nosini anglatadi. Amaliy-badiiy bezak san’ati turli xil buyumlar, ko‘chalar, maydonlar, istirohat bog’lari, ishlab chiqarish korxonalari, o‘quv-tarbiya muassasalari, sport inshootlarini bezash

bilan bog’liqdir. Shuningdek, san’atning bu turi kiyim-kechaklar, zargarlik buyumlari bezagi uchun ham ahamiyatlidir. Amaliy bezak san’ati kishilar turmushida juda keng qo’llaniladi.

Ushbu o‘quv qo’llanma amaliy san’at sohasiga qiziquvchan yoshlarning estetik tarbiyasi, mehnat malakalarini, estetik tasavvurlarining shakllanishini va bolalar ijodkorligining rivojlanishini ko‘zda tutadi. O‘quv qo’llanma bilib olish jarayonida talabalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mezon, tamoyillari bilan ta’lim muassasasida naqshlar chizish, kashta va zardo‘lik buyumlarini tikish, naqshlarni bo‘yash, padozlash va san’at turiga xos o‘yish texnikalarini o‘rgatish vazifalari, mazmuni, uslubiyoti bilan tanishtiriladi.

Buxoro xalq amaliy-bezak san’ati

Buxoroning xalq amaliy-bezak san’ati qadimdan rivojlanib kelgan. Ko‘p asrlar davomida hunarmandlar tomonidan xalq turmushi bilan chambarchars boglangan bu san’atning boy, betakror hamda rang-barang badiiy an’analari yaratib, iqlim, tabiiy shart-sharoit va xalq urf-odatlarining ta’sirida kamol topib kelgan. Hunarmandchilik va amaliy san’ati xalq turmush tarzini aks ettirgan xalq ustalarining badiiy ijod mahsulidir. Bu san’at xalqning moddiy talabidan, turmush zaruratidan kelib chiqib, ularning g’oyaviy, badiiy va ijtimoiy amaliy mohiyatlarini birligini vujudga keltirgan.

Buxoro o‘zining faqat mahobatli me’morchilik obidalari Olimu fuzalolari ilm fan namoyondalari bilangina emas, balki ming yillab yaratib uni rivojlantirib o‘ziga xos an’analari asrlardan asrlarga, nasllardan nasllarga opichlab o‘tgan xalq daholari hunarmandlari yaratgan chinakam san’at asari darajasiga yetgan hunarmandchilik namunalari bilan ham mashhur. Asrlar jsha usta – shogird an’analari sodiq qolgan holda rivojlanib kelayotgan o’nlab hunarmandchilik turlarining beباho namunalari dunyoning ko‘plab muzeylari xazinasining mulkiga aylangan.

San’atshunos va olimlar e’tirof etishicha Buxoro hunarmandlari butun sharqda “moda tarqatuvchilar” nomiga sazavor bo’lgan.

Buxoro shahrining ikki yuzdan ortiq guzarlarining ko‘pchiligi alohida hunarga iqtisoslshgan bo‘lib, undagi ko‘plab ustaxonalarda turli soha hunarmandlari faoliyat ko‘rsatganlar.

Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan shaharda hunarmandchilik qadimdan rivojlanib, gullab yashnagan.

Buxorolik hunarmandlar yasagan, yaratgan mukammal shakl va mazmunga ega buyumlarni dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan savdo karvonlari orqali savdogarlar sotib olib, tijorat uchun boshqa yurt va shaharlarga olib ketishgan. Bu esa hunarmandchilikni yanada rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Xalq hunarmandchiligining eng qadimgi turlaridan biri kulolchilikdir. Buxoro vohasida qadimgi manzilgohlardan biri Zamonboboda topilgan spool

idishlar oxirgi I ming yilliklarga ta’luqli bo‘lib, ular mukammal shaklga va handasaviy reza naqshlar solib ishlanganligi kishini hayratga soladi.

Buxoro yaqinidagi Varaxsha va Poykent shaharlaridan topilgan kulolchilik namunalari, kulollar charxlari, kulolchilik ustaxonalari eramizdan oldingi IV – eramizning XII asrlarga ta’luqli bo‘lib, uy ro‘zg’or buyumlari yupqa, pishiq va har tomonlama mukammal qilib ishlangan. “Kufa“ yozuvida hadis va hikmatlar yozilgan sirlangan tavoqlagan,xurmocha ko‘zalar,qo‘ng’ir rangli sirli naqshlar bilan bezatilgan.Amir Temur va Temuriylar davri sopollari badiiy jihatidan o‘rta asrlar Xitoy chinnisidan qolishmaydigan qilib sariq, qizg’ish, qo‘ng’ir va moviy yashil ranglar majmuasining birligidan nozik gul, o‘simplik shoxchalari, handasaviy shaklli naqshlar , qushlar tasviri tushirib ishlangan.

XIX asrning oxirida G’ijduvonda o‘ziga xos kulolchilik markazi rivojlandi. U yerlik mashhur kulollar Usta Tosh, Usta Ergash, Usta Sodiqlar yasagan ko‘plab buyumlar hatto Mang’itlar hukumdorlari saroylarigacha yetib kelgan. G’ijduvon kulolchiliga xos sariq, yashil, qo‘ng’ir bo‘yoqli qo‘rg’oshin bilan sirlangansopol buyumlar tayyorlashi Usta Usmon Umarov va otasi Ibodullo Narzullayevdan keyin Akademik usta Alisher hamda Abdulla Narzullayevlar davom ettirmoqdalar.

Afsonaviy-hayvonot dunyosidan olingen mavzulardagi loydan yasab pishirilgan o‘yinchoq hushtaklar Vobkentlik-O‘balik Hamro Pahimova ijodining yorqin namunalari yorqin bo‘yoqli, xalq urf-odatlariga xos lirik jo‘shqinlik bilan yo‘g’rilgan bo‘lsa, keksa kulol Sa’dulla Fatullayevning fantastic qiyofalardagi “ajdaho”lar bilan bezatilgan spool idishlari, Zaynab Obidova va Kubaro Boboyevalarning “qo‘chqor”, “fil”, kiyik va qushlar obrazidagi hushtaklari xalqchillik bilan faqat bolalarni, hatto kattalarni ham o‘ziga rom qiladi.

Qadimdan misgarlik hunari Buxoroda mashhur bo’lgan. Misgarlar yasagan yu-ro‘zg’or buyumlari hatto tokchalarga qo‘yib uylarni bezatish uchun ham ishlatilgan.

Uzoq o‘tmishdan davom etib kelayotgan misgarlik san’atida o‘ziga xos shakl hamda amaliy va tasviriy usullar bilan ifodalanadigan mahalliy Buxoro uslubi vujudga kelgan.

1 – modul. AMALIY SAN’AT TURLARI

1.1.§ Amaliy san’at tarixi va turlari.

Reja:

1.O‘zbekiston amaliy san’at tarixi.

2. O‘zbek xalq amaliy san’at turlari.

Tayanch so‘zlar: qo‘lyozma, stillashtirilgan tasvir, kompozitsion, gandxara san’ati, o‘simliksimon.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san’ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san’at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, o‘zbek amaliy bezak san’ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya’ni ibridoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz.

O‘lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi

usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo‘lib, asrlar osha hozirgacha uzlucksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo‘lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqeahodisalarni, atrof muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg’otadi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u, o‘z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o‘rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo‘ldi. O‘zbekiston va umuman O‘rta Osiyo xalqlarining bizgacha yetib kelgan san’at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko‘p sonni tashkil etadi. Boshqa san’atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko‘pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma’lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangriga xosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoniy yo‘qligi avvaldan ma’lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o‘zi aqldan emasdur.

Boshqacha aytganda, hech bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko‘tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo‘ladi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik va xalq amaliy bezak san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan beba ho san’at asarlarining namunalari bo‘lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy, axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy

dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mavjud barcha san'at turlari o'z o'quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabiniga o'tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi va tarbiyalaydi. Shu o'rinda amaliy bezak san'ati turlarining fazilatlari juda ham o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Ya'ni, bunday san'at asarlari ayni chog'da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo'lgan.

Yaqin o'tmishda o'zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kulolchilik, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo'yrachilik kabi turlarining o'ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Bunday holat hozirgi kunda san'atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san'at havaskorlari oldiga amaliy bezak san'atini saqlab qolish, ularni har tomonlama o'rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san'at sir asrorlarini o'rgatish orqali o'rinbosarlar tayyorlash san'at asarlarini keng targ'ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga erishish vazifalarini qo'yadi.

Bu maqsadlar yo'lida olib boriladigan izlanishlar xalq ustalari, san'atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta'lim oishlari, san'atlarni egallahshlarini tashkil etish va to'g'ri ilmiy-metodik yo'nalishda olib borish, san'atkor pedagoglar tayyorlashni yo'lga qo'yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo'lishi kerak.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy - pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim - tarbiya amaliyotida qo'llashga

intilmoqdalar. Ta’lim berish jarayonida biz tariximiz, moddiy va ma’naviy boyliklarimizni qadrlashga, asrab avaylashga e’tibor qaratiiimiz lozim bo‘ladi.

O‘zbek xalqi o‘zining qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O‘zbekistonning qadimiyligi yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bu bir buyuk asar. Nodir qo‘lyozmalar, xalq amaliy san’ati namunalari bir vaqtlar o‘zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo‘lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me’morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o‘simpliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali orzu-umidlarni, muhabbatni xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san’atining ayrim turlari, ularning o‘ziga xos tomonlari, haqiqiy o‘zbekcha nomlari, ishslash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida turibdi.

Shuning uchun xalqimizning asrlar bo‘yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san’at durdonalarini ko‘z qorachig’idek asrash va saqlash, qadrlash, ulardan foydalanish hamda tarixini o‘rganish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Neolid va jez davrida yaratilgan jez, oltin, kumush taqinchokqar sodda shaklda bo‘lib, gulsiz yoki kesma chiziqli halqasimon ramziy naqshlar bilan ishlangan. Miloddan avvalgi 3 ming yillikdan boshlab taqinchoqlar chig’anoq va qimmatbaho toshlardan yasalgan. Feruza va lojuvard, aqiq, nifretdan turli shakldagi munchoq, to‘g’nag’ich va boshqa buyumlar tayyorlangan.

Sox qishlog’idan topilgan qora toshdan ishlangan tumor (miloddan avvalgi 2 ming yillik) toshtaroshlarning yuksak mahoratidan darak beradi: takasimon shakl markazida bir-biriga ro‘para turgan ikki ilonning boshi aniq ko‘rinib turibdi; bir-biriga tirmashib ketgan, ularning tanasi mustahkam asosda turgan toki hosil qilgan. Bu tumordagi juft ilon tasviri hosildorlik va

serpushtlilik, qadama «oq ko‘zlar» ilonlar terisiga ola-bulalik baxsh etgan hamda ko‘z tegishidan, kasalliklardan asrashga xizmat qilgan.

Temir asri (mil. avv. 1-ming yillik)ga oid oltin, kumush, bronza suyak va yog’ochdan yasalgan turli jang qurollari, uy-ro‘zg’or va zebu-ziynat buyumlarida «hayvonlarni tasvirlash uslubi» uning o‘ziga xos namunalari paydo bo‘ldi; tasvirlanayotgan hayvonlarning asosiy xususiyatlari ularning holati murakkab mujassamotga bo‘ysundirilgan.

Keyingi tarixiy davr (miloddan avvalgi III-asr) badiiy madaniyatining gullagan davri bo‘lib, amaliy bezak san’atiga keskin o‘zgarishlarni kiritdi. Bu davrda usullar ellistik (ayniqsa, Yunon-baqtrya podsholigi davri) va hind (gandxara san’ati) an’analarini o‘zlashtirdi. Muhr va tangalarda Yunon-baqtrya shoxlarini tasvirlashda inson ruhiy olamini ochishga harakat qilingan. Uslubning keying (mil.avv. Iasr) rivoji umumlashtirish, cheksiz hokimlik g’oyasini ifodalovchi shoxlar, ma’budalarning umumlashma obrazlarini yaratish yo‘lidan bordi. Zargarlik buyumlaridan Kushon davlatidan topilgan I asrga oid 3 ta silliq nayzani qalaylab markaziga Gerakil tasviri ishlanganligi, diqqatga sazovordir.

Bunda baqtryalik usta oltinning yorqin va sokin jilosini, uning mayin qiyofasi bilan inson shakli mos tushishini ko‘rsatuvchi metall va shaklning ajoyib uyg’unligini topib bera olgan. Bo‘rtma gulli, mazmunli sahnalar va murakkab mujassamot bilan kelib chiqishi ellenistik an’analariga borib taqalgan I-II asr metall va sopol idishlarga kushonlik usta o‘ziga xos mahalliy xususiyatlarni kiritgan. Sopol haykalchalar yasash san’ati keng taraqqiy etdi. Ma’bularning mahalliy etnik belgilari bo‘lgan an’anaviy qiyofalari yaratildi. Ular ro‘paradan qat’iy holatda hissiz yuzli qilib suyak yoki Xorazm kiyimlarida tasvirlangan. Sopol idishlar ishlab chiqarishda yuksak mukammallikka erishgan.

Gulsiz yoki gulli (handasaviy naqshlar yetakchi o‘rin egallagan) nozik qadahlar, kosa, piyola, ko‘za va buyum idishlar sodda, ifodali shaklda tayyorlangan. Shishadan buyumlar tayyorlangan, suyakdan ishlangan fil va boshqa hayvonlar ko‘rinishidagi shaxmat donalar saqlangan. Amaliy san’atning ayrim turlari Baqtriya san’ati bilan turli darajada uyg’unlashib ketgan kamdahor

san'ati ellinizim va sak an'analari xususiyatlari ko'zga tashlangan. Unga hayotning o'zi va mifologik asosiy ma'buda bo'lган. Bu san'at uslubiy yo'nalishi jihatdan xilma-xil tasvirlashda hayotiy haqiqatga yaqin, shuningdek, afsonaviy mavzularga asoslangan shakllarga ega. Shu davrga oid zargarlik san'ati haqida Dalvarzintepa xazinasi buyumlari katta ma'lumot beradi. Ilk O'rta V-VIII asrda amaliy san'atga yangi mazmun va shaklni talab etadigan g'oyalar kirib keldi, bu sohada yangi uslubiy yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Kandakorlikda oltin, kumush, jezdan turli shakldagi kosa, lagan, ko'za, qozon, chiroqdon va boshqa idishlar tayyorlandi. Ular hayotiy lavhalar, epik va afsonaviy mazmunlar (ov, to'y, raqqosalar, jangchilar kurashi), durlar halqasi ichida ishlangan hayvonlar tasviri bo'lган turli mujassamotlar bilan bezatildi. Tasvir uslubida qadimiya san'at xususiyatlari yo'qolib bordi, shakllar qat'iy bo'lib, ularning nisbati o'zgardi, umumlashtirish kuchaydi. Teriga badiiy ishlov berish san'atining mavjudligi haqida qurollangan chavandoz tasviri tushirilgan bo'yama naqshli charm bilan qoplangan qalqon (VIII asr) guvohlik beradi. Shu davrda to'qimachilik ham rivojlandi. Ip va ipakdan turli matolar tayyorlangan, zarli parcha matolar ishlangan, ayniqsa, murakkab gulli rangdor to'qilishli zandonachi (VII-IX asr) nomli nafis mato mashhur bo'lган. Zandonachi matosida gullar taqsimli bo'lib, yirik durlar halqasi bilan hoshiyalangan aylana va boshqa shakldagi turunjlar bir maromda takrorlanadi. Turunjlarda ko'pincha bir-biriga ro'baro' turgan juft sher, qo'y, filning qat'iy tantanali holatdagi tasvirlari berilgan. Ularning tanasi va tana bo'laklari naqshlar bilan ishlab chiqilgan.

Rangli, bo'yama naqshli ostadonlarda motam lavhalari xalq san'atining sodda usulida ishlangan. Sopol idishlar tayyorlash rivojlandi, uning shakli va hajmi boyidi, bu sohada mahorat ortdi. Mayin shaklli, nisbatlarga amal qilingan ifodali nozik hajmli idishlar tayyorlandi. V-VIII asrlarda sirlanmagan, bezaksiz va bosma, chizma, o'yma va qadama usulida odam, hayvon, o'simliklarning bo'rtma tasvirlari ishlangan sopol buyumlar ishlandi. Keyinchalik ularni bezash uslubi o'zgardi: naqsh mujassamoti islimiy, handasaviy, hayvon shakllari va

yozuvli naqshlar bilan to‘ldirilgan yo‘llar, belbog’, hoshiya, turunjlarga aniq bo‘lindi. Sirlashning keng ishlatilishi (VIII asr oxiridan) kulolchilik taraqqiyoti uchun badiiy imkoniyatlarni ochib berdi va bo‘yama sopol san’atining gullab-yashnashini ta’mirladi (IX asrdan boshlab).

VIII-XIII asrlarda amaliy bezak san’ati yo‘nalishlari ayniqsa, yog’och o‘ymakorligi, ganch o‘ymakorligi, kulolchilik, kandakorlikga islom dini estetikasi katta ta’sir qildi.

Zargarlik san’atida davrning asosiy uslubini ifodalovchi g’oyaviy birlik, barqarorlik kabi yangi an’analar ko‘zga tashlanadi. Oltin, kumush va jezdan to‘g’ri handasaviy shaklli taqinchoqlar ishlangan. Oltin qirrali prizma yoki silindr shaklli chetlari qubbali tumorlar, konussimon, o‘simlik va buyum mavzuli tasvirlar ishlangan, shuningdek, ezgu tilakli yozuvsalar bitilgan handasaviy qismlarga bo‘lingan gumbazli, konussimon uzunchoq va ko‘p qirrali munchoqlar, shakl va naqshning ko‘proq ifodali bezagini topishga yo‘naltirildi. Hunarmandlar ijodiy ishlarida qimmatbaho toshlar – la’l, safsar, yoqut, feruza, lojuvard, toq billuri, nefrit va boshqalarni qo‘llaganlar.

Sopol idishlar tayyorlashda dastlab silliq yuzali yoki bo‘rtma gulli buyumlar rangli sir bilan qoplangan, keyinroq rasm paydo bo‘ldi, rangi va bo‘yama naqsh bilan boyitiladi, kulollarning estetik didi mahoratini ifodalovchi nafis ishlangan rasm va yozuv shakli ishlab chiqiladi. Dastlab gullar sopolga qat’iyligi bilan ajralib turgan laganning oq zaminida butunlay yoki cheti bo‘ylab yozuv qatori yoki nafis qora qizil naqsh joylashtiriladi. XI–XIII asrlarda naqsh mujassamoti murakkablashadi va bezak hamohangligi yaratiladi.

Chiziqlarning har xil shaklli turunjlar hosil qilishi, ularning islimiy, handasaviy naqshlar, hayvon tasvirlari va yozuvlar bilan to‘ldirilishi ortadi.

Nazorat savollari:

1. Xalq amaliy bezak san’ati nechanchi asrda vujudga kelgan?
2. Islom dinni amaliy san’at turlariga qanday ta’sir o‘tkazdi?
3. Amaliy san’at turlarini sanab o‘ting?

4. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra Dalvarzintepadan qanday buyumlar topildi?

5. Handasaviy naqsh qanday naqsh?

1.2.§ Ganchkorlik san'ati

Reja:

1. O'rta Osiyo ganchkorlik san'ati tarixi

2. Ganch o'ymakorligi maktablari va ustalari

Tayanch so'zlar: qal'alar, karvonsaroy, **palmetta**, gorelef, axta, ulgu, ritm.

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi husn-jamolini dunyo me'morchiligidagi, shu jumladan O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligidagi namoyon qilib kelmoqda. Ayniqsa, O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiyili kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalariga ko'raklik, go'zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaharlardagi obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan.



Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan xohlagancha shakllarni o'yish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so'ng qattiq toshga o'xshab qoladi.

Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatlaridan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan-avlodga o‘tib tarixiy an’ana sifatida rivojlanib bormoqda. Ganchkorlik san’atimiz faxri, beqiyos va bebaho xazinasidir. Hech shubhasizki,, uni chuqur o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ganch o‘ymakorligi san’ati asrlar davomida o‘ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san’atning eng qadimgi, o‘rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko‘zdan kechirib, o‘rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o‘ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch o‘ymakorligi hajmliy bo‘lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko‘pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal’alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo‘lib o‘tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.

III asrda Tuproqqal’aning serhasham saroy mehmonxonalari o‘yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan va eramizdan avvalgi III-IV asrlarda ishlangan ganch o‘ymakorligi namunasi topilgan. Unda o‘simliksimon naqshlar, **palmetta**, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan. Ayniqsa gorelefli ishlangan baliq tasvirida o‘yilgan ganch namunasini ko‘rsatish mumkin.

Varaxshadagi topilmalardan VII-VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar baliqlarni, o‘simliksimon va geometrik shakllarning o‘yma namunalarini ko‘rish mumkin. O‘rta Osiyoni arablar bosib olganidan keyin islom dini hukmron bo‘lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni ta’qiqladi. Buni O‘rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko‘rish mumkin.

Xususan VII-VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san’atning xilma-xil namunalari saqlangan.

Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch o‘ymakorligi namunalarida to‘lqinsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda o‘simliksimon naqshning islimi turi ko‘p ishlatilgan.

X-XI asrlarda naqqoshlik, yog’och, tosh va ganch o‘ymakorligi yanada rivojlangan. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo‘ldi. Ganch o‘ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan qismiga ham qo‘yilgan. Har xil geometrik shaklli qilib g’isht terish rivojlangan. Afrosiyobda arxeologik qazishmalar natijasida X-XI asrlarda ishlangan saroylarning qoldiqlari topilgan. Ayniqsa izora(panel) ganchi topilgan bo‘lib, unda geometrik va o‘simliksimon naqshning chuqur o‘ymalari ishlatilgan. O‘yma chuqurligi 2-3 sm bo‘lgan, naqsh qoramtil soya hisobiga aniq oppoq bo‘lib ko‘rinib turibdi. Ganch devorga qalin qilib suvalgan, naqsh tasviri devor sirtiga to‘ppa-to‘g’ri chizilib o‘yilgan. O‘sha davr ustalari axtadan(ulgudan) foydalanmaganlar. Binolarning tashqi qismiga esa quyma asosida ganch ishlari bajarilgan.

III asrlarda murakkab naqshlar paydo bo‘ladi. Ustalar tabiatdan o‘simlik va hayvonlarning tasvirini stillashtirib, ganch o‘ymakorligida ishlatganlar. Shu devorlarda o‘ymaning chuqurligi 7 mm dan oshmagan. Uylarning tashqi qismiga namoyon, ustun va peshtoqlariga ganch o‘yma ishlatilgan. Farg’ona vodiysida XII asrda bezak sifatida har xil plitkasimon o‘yma ganch namunalari ishlatilgan. Bu binolarni ganch bilan bezatish keng avj olganligini ko‘rsatadi. O‘zgan yodgorliklari shartli ravishda shimoliy, o‘rta, janubiy deb nomlangan maqbaralarning intereri, devor peshtoqlari, ravvoqlari juda ham nafis o‘yma naqshlar bilan ishlangan. Mavorounnaxrda ganchkorlik san’ati, ayniqsa ravnaq topgan, me’morchilikning asosiy bezagi darajasiga ko‘tarilgan. Unda fantastik hayvonlarning tasvirini ko‘rish mumkin.

Termiz maqbaralaridagi ganch o‘ymakorlik san’ati o‘sha davrning yuqori cho‘qqisi desa bo‘ladi. XII asrda muqarnaslar hosil bo‘ladi va ko‘pgina binolarda ishlanila boshlangan. Muqarnaslar oddiy ganch o‘ymakorligidan farq qilib, ancha

murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanila boshlandi. Binolarnig ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobda topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi. XIV-XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangi-yangi naqshlar yaratildi. Binolarda ganch o'ymakorligi, uzviy bog'langan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Koshin va toshdan o'yilgan bezaklardan foydalanish natijasida ganchkorlik asta sekin minoralarning ichki qismiga qo'llaniladigan bo'ldi. Ganch o'ymakorligida mashhur bo'lgan XVIII asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o'sha vaqtida xalqqa tanilganlardan. Muhammad Muso o'g'llari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlagan, g'isht terishda ham obro' qozonishgan.

Ganchkorlikning gullab yashagan davri XVIII asrning oxiri-XIX asrning boshlari bo'ldi. Uning uslublari, texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o'ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali bo'yoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqildi.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi va Xivada o'ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o'ymakorligi texnikasi kishini qoyil qiladigan darajada o'sdi. Buxoro bezaklari mayin, gullari juda ham nafis, Marg'ilonnig guldor bezaklari yaxlit ko'rinishga ega, Toshkentniki esa qat'iy va ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o'yma naqshlari o'ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi.

XIX asrning boshlarida buyuk ganch o'ymakorlaridan Abdurahim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Nosir, Usta Hayot Nosirov, Usta Xoji Xofiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usto G'ofir, Usta Ibrohim, Usta Savri, Usta Abdufattoh va boshqalar faoliyat ko'rsatdilar.

Asr boshlaridagi ishlar esa o'yma rel'efli juda muayyan uslub texnikasi paydo bo'ldi. Rangli ganchlar, bo'yoqlar, naqsh va tasvirlar qo'llaniladigan bo'ldi.

Boylar,xonlar va amaldorlar o‘zlariga saroylar,bog’lar va qasrlar qurdirib, ularni o‘yma ganch bilan bezattirdilar. XX asrning boshlarida diplomat amaldor A.Polovsev Toshkentda yashardi. U Turkiston arxeologiyasi xavaskorlari to‘garagiga a’zo bo‘lib, sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. Shuning uchun u qiziga yevropacha uy qurdirdi.

Bino baland ayvon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A Polovev o‘zbek xalqi san’atini yaxshi biladigan etnograf M.S. Andreevni bezak ishlariga bo‘shliq qilib tayinlaydi. U o‘zbek xalqi san’ati namunalarini yig’ib, ularni o‘rganishga hayotini baxsh etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari Farg’ona, Buxoro, Qo‘qon va boshqa shaharlardan ganch o‘ymakorlar, yog’och o‘ymakorlar va naqqoshlar taklif qilingan edi. Shular jumlasidan Usta Shirin Murodov, Usta Arslonqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpo‘lat Arslonqulov va boshqa ganch o‘ymakorlar ham bor edi. M.S Andreev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi Toshkent ustalariga ayvon, mehmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, g’arbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi.

1902-1903 yillarda evropacha qurilgan uy o‘zbek milliy bezagida pardoz qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jimjimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarining ishlari o‘ziga xos xarakterda bo‘lib, o‘yma naqsh kompazitsiyasida katta shohbarg va to‘pbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu yerda pardozning hamma turlari qo‘llanilgan. Devorlarga o‘yilgan ganch o‘ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontal joylashtirilgan, atrofi geometrik, mayda ensiz zanjira, islumi hoshiya naqshlar bilan bezatilgan. Namoyonlar xuddi yuqoriga qarab o‘sayotgan tabiat o‘simliklarini eslatadi. Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorug’lik hisobiga juda o‘rinli tanlangan. Derazadan tushadigan yorug’lik o‘ymani yanada badiiylashtirgan.

Nazorat savollari:

1. Ganchkorlik san’ati tarixi haqida gapirib bering?
2. Ganch o‘ymakorlik maktablari va ularning bir-biridan farqi nimada?
3. Ganchkorlik naqsh kompozisiyalarini chizib ko‘rsating?

4. Ganch o‘ymakorligi o‘yish texnalogiyasining bosqichlarini sanab o‘ting?
5. O‘zbek ganch o‘ymakorlik san’ati ustalaridan kimlarni bilasiz?
6. Ganch o‘ymakorligida qanday usulda pardoz beiladi?

1.3§. Yog’och o‘ymakorligi san’ati

Reja:

1. Yog’och o‘ymakorligi san’ati tarixi
2. Yog’och o‘ymakorligi maktablari.

Tayanch so‘zlar: Monumental, qo‘rg’on, gumbazi, sardobalar, iskana, kufiy.

Arxeologik qazish ishlari natijasida Surxon vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgpn yog’och o‘ymakorligi topilmalari mazkur joylarda bir, bir yarim ming yil muqaddam san’atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o‘z izlanishlarining mahsuli sifatida isbot etib berishdi. Hali-hanuz bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon vohasida, balki Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Farg’ona vodiysidagi So‘g’d va boshqa qadimiy shahar, qishloqlardan V-VI asrlarga tegishli bo‘lgan san’at asarlari topilmoqda.

Samoniylar davrida amaliy bezak san’ati, ayniqsa kulolchilik, shishasozlik va yog’och o‘ymakorligi rivojlandi. Monumental me’morchilikka katta e’tibor berildi, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, saroylar, ma’muriy binolar, savdo rastalari, hammomlar, masjid va madrasalar qurildi. qurilishda asosan pishiq g’ishtdan foydalanildi, ba’zan bino devori xom g’ishtdan, tomi gumbazi pishiq g’ishtdan ishlandi. Hunarmand-ustalar tomonidan binolarni ko‘rkam va chidamli bo‘lishligiga e’tibor qaratildi, bor bilim va kuchlarini safarbar etdilar.

VI-VIII asrlarning boshlariga kelib ko‘shk, qo‘rg’onlar, shaharlarga ibodatxonalar va saroylar qurildi. Bu davrda yog’och va ganch o‘ymakorligi yanada rivoj topdi, devoriy rasmlar rang-barang bo‘lishiga e’tibor qaratildi, buni Afrosiyob, Varaxsha va Yumaloqtepa singari madaniy yodgorliklarimiz misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi san’at asarlari, sug’diyalar madaniyati bizga, o‘sha davrlarda jumhuriyatimiz hududida yashagan xalqlar qo‘shni xalqlar bilan savdo-sotiq olib borgan, bu esa bizga qo‘shni xalqlar bilan ham madaniy aloqada

bo‘lgan deyish imkonini beradi.

Arablar VII-VIII asrlarda ibodatxonalarni, tasviriy san’at asarlarini yo‘q qilib tashladilar. Natijada san’atda sal kam bir asr tushkunlik hukm surdi.

Arablar o‘rta Osiyoni zabit etgunlariga qadar mahalliy xalq ma’budalari topilgan. Har bir xonadonning jamoada tutgan o‘rni va boyligiga qarab, o‘z ma’budasi (xudosi) bo‘lgan. Odatda bu ma’buda eshik tepasiga qo‘yilgan. Xonadon sohibi mavridi bilan yog’ochdan o‘yilgan yangi ma’budani xarid qilib, almashtirib turgan. Bunday jarayon yog’och o‘ymakorligi san’ati qadimiy bo‘lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosи oqibatida tasviriy san’atning ko‘p turlari qatori yog’och haykallar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq Islom dini bu san’atni tag-tugi bilan yo‘qota olmadi. Yog’och tarashlovchi usta naqqoshlar o‘z san’atini yog’ochda dov-daraxtlarni aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar.

Islom dini paydo bo‘lgan ilk davrlarda qabr ustiga yodgorlik qo‘yish man qilingan. Bu kabi qonunlarga amvoiylar va abbosiyalar ilk hukmronligi davrida rioya qilingan. Ammo, keyinchalik arablar jumhuriyatimiz hududida dastlab masjidlar qurdilar, qadimiy ibodatxonalarni masjidlarga aylantirdilar. Bunga misol qilib Buxoroning Moh bozoridagi ibodatxonani olib ko‘rishimiz mumkin. Nihoyat arxitektura va amaliy bezak san’atida, hunarmandchilikning turli sohalarida jonlanish boshlandi. 862 yilda Al – mantasir va Fotiddin, so‘ngra ruhoniylar fatvosi bilan «Amir al-ma’man»ga atab maqbara bunyod qilindi.

Islom dini tirik mavjudotlarni tasvirlashni qat’iy man etgani tufayli tasviriy san’at rivojiga imkon bermadi, faqat amaliy bezak san’ati rivoj topdi. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar turli tuman naqshu – nigorlar bilan bezatila boshlandi.

VIII-IX asrlarda ayniqsa Buxoroda badiiy hunarmandchilik keng-ko‘lamda rivoj topib bordi. IX-X asrlardan girih san’ati yuksaldi. Arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko‘tarildi. Masalan, shu davrlarda kufiy yozuvidan keng foydalanilgan bo‘lsa, XI-XII asrlardan esa naqsh yozuvi me’morchilikda keng – ko‘lamda ishlatila boshlandi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining ko‘rinishi yanada takomillashdi,

ko‘plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko‘priklar, sardobalar, shaharlarda hammom, tim va boshqa savdo rastalari qurila boshlandi. Monumental binolarning tarhi, qiyofalariga o‘zgartirishlar kiritldi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Jom’e masjidlari saroy tipida serhasham qilib qurildi, guzar va mahallalardagi masjidlar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar, o‘yma ustunli va eshiklari ham o‘yma bezaklar bilan bezatildi.

XVII asrda kelib o‘rta Osiyoda avj olgan o‘zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitektura va badiiy hunarmandchilikka salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ko‘pgina musavvir va hunarmandlar hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo‘ldilar. XVII asr oxirlariga kelib me’morchilik va amaliy bezak san’ati rivojlana boshladi. Saroy qurilishlarida xalq me’morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanib, ichkari hovli, hovuz ko‘p ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshlandi. XVIII-XIX asrlarda binolarning ayniqsa, ichki qismini koshin, tosh, ganch va yog’och o‘ymakorligi bilan bezatildi. Bularidan misol qilib, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ko‘rish mumkin.



Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasiga ishlangan yog’och o‘ymakorligi san’ati

Buxorodagi Chorminor, Qo‘qondagi Dahmai Shohon asori atiqalarini keltirishimiz mumkin.

Asrimizga qadar san'at asarlari turli qirg'inbarotlar tufayli vayronalar ostida qolgan bo'lsa, asrimizda "qizil ko'lanka" ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatag'on qilishdi. hunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishida ayblab faoliyatları to'xtatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzanlaridan ijodkor ustalar usta Shirin Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin G'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, Quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, haydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Xaydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov va boshqa bir qator hunarmand ustalar o'zlarining hunar sirlarini maktabda va mакtabdan tashqari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'ydilar. Keyinchalik esa o'z uslubi, yo'naliishiga ega bo'lgan Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va qo'qon kabi yirik yog'och o'ymakorlik maktablari rivoj topdi.

Xiva yog'och o'ymakorligining rivojida Ota Polvonov va Sapo Boqbekovlarning ijodiy faoliyati alohida o'rinn tutadi.



Usta Ota Polvonov va Abdulla Polvonov ish jarayoni

Bu maktab o'ymakorligi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabida esa o'ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, o'simliksimon girih va gulli girih naqshlarining ko'p ishlatilishi hamda o'yma yuzasining ranglanishi bilan ajralib turadi. Ijodkor ustalar Abduxofiz Jalilov, Asatilla, Nasrulla, Nurali Nazrullaevlardir.

Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabining yirik namoyondalari Sulaymon Xo'jaev, Maqsud Qosimov va Ortiq Fayzullaevlardir.




Usta Ortiq Fayzullaev

Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabining boshqa maktablardan farqi shundaki, o'ymasining ko'p qavatliligi, o'rtacha chuqurlikda o'yilib, islimiy, geometrik, ramziy naqshlar ko'proq ishlatilishidadir.

Qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi ham o'ziga xosligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Yirik ustalaridan Xaydar Najmiddinov va Qodirjon Xaydarovlardir. Bu maktab o'ymakorligining mahobatliligi, yirikligi, o'ymalarining chuqurligi va ko'p qavatliligi bilan farqlanib turadi.

Sulaymon Xo'jaev 1866 yili Toshkentdagi Suzukota mahallasida yashovchi usta va duradgor Nasrulloxo'ja oilasida dunyoga keldi. Yoshlik davrida Sulaymon otasiga yordam berar, lekin ko'nglida yog'och o'ymakorligini o'rghanishga bo'lган istak tobora kuchayib borardi. U 17 yoshida usta Iskandar Mirzayoqubov ustaxonasida, so'ngra 1981 yildan esa o'sha davrdagi yog'och o'ymakorligining pargori ustalaridan biri Toshpo'lat Ayubxo'jaevga shogirdlikka tushib yog'och o'ymakorligining sir-asrorlarini o'rgandi.



Usta Sulaymon Xo'jayev

Usta Sulaymon Xo'jaev 1913 yilda Sankt-Petburg shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya kasblari ko'rgazmasida naqshlangan kursichasi va qush qafasi bilan ishtirok etib, ana shu ajoyib ishlari uchun "Za poleznie trudi" bronza medali va diplom bilan taqdirlandi. Bundan tashqari Sulaymon Xo'jaev juda ko'plab ko'rgazmalarda o'zining ijod namunalari bilan ishtirok etdi. 1923 yilda Rossiya qishloq xo'jaligi hunarmandchilik ko'rgazmasida, 1927 yilda xalqlar san'ati ko'rgazmasida qatnashib 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan san'at va texnika ko'rgazmasida qatnashib yuksak baho oldi.

Usta Sulaymon Xo'jaev O'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bo'lib 1932 yilda Mehnat qahramoni unvonini oldi. Yog'och o'ymakorligining Tashkent maktabi, namoyondalaridan biri, pargori ustasi S.Xo'jaev 81 yoshida 1947 yilda vafot etdi.

Toshkent yog'ochi o'ymakorligi maktabining nomoyondalaridan yana biri Maqsud Qosimovdir.



Usta Maqsud Qosimov

Maqsud Qosimov 1905 yil Toshkent shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi (7-rasm). Tog’asi Mirsoat Isamuhammedovdan duradgorlik sirlarini o‘rgandi va 16 yoshidan duradgor bo‘lib ishlay boshladi.

1935 yilda Toshkent shahrida hunarmandchilik o‘quv-ishlab chiqarish kombinati ochildi. Maksud mazkur o‘quv-ishlab chiqarish kombinatiga o‘qishga kirib tez orada yog’ochga, ganchga, toshga metallga gul o‘yish sirlarini o‘rgandi.

Shu davrning ko‘zga ko‘ringan yog’och o‘ymakorligi ustalaridan Qo‘qonlik Abdurazzoq Abduraxmonovdan islimiyl, Toshkentlik Sulaymon Xo‘jaevdan pargori naqshi va Toshkentlik Nasriddin Ziyaqorievdan panjara yasash sirlarini o‘rgandi.

Maqsud Qosimov keyinchalik Xalq xo‘jaligi muzeyi (hozirgi Badiiy ko‘rgazmalar direktsiyasi, 1933-34 yillar), Moskvadagi Butunitfoq qishloq xo‘jaligi ko‘rgazmasida O‘zbekiston, Qirg’iziston va Tojikiston pavilyonlarini (1937-40 yillar) jozibador qilib bezagan bo‘lsa, 1940-42 yillarda qirg’izistonning Frunza shahridagi hunarmandchilik o‘quv-ishlab chiqarish kaminatiga ishga taklif qilindi va nafis yog’och o‘ymakorlik san’atidan yoshlarga saboq berdi.

Maqsud Qosimov 1943 yilda Muqumiylari teatri uchun 3 ta eshikni, 1943-46 yillari Navoiy teatri qurilishida ishtirok etib, ganchkorlik ishlarini hamda o‘rindiqlar suyanchig’ini o‘yma naqshlar bilan bezadi. Maqsud Qosimov o‘ymakorlik ishlari bilan birga me’moriy obidalarini ta’mirlash ishlarida ham

ishtirok etdi. Jumladan, Povlovtsев uyi (hozirgi xalq amaliy san'at muzeyi) eshik va ustalarni qayta ta'mirladi.

Hozirgi kunda usta Maqsud Qosimovning yaratgan nafis asarlari Tashkent, Samarqand, Moskva, Sankt-Peterburg va boshqa chet el muzeylarida doimiy eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. Usta Maqsud Qosimov 1965 yilda vafot etdi. Bugungi kunda uning ishini O.Fayzullaev, H.Qosimov, H.Rixsiyev, A.Shokirov kabi shogirdlari davom ettirib kelmoqdalar.

Samarqand yog'och o'ymakorlik maktabining yirik vakillaridan biri Nurilla Nazrullayevdir. U 1870 yili Samarqandlik usta Nazrulla oilasida tavallud topdi. N.Nazrullaev dastlabki yog'och o'ymakorlik sabog'ini otasidan o'rgandi. Keyinchalik o'zining tinimsiz mehnati, izlanishlari natijasida xalq orasida o'ymakor usta sifatida shuhrat qozondi. U eshik va darvozalarni nafis va yuksak mahorat bilan bezar ekan, naqshning islamiy va pargori usullaridan keng-ko'lamda foydalanda. Pardozning choka va pax turlarini qo'llab o'ziga xoslikka erishdi.


Ustalar orasida "Usta usta emas, asbobi usta" degan hazilnoma naql bor. haqiqatan ham ishning asosiy qismi turli asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Bu isbot talab etmaydigan haqiqat. Yana ustalarimiz "Asbobing soz bo'lsa, mashaqatning oz bo'lur", "Ishni asbob qiladi, ustasi lof uradi" kabi matallarni bejizga aytmaydilar. Ishning nechog'lik sifatli va ko'r kam chiqishida ustaning mahorati barobarida asbobning sozligiga ham bog'liq.

Musiqa san'atida bir notaning o'rnida ikkinchi bir notada kuy chalib bo'limganidek, chalgan taqdirda ham uning tasirchanlik kuchini yo'qotish va tinglovchini musiqaga bo'lgan mehrini susaytirgani kabi yog'och o'ymakorlik san'atida ham har bir iskananing o'z o'rni, o'zi bajaradigan vazifasi bor. Iskananing sozligi va ustaning mahorati mujassam bo'lgan taqdirdagina kishini hayratga soluvchi ajoyib san'at asarlari yaratish mumkin. Buning uchun hunar o'rganuvchi tolibdan ko'p mashq va mehnat talab etiladi.

O‘ymani bajarish uchun 1 ta iskanalar to‘plami, yog’och taxtachalar, qora qalam, chizg’ich, o‘chirg’ich, jilvir qog’ozi, shaffof qog’oz va boshqalarni xozirlab olish zarur. o‘ymani sifatli chiqishida iskanalar bilan bir qatorda yog’och materiallarning sifatiga ham bog’liq. o‘ymakorlikda ishlatiladigan yog’och materiallari qattiq, pishiq, puxta, namga va chirishlarga chidamli hamda kam butoq, silliq, to‘g’ri va yorilmagan bo‘lishi talab etiladi. Dastlab taxtachani kerakli o‘lchamda kesib, randalab olingandan so‘ng, avval yirikroq, so‘ngra esa mayin jilvir qog’ozida jilvirlab tekislanadi. o‘yishda yong’oq, o‘rik, qora qayin, mirzaterak kabi yog’och materiallari juda qo‘l keladi.

Tekislangan yuzaga avvaldan tayyorlab qo‘yilgan axta yordamida naqsh namunasi tushirilib qora qalamda chizib chiqiladi. So‘ngra naqshning har bir elementini, qismini, turini va guruhini o‘yishda “Oddiydan murakabga, osondan qiyinga” tamoyiliga rioya qilgan holda amalga oshirish lozim. Naqshlarning qanaqa guruhlarga mansubligi, o‘ymaning yirik yoki maydaligiga qarab, dastlab yarim gajak, gajak, novdalari, tanoblari baliq sirtli iskana bilan kesib chiqiladi. hoshiyaning chetlari esa kurakcha iskana yordamida kesiladi. Naqsh atrofi to‘liq kesib bo‘lingach, maxsus uchi egik iskana bilan naqshning zamini o‘yilib chuqurlashtiriladi. Uyma zaminining tekislashda esa to‘g’ri iskanalardan foydalaniladi. Islimiylar 0,5 sm dan 1 sm gacha bo‘lgan chuqurlikda o‘yib, so‘ngra chakichlanadi.

O‘yama to‘liq bajarib bo‘lingach, naqsh turiga mos pardoz turi tanlanadi. Biz o‘yayotgan 9 ta yo‘l ichidagi oddiy islumiylar namunasida deyarli pardozning murakkab turlari uchramaydi, faqatgina chizma pardoz bilan chegaralaniladi. o‘yish sir-asrorini o‘rganayotgan tolibga dastlab o‘yishni puxta egallab olishi, so‘ngra pardozning pax (yoyma), choka (yorma), lo‘la va tabaqa turlaridan bemalol foydalanishlari mumkin.



Pargori naqshi islimiyligi qaraganda ancha murakkab bo‘lib, ustadan ancha ko‘p mehnat, sabr-toqat va chidamni talab etadi. Pargori naqshini o‘yishda avvalgi ustalarimiz axtani o‘yiladigan yuzaga qo‘yib, ustidan qalam, sirkul va chizg’ich yordamida chizib o‘yishar yoki axtani o‘yiladigan yuzaga qo‘yishgandan so‘ng, axta ustidan kurakcha iskana yoki keskich bilan kesib yuzaga tushirishar va o‘yishar edi. Bu esa o‘ziga xos qiyinchilik olib kelar va o‘ymani sifatiga putur etkazardi.

O‘ymakor ustalar bugungi kunda axtani igna bilan teshib, xoka yordamida o‘yiladigan yuzaga tushirib, so‘ng qora qalamda chizib chiqidilar. Bu o‘ymaning sifatli, jozibador va ko‘rkam chiqishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Yog’och o‘ymakorligiga oid yo‘l ichidagi oddiy pargori naqsh namunalarini o‘yishda islimiyligi naqshlarini o‘yganimiz singari amalga oshiriladi. Yog’och materiallardan yong’oq, o‘rik, olma, qora qayin, mirzaterak va shumtol kabilar o‘zining sifatliligi bilan ajralib turadi. Ushbu daraxtlardan olingan taxtachalarni kerakli o‘lchamda kesib, randalab jilvirlanadi.

Tekislangan yuzaga axta va xoka yordamida naqsh namunasi tushirilib qora qalamda chizib chiqiladi (58-64 rasmlar). O‘yish jarayoni islimiyligi naqshlarini o‘yish bosqichi singari amalga oshirilip, dastlab yarim gajak, gajak va bandlari kesib chiqiladi. Pargori naqshini o‘yishda asosan 5 xil asbob ishlataladi. Naqsh

atrofini kesib chiqishda nova iskana, baliq sirti iskana va to‘g’ri iskana ishlatsa, zaminini o‘yib tekislashda zamin iskana ishlataladi.

Pargori naqshlarining zaminini chakichlashda chekma iskanalarga nisbatan chekma qalamlar ko‘proq ishlataladi. Chakishlash jarayonida chekma qalam tig’ini o‘ymaga tik ushlagan holda urib chiqilsa, bir xil ko‘rinishga ega bo‘ladi, nafisligi va jozibadorligi oshadi. Odatda pargori naqshlari 1,5 mm dan 3 mm gacha o‘yiladi. Bu pargori naqshining o‘ziga xos tomonlaridan biri hisoblanadi.

O‘ymani bajarish davomida har bir iskanani ehtiyotkorlik bilan o‘z o‘rnida va o‘rinli ishlatishni o‘rganish lozim. Bu esa o‘yilayotgan yuzaning sifatli , ko‘rkam va jozibador chiqishiga olib keladi. Iskanalarni ishlatib bo‘lgach noto‘g’ri joyga qo‘yish, bir-biriga urintirish asbobni tezda o‘tmas bo‘lishiga olib keladi va o‘yma sifatiga putur etkazadi. Iskanalarni maxsus tayyorlangan qutichalarda yoki yumshoq latta materialga o‘ragan holda saqlash kerak.

Nazorat savollari:

1. Yog’och o‘ymakorligi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Temur va Temuriylar davrida yog’och o‘ymakorligi qay darajada rivojlandi?
3. Yog’och o‘ymakor ustalaridan kimlarni bilasiz?
4. Qanday yog’och o‘ymakorlik maktablari bor

1.4.§ Naqqoshlik san’ati

Reja:

1. Naqqoshlik san’ati tarixi va rivojlanishi.
2. Naqqoshlik san’ati maktablari ularning namoyondalari.

Tayanch so‘zlar: naqsh, girih, islamiy, geometrik, simmetrik, naqqosh, qalam, mo‘yqalam, pargor ,barokko, gotika, roman, klassitsizm.

O‘rta Osiyo naqqoshlik san’ati qadimdan dunyoga mashhur. O‘tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha

maftunkor jilvasini yo‘qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g’oyatda boy mazmunga ega. Oddiy qoshiq, lagan, kuticha, sandiq, belanchak, cholg’u asboblari, uy-ro‘zg’or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o‘ylantiradi. Bu go‘zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo‘lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me’morchilik hamda tasviriylashtirish san’at rivoji bilan bog’langan holda takomillashib bordi.

Naqsh – arabcha tasvir, gul degan ma’noni anglatadi. Qush, hayvon, o‘simgani, geometrik va boshqaelementlarni ma’lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado‘zlikda, zardo‘zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to‘qish,to‘qimachilik, panjaralar va hokazolarda har xil yo‘llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o‘yib, chizib, choc yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.

Naqqoshlik san’ati tarixi insoniyat madaniyatini bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. Har xil arxeologik qazilmalar shuni ko‘rsatadi, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma’lum bo‘ldi.

Xitoyda, Qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko‘rish mumkin, Naqqoshlik har bir davlatning o‘ziga xos muhitiga: geografik o‘rniga, o‘lkaning o‘simgani dunyosiga ko‘ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimal xalq gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko‘rasiz. Evropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda

hukmron bo‘ldi. Bu esa o‘z-o‘zidan naqqoshlik san’atining rivojlanishiga ta’sir etdi.

O‘zbekiston hududidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So‘g’d, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san’atining rivojlanganligi ma’lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (1—11 asr), Dalvarzintepa (1 asr) budda ibodatxonalar qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab bergenlar. Xorazmdagi Tuproqqa’ zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma’lum. VI—VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o‘yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo‘ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko‘rib hayron bo‘ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urushi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli mahluqlar qizil va ko‘k ranglar bilan bo‘yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O‘rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o‘zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi g’oya O‘rta Osiyo tasviriy san’atiga ta’sirini o‘tkazdi.

Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi. «Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hodisalar ko‘proq murosasiz yo‘l tuta borib, qat’iy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo‘ladi», deb qo‘rkitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishining ma’nosi shundaki, xudodan boshqa hech kim biror narsayaratish u yoqda tursin, hatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalantirishi ham mumkin emas va bu uning qo‘lidan kelmaydi, aks holda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo‘ladi» .

IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g’isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog’och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak rivoj topdi.

Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan juda nafis bezatiladi.

Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbih va boshqalar naqadar mo'lligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islimiylar» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini ,bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va xarakterga ega.

Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy prinsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yo'sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvividir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir elemekt ustida puxta fikr yuritganlar. Har bir naqsh negizda ma'lum ramziy ma'no singdirilgan.



Girix naqsh kompozisiyasи

Girih to'g'ri, egri va aralash chiziqlarga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu naqsh turining keng tarqalishi bezak san'atining

rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar olib berdi. O‘zbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashhur olimlar – Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Rudakilar yetishib chiqdilar. O‘sha vaqtda butun dunyoga mashhur bo‘lgan (YUNESKO muhofazasidagi) Somoniy maqbarasi qurildi. U 1127 yili me’mor Arslon Muhammadxon boshchiligidida pishirilgan oddiy g’ishtni har xil kombinatsiyalashtirib qurilgan. G’ishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan.

Xalq rivoyatlariga ko‘ra, me’mor bu minorani qurganu, ko‘zdan g’oyib bo‘lgan. Imorat yaxshi cho‘kib, o‘rnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me’mor paydo bo‘lib pardoz ishlarini boshlagan.

«XIII asrda yuksak ko‘tarilgan milliy madaniyatni Mangol bosqinchilari izdan chiqardi. 1219 – 1221 yillarda Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tor-mor qilindi».

XIII asrda Chingizzon hukmronligida milliy san’at birmuncha izdan chiqsada, lekin butkul yo‘q qilinmadni. Temur va Temuriylar davrida esa o‘zbek milliy xalq amaliy san’ati yuksak darajada rivojlandi.

«XIV-XV asrlarda O‘rta Osiyo xalqlari tarixida taraqqiy etgan feodalizm iqtisodiy-ijtimoiy formatsiyasi davrida feudal ishlab chiqarishga asoslangan o‘ziga xos bir iqtisodiy-madaniy ko‘tarinkilik ro‘y berdi. Bu davrni biz hozir Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzodga o‘xshash juda ko‘p iste’dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san’atkorlar nomlari bilan bog’liq bo‘lgan Uyg’onish (Renessans) davri deb ataymiz.


XIV-XV asrlarda Samarqandda tez sur’atlar bilan turli-tuman inshootlar qurila boshlagan. Bu qurilishlarda Hindiston, Eron, Iroq, Zakavkaze, xullas Amir Temur hukmronligi ostida bo‘lgan barcha o‘lkalardan kelgan me’morlar, hunarmandlar, ustalar, san’atkorlarni ko‘rish mumkin edi. Ular o‘zlarini bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, hunarlari va san’atkorona mahoratlarini baxsh etganlar. O‘sha davrda Samarqand va Movarounnahrning boshqa joylarida bunyod etilgan juda ko‘p hashamatli tarixiy madaniy obidalarda O‘rta Osiyo xalqlaridan tashqari butun yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining

o‘ziga xos boy, sermazmun badiiy-estetik merosining sintezi qorishib, uyg’unlashib ketgan edi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Temur hukmronligi ostida juda ko‘p bino, masjid, madrasa va boshqalar qad ko‘tardi. Undagi bezaklar yanada badiylashtirildi. Shaharlar atrofi bog’u bo‘stonga aylantirildi. Xullas u o‘zbek milliy madaniyatini rivojlanirishda katta hissa qo‘shti. Ayniqsa tasviriy san’at qaytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit sayyoralar, tog’lar, dengizlar, sahrolar, odamlar, hayvonlar va boshqalar aks ettirildi.

Kundal – arxitekturada devorga bo‘rtib ishlangan bezak texnikasi. Me’morchilikda keng tarqalgan. Mo‘yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo‘rtma shakl oladi, ustidan bo‘yoq va zarhal beriladi.

Zamin zarhalga, asosiy bo‘rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo‘yaladi yoki aksincha, bo‘rtma naqsh zarhalga, zamin esa turli rangga bo‘yaladi. XV asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland masjitdda jozibador namunalar saqlangan. O‘rta yerda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.



Kundal naqsh kompozisiyası

XVI-XVII asrga kelib syujetli rasmlar deyarli chizilmay, balki kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi Xo‘ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr), Baland masjid (XVI asr), Abdulazizzon madrasasi (XVI), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi. Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o‘zining badiiyligi, harakatchanligi, o‘ziga xos originalligi bilan kishini hayratga soladi. Naqshlarning har biri bir katta asar bo‘lib voqelikni naqqosh tili bilan kuylayotgandek tuyuladi. Lekin XVII asrning oxiriga kelib, bir necha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning haddan tashqari sarf etilganligi ko‘zga tashlandi. Ayniqsa bu sohada ijodiy izlanishlar kam bo‘lganligi sezildi.

XVI-XVIII asrlar orasida o‘zaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy ta’sir etdi. Bu esa milliy naqqoshchilik san’atining rivojlanishiga ham ta’sir etdi. Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari vujudga kelish bilan san’atkorlar bu shaharlarga yig’ila boshladi. Shu vaqt dan naqqoshlik xalq amaliy san’at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Tosh hovli, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi Buxorodagi Sitorai Mohi-Xossa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. Naqsh san’atining rangbarang rivojlanishi, har bir shahar va vohaning o‘ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo‘ldi. Chunonchi Farg’ona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o‘zining kompozitsiyalari, rangi jihatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Naqqoshlikning kelib chiqishi va o‘ziga xos xususiyatlarini aytib bering?
2. Naqsh nima?
3. Naqshnng turlari va ularning o‘ziga xos tomonlarini ayting?
4. O‘zbek naqqoshlik maktablari haqida ma’lumot bering?
5. Kundal nima?

1.5§. Kulolchilik san'ati

Reja:

1. Kulolchilik san'ati tarixi va maktablari.

2. Kulolchilikda ishlatiladigan asboblar va xumdonlari va pechlar

Tayanch so‘zlar: *gilvata, bo‘yoqlar, angob, charx, mo‘yqalam, guldon, lagan, piyola, tandir.*

Kulolchilik qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san’atidir. Bu qora loy, saxovat, halollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o‘z zimmasiga olgan farovonlik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallikning eng oliy ko‘rinishi san’atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug’ullanadi. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo‘lsada uning ko‘rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg’unligi o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda.

Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko‘za, lagan, xurmacha, tog’ora, xum, tandir, buyum, o‘yinchoqlar, qurilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega. Maxsus tuproqni o‘ta qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Ular avval loydan idish-tovoqlar yasab, gulkanda qizdirib pishirganlar. Tuproq jaqonning hamma erlarida bo‘lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo‘lib, dastlab bu hunar bilan ayollar shug’ullanganlar. Kulolchilik charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar shug’ullana boshlaganlar. Keyinchalik loydan yasalgan idish-tovoqlarni maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirganlar.

Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo‘yilgan. Neolit davri-da esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me’morchilikda sopoldan foydalana boshlangan. VIII-XII asrlarda kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va O‘rta Osyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O‘sha davrda O‘rta Osiyo madaniyati tez sur’atlar bilan rivojlandi. Yangi ko‘tarilish davri bo‘ldi. Ko‘pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya’ni Abu Ali ibn Sino, Beruniy, **Firdavsiy**, Rudakilar yetishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo‘lgan me’morchilik yodgorliklari bunyod etildi.

Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi. XIII asrda mo‘g’ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong’in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san’ati rivojiga putur ketdi. XIV asrdan boshlab O‘rta Osiyo territoriyasida (*hududida*) kulolchilik tez sur’atlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san’atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarini olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur go‘zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar quzdirdi.

Amir Temur vafotidan so‘ng o‘zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari paydo bo‘ldi. O‘rta Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralishi natijasida o‘zaro aloqa susayib ketishiga sabab bo‘ldi.

XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo‘la boshladi. O‘rta Osiyoda suvga bo‘lgan ehtiyoj katta bo‘lgani uchun sopol idishlarni tez sur’atlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli-tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni idishlarni ko‘plab olib keltirilishi O‘rta Osiyo territoriyasida (**hududida**) sopol buyumlar ishslashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni

me'morchilikda keng foydalanilishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

XIX asrda O'rta Osiyoda tojik va o'zbek xalqlari o'rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G'ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo'ldi. Ular sopol idishlarini sirlab bezatishning o'ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatliligi, chiroylliligi, naqshlarining nafis va ta'sirchanligi bilan shuhrat qozondilar.

1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi tashkil etilib u erda xalq amaliy san'ati ustalari shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi (1943 yilda Shahrisabzda o'quv-ishlab chiqarish badiiy kombinati ishga tushdi). Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sitqidildan o'rgatdilar. Bular Rishtonlik Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov, G'ijduvonlik Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, Toshkentlik Turob Miraliev, Shahrisabzlik Rustam Egamberdiev, Karim Hazratqulov va boshqalar edi.

Ko'pgina kulolchilik ustaxonalari, artellari tashkil etildi. 40 yillarda G'ijduvondagi «Namuna», Rishtonda «Yangi hayot» artellari faqat jumhuriyatimizda emas, balki butun dunyoga mashhur edi. Ayniqsa kulolchilikni tatbiq etishda O'zbekiston xalq rassomi, san'atshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnat qildi. U o'ziga xos kulolchilik mакtabini yaratib, xalq san'atiga oid bir qancha asarlar va ajoyib shogirdlar qoldirdi.

Muhiddin Rahimov – Toshkent kulolchilik maktabining mashhur kulollaridan biri (1903). Kulol, san'atshunos, Rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekiston xalq rassomi kulolchilik hunarini qarindoshlaridan o'rgangan.



Muallif: Muhiddin Rahimov. *Obichuva* – sopol ko'za. Toshkent 1980 y.

Turkiston xalq xo'jaligi kengashi qoshidagi Toshkent badiiy hunarmandchilik maktabi (1918-20), Moskva Silikatlar instituti (1924-26) da va Leningrad Keramika instituti (1927-29) da o'qigan. U Samarqand va Toshkentdagi qadimiylar me'morchilik yodgorliklarini ta'mirlashda qatnashdi. M.Rahimov ijodida an'anaviy o'zbek kulolchiligi bilan zamonaviy sovet sopolchiligi uyg'unlashgan. Ijodining dastlabki davrida yaratgan buyumlari (yirik shaklli erkin hamda quyuq bo'yalgan naqsh bezaklari) da yorqin zamindagi ko'k, yashil, sariq gullar jilosi ajoyib kompozitsiya hosil qiladi. O'rta asrlar kulolchiligini yaxshi o'rgangan Rahimov an'anaviy lagan, guldon va yangi shaklli bezak idishlar, portretli sovg'a buyumlar yaratdi, ularning bezagida o'simliksimon naqshlar bilan bir qatorda mazmun, hayvon shakllari va yozuvli tasvirlardan mohirona foydalandi. Sopol materiali va bo'yoqlarini o'rganish yo'lidagi izlanishlar samarasi sifatida bir qator asarlar maydonga keldi, masalan, 1961 yilda rus tilida «Xudojestvennaya keramika Uzbekistana» asari va boshqalar. U Hamza nomidagi san'atshunoslik institutida ilmiy xodim bo'lib ishlagan (1965-71), Toshkent teatr va rassomchilik san'ati instituti (1958-61) va P. Benkov nomidagi Jumhuriyat badiiy bilim yurtida dars bergen (1952-76).

Xorazm kulolchilik san'atiga katta hissa qo'shgan ustalardan biri Raimberdi Matjonovdir. Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O'zbekiston amaliy bezak san'atida alohida o'rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlar kulolchilik maktablaridan o'ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari, koloriti,

dinamikligi kishilarga estetik ta'sirchanligi bilan alohida o'rin tutadi. Xorazmda bu qadimiy san'at avloddan-avlodga an'ana tariqasida o'tib hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ana shunday badiiy kulolchilik an'anasini davom ettirib kelayotgan Xorazm kulolchilik matabining yirik vakillaridan biri.

Raimberdi Matjonov Xorazmning qadimiy kulolchilik markazlaridan biri Madir qishlog'ida 1909 yili kulolchilar oilasida dunyoga keldi. O'sha davrda Madir qishlog'ida o'n besh kulolchilik ustaxonasi bo'lib, ularda saksondan ortiq kulollar ishlar edi. Koshin pishirishda o'sha davrda nom qozongan ustalar Usta Bolta Matrizaev, Bolta Vaisov, Matjon Qulmatovlar bor edi. Matjon kulolning o'g'li Raimberdi o'z otasidan kulolchilik sir-asrorlarini o'rgana boshladi. U avval loydan har xil o'yinchoqlar, shakllar yasagan bo'lsa, keyinchalik ixcham bodiya, koshinni o'rgandi. Kulolchilik sir asrorlarini olti yil deganda o'rganib, **Eshim kulolning oq** fotihasini oldi. O'zi mustaqil idish va koshinlar ijod qila boshladi. 1930 yili R.Matjonov kooperativ arteliga kirib kulolchilik ishlarini davom ettirdi. O'sha davrda kulollar juda kamayib ketgan edi. Uning bu og'ir ishlariga turmush o'rtog'i yordam berardi.

Usta naqqoshlik sir-asrorlarini mukammal o'rgandi. U shu o'rgangan naqshlarini kulolchilik buyumlariga qo'llashga astoydil intilib, XIX-XX asr Xiva koshinkorlik an'analarini boyitadigan buyumlarni yaratdi.

Kulol ishlab chiqarayotgan buyumlarda ham, koshinda ham uch xil oq, yashil, lojuvard ranglardan foydalandi. U ranglarni tayyorlash texnologiyasini ham juda yaxshi bilar edi. Idish tayyorlangandan so'ng qo'lda va shtamp yordamida naqsh chiziladi, unga sir berilib oftobda quritilib pechda qizdiriladi. Usta sirni o'zi tayyorlardi. Qoraqumga borib, chog'on yoki kirchop yig'ib darhol o'sha joyda yoqib kulini ustaxonaga olib kelib maydalangan shisha uniga qo'shadi. Ya'ni uch qism kulga bir qism shisha kukuni qo'shiladi. Uni biror idishda suv bilan aralashtirib tayyorlangan bodiyaga surtiladi. Keyin bodiyani o'tda pishirishda o'sha yumaloq suyuqlik o'tga tashlanadi. U o'tda bodiyaga urilib rangini o'zgartiradi. O'sha qum

poroshogini suv bilan aralashtirib, sovitiladi hamda tozalanadi. Unga un va ozgina mis oksidi qo'shib tayyorlaydi, so'ngra bodiya sirtiga surkaydi.

Kulol Raimberdi Matjonov shu texnologiya asosida loydan xum, ko'za, tog'ora, chanoq, choynak, piyola, oftoba, bodiya va boshqa xilma-xil badiiy buyumlar tayyorladi. Xalqimiz «shogirdsiz usta mevasiz daraxt» deb bejiz aytmagan.

XVIII asrni boshlarida hunarmandchilik Buxoroda, G'ijduvonda kuchli rivojlangan. Shulardan kulolchilik, temirchilik, yog'och o'ymakorligi, matoga gul bosish, kashtachilik hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

G'ijduvon shahrida o'nlab kulollar yashab ijod qilgan. G'ijduvon shahrida boshqa Qarshi, Shaxrisabz, Samarqand, Xiva, Urganch shaharlardan kelib ishlaganlar. Hunar o'rganganlar hamda malaka oshirganlar. Bu erdan ko'pgina kulolchilik ishlarini Buxoro, Vobkent, Kattaqo'rg'on, Nurota, Qarshi shaharalariga olib borib sotishgan.

G'ijduvon milliy kulolchilik ishlarini xalq ustalari davom ettirib kelmoqdalar. Shulardan Usta Usmon Umarov katta avlod vakillaridan (1891 yilda tugilgan). Usta Ibodullo Narzullaev (1927 yilda tugilgan). Sopol qanddon, lagan, kosa, shokosa kabi buyumlar yasaganlar.





Gijduvon kulolchilik buyumlari

Ular buyumlarning ranglar uyg'unligiga, sirli koshinkor gullar ko'rkaligiga bo'yundirilgan holda bezaganlar. Bu ustalarning ishlari nafaqat

O‘zbekistonda balki boshqa chet ellarda ham mashhurdir. Ular Respublikamiz va boshqa chet el ko’rgazmalarining (vistavka) domiy qatnashchisi bo‘lganlar.

Hozirgi kunda ustalarning ishlarini ularning farzandlari davom ettirib kelmoqda va shulardan biri O‘zbekiston badiiy akademiyasining akademigi, O‘zbekiston xalq ustasi Alisher Narzullaev shu maktab davomchisidir.



Alisher Narzullaev ish ustida va shogirdlar davrasida

Har bir hunarni o‘ziga xos mashaqqatli va o‘ziga xos sir-asrorlari bo‘ladi. Qadimdan ota-bobolarimiz badiiy kulolchilik sirlarini va tajribalarini faqat o‘z shogirdlariga o‘rgatib o‘zga bolalarga o‘rgatmaganlar. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kulolchilik sir-asrorlarini o‘rganib har bir mahsulotni ayniqsa sifatiga, badiiyligicha, foydalanish qulayligiga va uning umrboqiyligiga alohida e’tibor berib kelganlar. Shuning uchun ular tayyorlagan oddiy sopol piyolasidan tortib sharq me’morchilagini bezab turgan koshinlarning umrboqiyligi dunyo ahlini lol qoldirmoqda. Ha, bunga erishish uchun ota-bobolarimiz yuqori sifatli g’oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o‘tgan materiallardan keng foydalanib kelganlar. O‘tmishda tuproqdan, qorachiroq, shamdon, sarxona, jomashov, xum hamda ovqat pishiriladigan sopol idishlar tayyorlangan, lekin keyingi vaqtga kelib bularga ehtiyoj bo‘lmasani uchun ular yo‘qolib bormoqda.

Hozir tovoq, guldon, lagan, piyola, tandir va boshqalar ko‘p ishlab chiqarilmoqda. Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproqdir. Tuproqlarning sog’ tuproq, qora tuproq, ko‘kimir, qizil loykor turlari bo‘ladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o‘zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha gruppalarga bo‘linadi.

Loyi guldon — sershiralı loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo‘lib, jusha loyi qo‘shilgan bo‘ladi.

Chinni loy *yoki oq* loy — yarimfoyans bo‘lib, qoramtilor loy oqtosh va ishqor qo‘shilib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan boshqalar tayyorlanadi.

Kesma koshin loy — o‘tga chidamli qoramtilor loydan, ya’ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo‘shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaikali koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy – shirachli loyga kvars qumi qo‘shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. **Gzu loyi sog’** tuproqqa qamish qozg’og’ini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi. Ko‘zagar loy – 60 - 70% plastik yog’li loy va 30-40% sog’ tuproqdan iborat bo‘ladi. Undan xum, guldon, ko‘za va boshqalar tayyorlanadi. Kulolchilikda shamol, bo‘yoqlar, angob, charx, mo‘yqalam, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip, labgir, lagan qolip, pargor qalam, kojkord, taroq, tagi qalam, g’ujmak, tappa va boshqalar ishlatiladi.



Kulolchilik charxi

Kulolchilikda loyni ustalar har xil texnologiyada tayyorlaydilar. Maxsus tuproqdan loy qilinib uni tepib, mushtlab pishitiladi. Loyni nam matoga loy tayyorlaydigan xona bo‘lib uyni ichki qismidan hovuzga o‘xshash uncha chuqr bo‘lмаган joy bo‘lgan. Bu hovuz pishiq g’ishtdan to‘shaladi.

Loyni har kuni, ya’ni 20 kungacha suv sepib pishitiladi va nam sholchani ustiga yopib qo‘yilgan. Kerakligicha loyni tepib, mushtlab pishitiladi. Loyni yulib olib stol ustiga urib-urib pishitiladi, shunda loy ichida to‘planib qolgan havo yo‘qotiladi. Agar loyda havo qolib ketsa, idishni pechkada pishirganda o‘sha bo‘shliq yana kattalashib idish teshik bo‘lib qolishi mumkin. Shuning uchun loy qancha ko‘p pishitilsa shuncha sifatli mahsulot olinadi.

Nazorat savollari:

1. Loy turlari nimalardan iborat?
2. Kulolchilik san’atining asosiy xom ashyosi nima?
3. Kulolchilik san’ati namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
4. Kulolchilik dastgohining tuzilishi va ish prinsipi qanday?
5. Kulolchilik rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
6. G’ijdivon kulolchilik mактабининг бoshqa мактабдан farqi nimada?

1.6 §. Pichoqchilik san'ati

Reja:

1. Pichoqchilik san'ati tarixi.
2. Pichoq turlari va ularning tuzilishi

Tayanch so'zlar: pichoqsoz, dekorativ va badiiy, payvandli, qo'shhovuz, chalabuzar.

Pichoqchilik san'ati deganda biz pichoq yasash kasbini tushunamiz. Pichoq bobolarimiz uchun qadimdan tirikchilik vositasi bo'lib xizmat qilgan. Hozirgi vaqtda pichoq yasash san'ati xalq amaliy san'ati qatorida e'zozlanib kelinayotir. Nodir pichoqlar yasashda o'zbek pichoqsoz ustalarining oldiga tushadigan usta kam topiladi.



Pichoq yasash boshlang'ich paleolit davridayoq ma'lum bo'lган. Temur davrida hunarmandchilik paydo bo'lган va rivojlangan. Mis va bronzadan pichoq yasash bronza davriga kelib avj olgan. Temirning kashf etilishi pichoqchilik san'ati taraqqiyotida katta burilish bo'ldi. Pichoqchilikning eng rivojlangan joyi arab mamlakatlari bo'lган, Yevropa, Ispaniya va Italiyada ham tez taraqqiy etgan.

XVI asrda Germaniya, Angliya, Avstriya, Fransiyada pichoqchilikni kasb sifatida taqiqlab, pichoqni oshxonalarda ishlatalishgan. XVII asr boshlarida pichoqning ochib yopiladigan, pakki, ustara va boshqa cho‘ntakda saqlanadigan pakkilar yuzaga keldi. Arxeologik topilmalardan ma’lumki, O‘rta Osiyo hududida miloddan avval 2000 yillikga oid pichoq namunalari topilgan. Bolalik tepa, Afrosiyob, Varaxsha devorlariga ishlangan rasmlardan ma’lum bo‘ldiki, pichoq uy-ro‘zg’ordan tashqari harbiy qurol sifatida ham ishlatilgan. VI-XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib, uni bezash texnologiyalari o‘zgargan.

XV-XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo‘ldi. Buni Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan miniatyuralardan ko‘rish mumkin.



Keyinchalik pichoqchilikning o‘ziga xos maktablari paydo bo‘ldi. Farg’ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo‘lib, ular o‘zining ishlash texnologiyasi, shakli, kattakichikligi va bezaklari bilan farq qilgan.

Eng yaxshi pichoqlar O‘zbekistonning ikkita qadimiylar – Chust (Namangan viloyati) va Shahrixon (Andijon viloyati)da tayyorlanadi. Chust va Shaxrixon pichoqlari afsonaviy hisoblanib, ularning pishiqligi va go‘zalligi haqida afsonalar yuradi, pichoqlar nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda kolleksionerlar va oshpazlar tomonidan yuqori baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 20 ga yaqin pichoqchilik markazlari bo‘lib, ular yasalish usuliga ko‘ra Chust (tus), Shahrixon, Poytug’, Qo‘qon, Qorasuv, Buxoro, Jondor, Qorako‘l pichog’i kabilarga bo‘linadi.



Chust pichoqlari

Pichoqlar anchadan buyon Chust shahrida yasab kelinadi. Mazkur pichoqchilik kasbi qadimdan bu yerda avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Raximjon Ubaydullayev shunday avlodlarning birini davomchisi bo‘lib, bir necha avlod tomonidan yaratib kelinayotgan pichoqlarni yaratish ishlari bilan shug’ullanadi. Uning ustaxonasida metallga qo‘lda ishlov berish va quyish usullari saqlanib kelinmoqda. Bu ustaxonada odatda qora-binafsha rangli oddiy pichoq, tengi yo‘q dekorativ va badiiy bezakli sovg’abop pichoqlar, qilichlar, shuningdek yaponlarning katana-qilichi sharq yakkakurashlari ustalari uchun yaratib kelinmoqda. Ularning barchasi qizil, oq, yashil va ko‘k rangli toshlar bilan bezatilgan.

An’anaviy pichoqlar “bahor lolasi” va “paxta guli” qadimiy naqshlari bilan bezatib kelinmoqda. Chust pichoqlari o‘zining betakror ko‘rinishiga ega bo‘lib, foydalanishda juda qulayligi bilan ajralib keladi. Chust milliy pichoqlari qo‘hna va qadimiy bo‘lib, qo‘l mehnati bilan tayyorlanganligi sababli dunyoning barcha mamlakatlarida xaridorgir mahsulot hisoblanadi. Pichoqlarning asosan qadimiy shakillaridan bizgacha yetib kelgani bu: qozoqcha, qayqi, tolbargi, payvandli, qo‘shevuz, va yana bir qancha turlari mavjud.



Shahrixon pichoqlari

Shahrixon pichoqlari ham butun dunyoda tanilgan va yuqori baholanadi. Shaharda pichoq yasash bo‘yicha butun oilaviy sulolalar ishlaydi, ularni bu yerda “pichoqchi” deb atashadi. Ko‘plab ochiq ustaxonalar mavjud bo‘lib, ularda har kim o‘z ko‘zi bilan pichoq yasash jarayonini ko‘rishi va o‘zi uchun eng mosini tanlashi mumkin. Shu yerdan pichoqlar butun O‘zbekiston bo‘ylab olib ketiladi va yuqori sifatli mahsulot sifatida sotiladi.

Bunday pichoqni vijdonan parvarishlash kerak. Uni g’ilofda saqlash, butunlay quriguncha artish va faqat professionallarga berish lozim, chunki o‘zbek xalqi uchun pichoqlar, masalan, uyni himoya qiluvchi tumor, milliy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘rtalik shahrida pichoq alohida ramziy ma’noda, ya’ni barcha yovuzlardan saqlash, rizq-ro‘z ma’nosida ishlatilgan. Masalan, «dandon sopli pichoq» va «karke sopli pichoq»lar ilohiy hisoblangan. Pichoq qadimdan ishlatib kelinayotgan asboblardan biri bo‘lib, uni tosh, mis va bronzadan ishlaganlar.

To‘g’ri pichoq qadimdan ishlatib kelinadi, qayqi pichoqning tig’i uchi orqasiga ozgina qayrilgan. Uni qilichak pichoq, chaqmoqi pichoq deb ham yuritiladi. Bodomcha pichoq esa orqa qirrasi uchiga nisbatan 4-5 sm ichiga kamalak bo‘lib kirgan.

Pichoq turlari quyidagilar:

O‘rta siyamli pichoq – pichoq turlaridan biri.

Kezlik pichoq – bolalar uchun ishlangan. Nikohda beriladi. Bola pichoq– bolalar uchun.

Chalabuzar–pichoqni tig’i bo‘g’zidan qayrilib, dastasiga yopilgan bo‘ladi.

Mardona pichoq – kashtalar uchun ishlangan pichoq.

Sodda pichoq – uy-ro‘zg’orda ishlatiladigan pichoq.

Guldor pichoq – dastasiga naqshlar solingan.

Chilmixgulli pichoq – dastasiga chilmixlar qoqib guldor qilib yasalgan.

Rufta pichoq – tig’ining yuzi sidirg’asiga charxlangan.

Yog’och soplipichoq–sopi yog’ochdan tayyorlangan.

Shohdastali pichoq – shohdan dastasi.

O‘n uch sopli pichoq – pichoqdastasiga o‘nuch dona sadaf ko‘z solingan.

O‘n besh sopli pichoq – pichoqdastasiga o‘nbesh dona gul solingan.

Qadimdan Farg’ona vodiysi, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent, Qashqadaryo maktablari mavjud bo‘lgan. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, O‘zbekistonda yigirmaga yaqin pichoqchilik markazlari bo‘lgan. Ular o‘zining ishlash texnologiyasi, yasalish usuli, shakli, katta-kichikligi va bezaklari bilan o‘zaro farq qilgan. Masalan, yasalish usuliga qarab Chust, Poygur pichog’i, Qorasuv pichog’i, Shahrixon pichog’i, Qo‘qon pichog’i, Xiva pichog’i kabilarga bo‘lingan.

Ma’lumki, hunarmandlar qadimdan bir-biri bilan muayyan mahallalarda yashaganlar. Odamlarning kasb-kori bilan mahallalar tanilgan. Hozirgacha katta-kichik shaharlarda yoki qishloqlarda pichoqchilar mahallasini uchratish mumkin. Chunki pichoq o‘zbek oilalarida kesuvchi asbob sifatidagina ishlatilmay, butun mintaqada erkaklarning eng zarur ish quroli va hatto sarpo bezagi sifatida ham xizmat qilib kelgan. Bunday hol uning nihoyatda chiroyli bezalishini talab qilib, pichoqchilikni nozik naqshli san’at asariga ko‘targan.

Nazorat savollari:

1. Pichoq yasash san'ati tarixining rivojlanish tarixi qaysi asrga borib taqaladi?
2. Pichoq yasash uchun qanday materiallardan foydalanamiz?
3. Sovg'abop pichoqlarni tayyorlashda qanday naqshlardan foydalilanadi?
4. Pichoqchilik maktablarini sanab o'ting?
5. Hozirgi davr pichoqsoz hunarmand ustalardan kimlarni bilasiz?

1.7.§.Zargarlik san'ati.

Reja:

1. Zargarlik san'at tarixi va uning maktablari.
2. Zargarlikda ishlataladigan xom ashylar

Tayanch so‘zlar: *to‘g‘nag‘ichlar, bilakuzuk, gajak, feruza, sadaf, marjon, lobzik arra.*

O‘zbek xalq amaliy san'ati turlari ichida zeb-ziynat san'ati bo‘lmish zargarlik alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma'lumki, zargarlik san'ati juda qadimiy san'at bo‘lgan. Eramizgacha bo‘lgan I asrdan boshlab eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolgayon, Bolaliktepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san'ati rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Tosh asrining so‘nggi davri noeolitdayoq (eramizgacha IV-III ming yillikning oxirida) shildiroq, munchoqlar, har xil toshlar, chig‘anoq, hamda suyaklardan yasalgan bezaklar topilgan. Bu esa zargarlikni rivojlanganligidan dalolat beradi. Ikki daryo oralig‘iga joylashgan Yunonistonda ajoyib va qimmatbaho zargarlik buyumlari ishlangan. Mis davriga to‘g‘nag‘ich, zirak, baldoq, bilakuzuk, shildiroq va boshqalar metalldan, hattoki oltindan ishlanadigan bo‘ldi.

Xorazmdagi Tuproqqal'a devorlardagi tasvirlardan o'sha davrlardagi ayollar quloqlariga nafis zirak taqqanliklari ma'lum bo‘lgan (bu tasvir III asrga ta'alluqli). Bulardan tashqari bronzedan quyib ishlangan bir qancha osma taqinchoqlar ham

topilgan. Bu osma taqinchoqlar I-IV asrga mansub bo‘lib Xorazmning Ayozqal’ a, Etti asar, burgutqal’ a va boshqa joylaridan topilgan.

IV-Vasrlarda zargarlik buyumlari kam ishlangan. Ular tosh, shisha, pastalardan qilingan. Masalan: Xorazmda shishadan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgan. Bolaliktepadagi topilmada V asr oxiri VI asr boshlarida ishlangan devoriy-rasmida ayol kishining qulqi va barmog’ida zargarlik taqinchoqlari tasvirlangan. Afrosiyobdagagi VI-VII asrga mansub devoriy rasmida erkak kishining qo‘lida sovg‘a taqinchoqlarni olib kelayotgani tasvirlangan. Bulardan tashqari ayol sochlarda osma taqinchoqlar osilganligi tasvirlangan.

X-XI asrlar o‘rtasida bitta katta teshigi bo‘lgan suyakli tugmachalar ko‘p ishlangan.

XIV-XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo‘lsada nimagadir bizgacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Ba’zi bir yozma manbalarda ko‘rsatilishicha XIV asr oxiri XV asr boshlarida Tojiddin zargar Buxoro yaqinidagi Tavans shahrida yashagani, bulardan tashqari Xusaynning o‘g‘li Muhammad zargar, XV asrning ikkinchi yarmida yashagan usta Ali zargar, xo‘ja Sulton Xusayn zargar, xo‘ja Bobo Do‘sning o‘g‘li xo‘ja Xasan zargar nomlari bizga ma’lum.

XVI asrda ishlangan ko‘krak bezak zargarlik buyumlari faqat devoriy - rasmlar orqali etib kelgan. XIV-XVII asrlarda zargarlik buyumlarining naqsh bezaklari juda ham murakkablashib boradi.

XIII-XIV asrlargacha zargarlik buyumlarida ko‘pincha hayvonlar tasvirlangan bo‘lsa, keyinchalik esa arab yozuvlari kompozitsiyaga kirib o‘ziga xos ko‘rinish berdi. Bu yozuvlar bir tomondan naqsh bezagi va ikkinchi tomondan ma’no jihatdan farqlanar edi. XVIII asrda O‘rta Osiyodagi o‘zaro ichki urushlar zargarlik san’atining rivojlanishiga salbiy ta’sir etdi. Keyinchalik xonliklar paydo bo‘lishi bilan zargarlik yanada rivojiana boshladi. XVIII asrda mo‘g‘ul bosqinchilaridan so‘ng birinchi marta oltin tangalar ishlab chiqarila boshlandi. Zargarlik buyumlari oltindan, kumushdan va boshqalardan ishlandi. Qurol-aslahalar ajoyib qimmatbaho toshlar, shisha, billur, oltin va boshqalar bilan

bezatildi. Zargarlar juda yumshoq va yorqin bo‘lmagan nefrit va kumushdan, juda yorqin oltin va nefrit kabilarni ishlatdilar.

XIX asr va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik ham tez sur’atlar bilan rivojlandi. Ko‘pgina shaharlarda masalan, Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Toshkent, Andijon, Urgench, Nurota, Kitob, Chust, Asaka, G‘ijduvon, Marg‘ilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo‘lib, ular maxsus mahallama-mahalla bo‘lib yashaganlar. Shuning uchun zargar (zargaron) mahalla deb yuritilgan. Xivada 1860 yilda 12 ta va XX asrning boshlarida Buxoroda 400 tacha, Toshkent da esa 100 dan ortiq, Samarqandda 1893 yili 20 dan ortiq zargarlar do‘konni bo‘lgan. O‘sha vaqtida katta shuhrat qozongan zargar ustalardan Qo‘qonda usta Maxmud, usta Omon hoji, M. Raximov, X.Najmiddinov, Namanganda usta Niyoz Oxun, Andijonda usta Oybergan, X.Otaboev, Toshkentda S.Bobojonov, Oxun Bobojonov, usta Samig‘iddin, A.Shoislomov, usta Mirxalil, Urgenchda M.Abdullaev, Samarqandda X.Yuldashev, I.Kolimboev, V.Hafizov va boshqalar bor edi. Sovet hokimiyyati yillarida xalq amaliy badiiy san’atining barcha turlari singari zargarlik san’atida ham umumiyl uslubga xos buyumlar ishlab chiqarish ko‘paydi.

1975 yilda xalq badiiy kasb hunari to‘g‘risida e’lon qilingan qaror juda katta ahamiyat kasb etdi. Bu qarordan so‘ng ko‘pgina zargarlik korxonalari qaytadan ochildi. Ustaxonalar kengaytirilib, hozirgi vaqtida xalq ommasining madaniy maishiy ahvoli, farovonligi, zargarlik buyumlariga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortdi.

Jumhuriyatimizning Buxoro, Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi zargarlik korxonalarida zargarlik buyumlari (uzuk, to‘g‘nag‘ich, tillaqosh, zirak singari) ishlab chiqarilmoqda. Ayniqsa Toshkent zargarlik fabrikasi kollektivining ishlari diqqatga sazovordir. U erda 100 dan ortiq rang-barang ziynat va sovg‘abop buyumlar tayyorlab chiqarilmoqda. Bu buyumlarni jumhuriyatimizning turli chekkalarida ko‘rish mumkin. U erda mashhur zardo‘zlar ishlamoqda. Shulardan biri Ibrohim Javorovdir. Uni do‘stlari

qo‘li gul zargar deb bilihadi. U metallga jon kiritib, sehrli va nafis zeb-ziynatlar yasaydi.

U ko‘p yillik boy tajribalari va zargarlik san’ati sirlarini yoshlarga sidqidildan o‘rgatib ko‘pgina shogirdlar yetishtirdi. Ustaning Jalol Sodiqov, Ibrohim Javorov, Abdukarim G‘aniev, O‘lmas Shoakbarov, Shohida Karimjonova, Halima Oymatova kabi yigirmadan ortiq shogirdlari ishlamoqdalar. Hozir jumhuriyatimizning Andijon, Toshkent, Samarqand, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro va boshqa shaharlarida zargar ustalarimiz bugungi kunda yangi materiallar va shakllarni ishlatish bilan birga, zargarlarning eng yaxshi qadimiylari an’analari va boy tajribalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Ular hozirgi avlod didiga mos nafis zargarlik buyumlarini ko‘plab ishlab chiqarib, xaridorlarni yanada xushnud etmoqdalar

Yer yuzida birgina bo‘lsa-da ayol zoti bor ekan, zargarning hunari o‘lmaydi. O‘zbek xalq amaliy san’atining turlari ichida zeb-ziynat san’ati bo‘lmish zargarlik alohida o‘rin egallaydi.



“Gajak”-yanoq bezagi

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. Chunki ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo‘lib qolmay, balki sog’likka, inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir etgan.



Marvarid toshi

Marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko‘z qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og’izdagagi qo‘lansa hidrlarni yo‘qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash, bavosil va boshqalarni tuzatadi.



Feruza toshi

Feruza esa qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon hamda ko‘z kasalligiga shifobaxsh, ilon chaqqanda eng yaxshi davo hisoblangan. Shuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan.



Sadaf toshi

Sadaf Sharqda ham, Yevropada ham yuqori baholangan. Undan to‘g’nag’ich, baldoq, marjon, ilma tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshiqlar mahbubasiga sovg’ a qilgan. O‘tmishda marjonlar, uzuk, to‘g’nag’ichlar, bilaguzuk va boshqalar yasalib, u go‘yo odamlarni qahr-u g’azab, g’am-u anduhdan asragan.

Katalogdan tanlangan uzuk va ziraklarning qolipini olib, yasaladigan buyumning miqdori (grammi) aniqlanadi. Quyilgan uzuk va ziraklar oqartirilib (otbel), qilinib ularga ishlov beriladi va o‘lchami keltiriladi hamda ziraklarning ustki qismi kavsharlanadi.

Zargarlikda turli bezaklar, soch popuk, bilakuzuk, tillaqosh, tumor, bargak, zebigardon, halqa , gajak kabi zargarlik buyumlarini yasashda tilla, kumush, har-xil qotishmalar, bronza, choqnoq tosh va rangli toshlar, xolsedon, feruza, aqiq, safsar, yoqut yantar, marvarid, durlar ishlatiladi.

Oddiy metalldan zebigardon tayyorlash. Fillerdan 12 mmli sim chiqarilib, ustki qismlari, dumaloq, oval, gajak qismlarini tayyorланади va yana ikkita 0,3 mmli simni ajur qilib kavsharlab o‘raladi har-xil shakllarga keltiriladi. Katta va kichkina tomchilar, qovun, doira, katta va kichkina ko‘zxonalar va ularni bir-biriga to‘qilgan zanjirlarni ushlab turadigan xalqalar va ichki qismidagi ko‘zxonalar va ichki gajak, ya’ni ajur simli to‘qimalar va katta zanjir qismlar kerak bo‘ladi.

Bularni tayyorlashda o‘lchamlarni to‘g’ri olish va figuralarni eskizga qarab rejalar bukish, kavsharlash davomida qoidalarga rioya qilish talab qilinadi.

Qulf qismlarini tayyorlash valsdan 12x12 mmli sim chiqarib, valsni pachoqlanadigan joyidan 0,7 mm qilib pachoqlab, kavsharlab so‘ng sandonchaga qo‘yib, yog‘och bolg‘ada tekishlab, so‘roq shakliga keltirib, xalqachaga ulab chiqish kerak. Zebigardonni yig‘gandan so‘ng uni kislota solingan kolbaga solib, olovda qaynatiladi va kislotadan olib tozalab, suvda chayib, latun simli cho‘tkada ishqalab, tozalab chiqiladi va pardozlanadi.



Zebigardon



Tillaqosh

Oddiy metalldan gajak tayyorlash yo‘llari. Gajak bu 2 xil simni kavsharlash moslamasida qizdirilib, simlar bir-biriga o‘ralib to‘qimali simlar ya’ni ajur simlarni to‘qishdan tayyor bo‘ladi. Gajakning ustki qismini tayyorlayotganda valsdan kvadrat sim chiqarilib, ustki qismini valsda pachoqlab, riglga solib, dumaloq qilib bukiladi va aylana (krug) da oxirgi qismini to‘g‘rilab, bukiladi.

Olma, oval shakllariga keltiriladi va plastinkaga qo'yib kavsharlab, egovlanadi va gajakning ustki qismiga kavsharlanadi. Gajakning shaqildoqlarini yasashda fillerdan 0,8 mm sim chiqarib, 0,4 mm rigelga o'rab, bitta-bittadan lobzik arrada kesib chiqib, xalqalarning orasiga tiqib chiqiladi. Xalqachalarni kavsharlab ombirda to'g'rilib chiqib, xalqalarga tiqib chiqiladi. Gajakni latun cho'tkada suvlab ishqalanadi va ko'zxonalarga marvarit va firuza toshlar mahkamlanadi. Qulf qismi ayri holatda bo'lib, egiladi va pardozlanadi. Pardozlangach issiq suvda cho'tka bilan tozalab yuviladi.



Gajak

Tilla bezaklar va ulardan yasaladigan bezaklar to'g'risida misdan va tilladan yasalgan buyumlarning bir-biridan farqi, tilla va mis buyumlariga beriladigan bezaklarning farqi, mis va tilla buyumlarga ishlatiladigan naqsh elementlari, mis va tilla taqinchoqlarning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beriladi.

Tilla uzuk tayyorlash uchun tillaga ishlov berish, tillani tozalash va eritish, ingichka va o'rama shakliga keltirish o'ralgan simlarga naqshlar yasash, yasalgan naqshlarni uzuk qolipiga tushirish va ularni payvandlash hamda uzukni rangiga keltirib bezash ishlari tartibi tushuntiriladi.



Uzuk

Misdan bilaguzuk yasash uchun misdan misga ishlov berish lozim. Misni tozalash va eritish lozim va misni ingichka simlar va o‘ramlar shakliga keltiriladi. O‘ralgan simlardan naqshlar yasaladi, yasalgan naqshlarni bilaguzuk qolipiga qo‘yiladi va issiq olov orqali payvandlash lozim. Bilaguzukni rangiga keltirish, pardozlash hamda bilaguzukni turli toshlar bilan bezash ishlarini amalga oshirish kerak.

Nazorat savollari:

1. Zargarlik san’atining rivojlanish tarixini aytинг?
2. Zargarlik san’atining rivojlanishida ishlataladigan asbob va materiallar?
3. Zargarlik ustalari kimlar (nomlari)?
4. Zargarlik maktablarining bir-biri bilan farqi nimada?
5. Zargarlikda ishlataladigan toshlarning va bezakli xom ashyolarning inson uchun ahamiyatli (foydali) jihatini toping?

1.8.§.Kashtachilik san’ati.

Reja:

1. Kashtachilikning rivojlanish tarixi
2. Kashtachilikda bezak buyumlari turlari
3. Kashta tikish texnologiyalari

Tayanch so‘zlar: kirpech, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab, oynaxalta, choy xalta.

Buxoro kashtachilik san'ati

Kashta – tojik – fors tilida jiz yoki tort degan ma'noni bildiadi. Ya'ni matohga igna yoki bigiz bilan tikish ma'nosini anglatadi.

Kashtachilik qadimdan butun dunyo xalqlarida shakllanib, rivojlanib kelgan.

Eng qadimgi kashtalar teriga, kanap va kunjut pjyasidan tayyorlangan, jundan to'qilgan matolarga jun, paxta va ipak iplar bilan bajarilgan. Ilk ignalar suyakdan yasalgan, keyinchalik temir va po'lotdan tayyorlangan.

Eng qadimgi namunasi – arxeologlar tomonidan shimoliy Xitoy hududida topilgan “yo'rma” – chokli bigizda tikilgan kashta namunasi eramizdan avvalgi VI asrga taalluqli.

Kashta bilan uy – ro'zg'or buyumlari, kiyim kechaklar, ot, tuya, fil ustiga yopiladigan yopinchog'lar: “zinpo'sh” egar ustiga yopiladigan, “douri – cherpak” – ot ustiga yopiladigan poponalar shular jumlasidandir.

Kashtachilik O'rta Osiyoda qadimdan rivojlangan. Paxta tolasidan ip tayyorlash qadimdi Surxondaryo hududida (Sopollitepa) eramizdan avvalgi XVII asrda ma'lum bo'lган.

Eramizdan avvalgi V asrda ipak tayyorlash bizda rivojlangan. “Buyuk ip yo'li” orqali savdo sotiq ham kashtachilikni O'rta Osiyoda rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Qadimgi Afrosiyob, Panjikent, Varaxsha, Poykent shaharlari saroylari devoriy suratlarida, o'rta asrlar qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralardagi tasvirlardan bu hunarning hatto saroylardagi buyumlar va shoxona kiyimlarda qo'llanilganini guvohi bo'lamic.

XVII-XVIII asrlardagi o'zaro feodal urishlar davrida iqtisodiy tushkunliklar kashtachilikni ham bir qadar inqiroziga sabab bo'ldi.

XIX asrga kelib bu hunar yana san'at darajasiga ko'tarildi.

Kashtachilikning yirik maktablari shakllandı.

1. Buxoro maktabi

2. Shahrisabz maktabi

3. Nur – Ota maktabi

4. Urgut – Samarqand maktabi
5. Surxandaryo – Boysun maktabi
6. Jizzax maktabi
7. Toshkent – Pskent maktabi
8. Farg’ona vodiysi maktabi. Shular jumlasidandir.

Buxoro maktabiga xos belgilar: o‘rtacha o‘lchamli, mukammal kompozitsiyali, bosiq rangli, ramziy o‘simpliksimon, handasaviy naqshli, oq, kulrang, mallarang asosda “yo‘rma” chokidagi (uslubidagi) kashtalardir.

Kompozitsiya: Markaziy maydon va 2 ta top 1 ta kengroq hoshiya markaziy maydon atrofini o‘rab turadi.

Naqshlari: “to‘pbarggul”, “doiragul”, “turunch”, “chorbarg”, “kordi osh”, “mavj”, “morak”, “chashmi bulbul”, “obo”, “g’uncha”, “savsargul”, “chinigul”, “qo‘chqorak”, “tagalak”, “islimi”, “madohil”, “bodom”, “hayot daraxti”, “butagul”, “tobodoni”, “yulduz”, “moh”, “ko’zacha”, “qush”, “ot tuyoq” va boshqalar.

Asosiy ranglar: Asosning oq, malla, sariq, binafsha rang, naboti.

Naqshlar rangi: kulrang, moviy rang, ko‘k rang, tilloj sariq, qumhang, firuza rang, qirmizi rang, qizil rang, nofarmoni siyoh rang, qora rang, pushti rang, och yashil rang, to‘q yashil rang, qon‘g’ir rang, jigar rang, naxoti sariq ranglar.

Kashtachilikda tayyorlanadigan buyumlar:

So‘zani – joy ustiga yopiladigan, devorga osib yosh kelin – kuyov uyini bezatadigan, to‘ylarda kelin – kuyov boshiga chodir qilib tutadigan namoyon. **So‘zani** – tojik fors tilidan olingan bo‘lib igna bilan tikilgan (so‘zan – isna) degan ma’noni anglatadi. Samarqand, Toshkentda, “palak” deyiladi.

Joypo‘sh – ro‘yija – joy – to‘shak ustiga yopiladigan, uch tomoni Π – shaklida yoki mehrobsimon qilib kashta tikilgan, o‘rta maydon va bir tomoni ochiq qoldirilgan yopinchiq. Farg’ona vodiysi, Toshkentda choyshab deyiladi.

Joynamoz – namoz o‘qish uchun uch tomoni kashta bilan tikilgan arkasimon ko‘rinishdagi naqshlar kompozitsiyasiga ega namozlik.

Tanpokkun – nikoh sochig’i eni 60 -70 sm - bo‘yi 160 – 200 sm ga ega

ikki tomoni kashta tikib bezatilgan sochiq. Matohning arqog'i "shabshula" tarzida pupak qilib chiqarilgan. Ip gazlama joyi, atlas matodan tayyorlanadi. Kashtasi yak ro'ya – bir tomonlama va "du ro'ya" – ikki tomonlama "bosma" chokida tikiladi.

O'zbek milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'tning eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek xalq ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Belgiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Hindiston, Afg'oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. fadiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda.

O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV-XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko'p ishlab chiqarilishi ularning badiyiligiga putur etkazdi. Qo'l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi.O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga nazar solsak, unda Hind, Xitoy, Rus, Afg'on, Qozoq, Qirg'iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

Bu san'atda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. Chunonchi o'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik hamda gul

naqshlari ko‘p bo‘lsa, rus kashtachiligidagi geometrik, o‘simgansimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko‘p tasvirlanadi. Hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an’analarga ko‘ra, o‘zbek qizlari - bo‘lajak kelinchaklar seplari har-xil kashtachilik buyumlarini o‘zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo‘lsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o‘rgatilardi. Ular uch, to‘rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o‘zining san’ati va tabiatiga ko‘ra go‘zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Kashtachilikda bezak buyumlari turlari. O‘rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo‘lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo‘lgan. Shuning uchun har bir oila o‘zi uchun kirpech, so‘zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o‘zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko‘p masalan, so‘zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choy xalta, zardevor, palak, gulko‘rpa, dorpech, bug’joma, parda, belbog’, takyapo‘sh (yostiq ustiga yopiladigan), do‘ppi, ko‘ylak, dastro‘mol, hamyon, joynamoz, sumka, nimcha, maxsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O‘tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo‘ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

Do‘ppi - O‘zbekistonda keng tarqalgan engil bosh kiyim. Do‘ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o‘rtasida, Rossiyada esa XIII asrda urf (rasm) bo‘lgan. Asrlar davomida do‘ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinka, sidirg‘a shoyiga ip, ipak va zar bilan do‘ppi gullari tikilgan. O‘zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do‘ppilarini mashhur bo‘lib, ular o‘ziga xosdir. Jumhuriyatimizning barcha rayonlarida do‘ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do‘ppi, Gilam do‘ppi, Chakma to‘r, Qizil gul, Piltado‘zi, Zar do‘ppi, To‘ldirma deb nomlanadigan milliy do‘ppilar bor.



Turli xildagi zar do'ppilardan namunalar (axta yordamida naqsh o'tkazish)

Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. O'zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo'ladi. «Kuloh», «araqchin», «tusdo'ppi».

Kuloh – konussimon bosh kiyim. U asosan darveshlar qalpog'i. Uning matohi toq uchburchak parchalaridan bichilib yonlamasiga tikiladi. Kuloh (erkaklar bosh kiyimi) hozir juda kam uchraydi.

Araqchin – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmato'r, iroqi choc usullarida tikiladi.


Tus do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta yuvelir choc uslubi qo'llaniladi.



O'zbek do'ppilari

Masalan, zanjira, to‘g’ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do‘ppisining tepasiga kizakdan kvadrat shaklida bo‘rtib chiqib, yarim shar ko‘rinishida bo‘ladi.? Toshkent do‘ppisi sidirg’a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo‘ladi. Buxoro do‘ppilari sidirg’a yoki gulli baxmaldan jiyakli qilib tikipadi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo‘rma usulida tikilgan bo‘ladi.


Joynamoz – yerga solib ustida namoz o‘qiydigan to‘sama. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar ishlatischadi.



Kashtachilikda tikilgan "Joynamoz"

U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo‘ladi. Undan masjid, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o‘lchamda bo‘ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha kabilardan, chunki ular diniy nuqtai nazardan pok hisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatilgan bo‘ladi.

Zardevor – uy johozi, u sidirg’a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor o‘zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo‘yiladi.



Zardevor so'zana

U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40-70 sm, uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak – devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi.

Palakni o'rtasida yirik oy tasvirि qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar oyni ichi sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni , oypalak, agar naqshli

bo'lsa gulpalakva hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtarda palakni qo'l mehnati ko'p bo'lgani uchun *so'zana* deyila boshladi, lekin hozir palakni qo'lida tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech - kirpo'sh, tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lida yoki mashinada tikiladi.



Kashtachilikda tikilgan "Kirpech"

Kirpech qo'lida ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani *kirpechpalak* deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana – forscha so'zani deb ham yuritiladi, igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi.



Kashtachilikda "So'zana"

U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o‘ziga xos badiiy ko‘rinishga ega. Matoning rangidan ustalari kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi. So‘zana har bir xonadonda bo‘lgan, chunki bir qiz turmushga chiqishidan oldin o‘zi uchun so‘zana tayyorlagan. So‘zana kelinlarning sepi hisoblangan.

Choyshab – forscha-tojikcha ro‘yjo – tun chodiri degan ma’noni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun, to‘sak ustidan to‘shaladi. To‘sak ustidan yoziladigan choyshab kam kashtali oq surup, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan so‘zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.

Kashta tikish texnologiyasi. Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, ro‘zg’or buyumlariga tikiladi.



Kashtachilikda so‘zana kompozitsiyasidan namuna (Buxoro)

Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig’ir, jun, ipak, sun’iy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metall pulakcha, qimmatbaho tabiiy va sun’iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi.



Kashtachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va turli xildagi iplar


Kashtachilikda o‘ziga xos ish qurollari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos vazifalar (operatsiya)ni bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to‘g’nag’ich, angishvona, qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi.

Chambarak asosan yog’ochdan yasaladi, ular doira, kvadrat, to‘g’ri to‘rtburchak shaklida bo‘ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog’och dastali ikki xil, ya’ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiyalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o‘tkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo‘lishi uchun qatim 50-60 sm dan uzun bo‘lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qo‘llanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga har xil yo‘llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko‘chiriladigan qog’ozlar axta, yorug’lik yordamida, naqsh chizilgan qog’ozni material ustidan ko‘klab chiqiladi keyin bu qog’ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado‘zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To‘g’ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo‘ladi.

Qo‘lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqon hamda o‘rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi esa matoga gultasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq o‘rim iplari kesishtirib tikilgan polotno yoki bo‘z shaklida to‘qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini

sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O‘zbekistonda keng tarqalgan.

Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O‘zbek kashtachiligidagi yo‘rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo‘zi, chamak, chipta xayol, baxya choclar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choclar ishlatiladi. Chunonchi Shahrисabzda yo‘rma, kandaxayol, Iroqi, Toshkentda ko‘proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand yo‘rma choki bilan tikiladi.



Chamak choki


Chamak choki – kashta tikish choclaridan biri bo‘lib, chapdan o‘ngga ikki parallel chiziq bo‘ylab tikiladi va ip o‘tkazilgan igna o‘ngdan sanchiladi. So‘ng yuqoriga chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqaga parallel ravishda to‘g’ri qadashadi hamda pasti ham qiya qilib chiqariladi. Chamak choki ko‘pincha naqshlarni ramkaga olishda yoki do‘ppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. Qaychini kichik o‘tkir uchlisi ishlatiladi. Chamak choki rus kashtado‘zlari orasida «kozlik» deyiladi.



Kuppa choki


Kuppa choki – turli yo‘nalishda, ya’ni chapdan o‘ngga, o‘ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg‘a tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choclar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan-kichiklashib boradi. Bu choc duro‘ya, (ikki tomonlama) sanama, piltado‘zi nomlar bilan yuritiladi. Do‘ppido‘zlikda va kashtalarda juda keng

foydalananadi.



Yo'rma choki

Yo'rma choki – yo'rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o'ng tomonida halqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga o'tkazilgan ip asosiy matoning sirtida chap qo'l bilan ushlab turiladi. Sanchilib chiqqan igna bilan esa halqa hosil qilinadi. Yo'rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglarni asosiy shoxga ulaydigan band va boshqa choklar uchun qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo'rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado'zлari ko'п foydalananadi.



Chindi xayol

Chindi xayoldu – ro'ya choka, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o'girib yana tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xilda gul hosil qilinadi. Bu choc bilan ikki tomoni ham ko'zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro'mol va boshqa buyumlarni bezashda ishlatiladi.

Nazorat savollari.

1. Kashtachilik san'ati tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Kashtachilik buyumlariga nimalar kiradi?
3. Kashta choklarining nomlarini ayting.
4. O'zbek kashtalarida qanday naqshlar katta o'rin tutadi?
5. Yo'rma choki qanday choc hisoblanadi?

1.9.§.Gilam to‘qish san’ati

Reja:

1. O‘zbek gilamdo‘zlik san’ati tarixi.

2. Gilamdo‘zlik san’ati maktablari.

Tayanch so‘zlar: to‘shak, o‘tov, mo‘g’ul, hoshiyador, ruta, turunj, bosma gilam.

Xalq amaliy bezak san’atining keng tarqalgan turi bo‘lib, ko‘p asrlik milliy an’ana va uzoq tarixga ega. Gilam to‘qish badiiy hunarga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to‘qish san’ati ayniqsa chorvachilik bilan shug’ullanadigan ko‘chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamonlardan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi.



Xiva gilamdo‘zlik san’ati

Gilam asosan polga yoki bo‘yra ustiga to‘shak vazifasini bajarish ushun to‘shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o‘tov ichiga o‘raladi. Bu san’at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar isbotlab beradi. Arxeologik topilmalar natijasida Xorazmda miloddan avvalgi bir ming yillikka mansub gilam bo‘laklari (parchalari) topilganligi tasdiqlandi. Qadimda Ussuriy, Bobil, Midiyada keyinroq esa Eron, Hindiston, Turkiyada to‘qilgan rangli gilamlar mashhur bo‘lgan.

VII asr qo‘l yozmalari gilam to‘qish san’ati O‘rta Osiyoda ham rivojlanganligini tasdiqlaydi. V-VII asrlarda O‘rta Osiyodagi ko‘pgina shaharlardan Xitoya har xil gilamlar olib kelingan. O‘rta Osiyo va Afg’oniston adabiyotlarida ko‘rsatilishicha, VII-XI asrlarda Xorazm hamda Samarqand bilan Buxoro o‘rtasidagi ba’zi shaharlardan kichik-kichik joynamoz gilamlar to‘qib, chet mamlakatlarga sotilgan.

XI-XII asrlarda O‘rta Osiyoda, shu jumladan, O‘zbekiston hududida gilam to‘qish san’ati juda rivojlangan. XIII asrda esa mamlakatimizda gilam to‘qish san’ati rivojlanmay qoldi, chunki mo‘g’ul bosqinchilari O‘rta Osiyoni egallab olgan edi.

XIV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoning Amir Temur qo‘liga o‘tishi bilan bu soha yana rivojlanib ketdi. Har xil xorijiy mamlakatlardan olib kelingan ustalar gilam to‘qish ustaxonalarida ishlaganlar. XVIII-XIX asr boshlarida, ayniqsa, Buxoro va Farg’ona xonliklarida gilam to‘qish san’ati tez sur`atlar bilan rivojlangan.

XX asr boshlarida Qo‘qon, Samarqand, Andijon, Buxoro O‘rtaOsiyoning gilam to‘qib sotish markazi hisoblangan. Gilam to‘qiydigan mashinalar ixtiro etila boshlandi. Xiva, Andijon, Qarshi, Urgut shaharlarida gilam to‘qiydigan korxonalar ochildi.

Andijonda «Mehchamguli» arteli qoshida gilam to‘qish kursi ochildi. Artelga Farg’ona vodiysidagi Oyim qishlog’idan katta usta Mehriniso Teshaboyeva taklif etildi. Jumhuriyatda gilamdo‘zlikni rivojlantirish uchun Turkmanistondan mashhur ustalar taklif etildi va ko‘plab gilamdo‘z ustalar tayyorlab berildi. O‘zbekistonda gilam to‘qish maktabi asosan ikki yo‘nalishda – Samarqand va Andijon gilamlari o‘zining chidamliligi, pishiqligi, ranglarning aniqligi, koloriti bilan farq qiladi. Farg’ona, qoraqalpoq gilamlari, asosan, ikki xil, ya’ni qizil va to‘q ko‘k gammada to‘qiladi.

O‘zbek gilamlarining chetiga ruta, o‘rtasiga turunj yoki doira naqsh ishlanadi. Samarqand gilamdo‘zlik maktabiga Samarqand va Buxoro

viloyatlaridagi gilam to‘quvchilar kiradi. Buxoro gilamlari o‘zining rang-barangligi kattaligi, uzun patligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari qisqa patli, markazida turunj chetiga alohida-alohida naqshlar ishlanadi. Qalqon deb nomlangan turunj naqshi juda ko‘p ishlanadi. Gilamlar hoshiyador, estetik jihatdan chiroyli ishlangan bo‘ladi. O‘zbekistonda patli va patsiz (polos) gilamlar to‘qiladi.

1. Tikma gilam – tayyor buyumga guli tikiladi.
2. Bosma gilam – guli bo‘yab bosiladigan gilam.

Xiva, Andijon, Urgut, Qarshiva boshqa joylarda to‘qima gilamlar tayyorланади.

Ko‘pgina mamlakatlarda qadimdan to‘qib kelinayotgan gilamlar yaxshi rivojlangan. Masalan, Fransiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Afg’oniston va boshqa mamlakatlarda, eng yaxshi gilamlar Dog’iston, Turkmaniston, Gruziya, Ozarbayjonda va Armanistonda to‘qiladi. Gilamning to‘qima, tikma, va bosma xillari mavjud.

Nazorat savollari.

1. Gilam to‘qish san’ati tarixi va uning rivojlangan davri nechanchi asrda yuzaga kelgan?
2. Gilamlarning turlarini sanab o‘ting?
3. Gilamdo‘zlikda qanday xom ashyolardan foydalaniladi?
4. O‘rta Osiyoda gilam to‘qish san’ati nechanchi asrda rivoj topdi?
5. O‘zbek gilamlarida qanday naqsh elementlaridan foydalanib to‘qiladi?

1.10.§. Zardo‘zlik san’ati

Reja:

1. Zardo‘zlik san’atining rivojlanishi
2. Zardo‘zlik xom – ashyolar va zar tikish usullari

Tayanch so‘zlar: jun ip, zarbop kiyimlar, kamzul, chakmon, chalvor, poykor, baxmal, bershim, barqut, kalobatun.

Zardo‘zlik – hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do‘zi (tikmoq) so‘zini anglatadi. Zardo‘zlik san’ati uzoq tarixga ega. Zardo‘zlikning vatani Vavilon bo‘lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgach, zar, ipak va jun ip qo‘sib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Vizantiyada zardo‘zi kiyim-kechaklarni faqat imператор a’yonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo‘zlik san’ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo‘zlik san’atining rivojlanganligiga XV-XVII asrda ishlangan zardo‘zlik namunalari misol bo‘la oladi. Vizantiyadan Qadimgi Rusga ham zardo‘zlik san’ati kirib keldi. Kichik Osiyo doirasida zardo‘zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlandi. Xullas Vizantiya qayerga ta’sirini o’tkazgan bo‘lsa o‘sha yerda zardo‘zlik rivojlangan.

O‘rtta Osiyoda zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma’lumki, O‘rtta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I-II asrlarda **zarbop** kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947 yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog’ida o’tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I-11 asrlarga tegishli **zarbop** kiyimlar topilgan. Abdurazzoq Samarqandiy «Hindiston safarnomasi» asarida 1442 yili Shohrux zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o‘rtasida turgan elchilarning sovg’alari orasida **zarbop** kiyimlar bo‘lganligini aytib o‘tgan. 1465 yili «Ashratxona» maqbarasi haqidagi hujjatlarda **zarbop** kiyimlar haqida bayon etib o‘tgan. Hirotda yashab ijod etgan Vasfiy o‘zining risolalarida **zarbop** kiyimlar va zardo‘zlik kasbi to‘g’risida bayon etgan. XVII asrda yashagan Samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo‘zlik bo‘lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX-XX asr boshlarida zardo‘zlikning o‘ziga xos maktabi yaratilgan. O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg’ona va boshqa joylarda zardo‘zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo‘zi kiyimlar mahalliy aholining turli

tabaqalari o‘rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilar, shahar boylari uchun tikilgan.

Yuzlab qo‘li gul ustalar hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlagan. Bu ustalarning ko‘pchiligi ota-bobosidan meros bo‘lgan kasbi saroy ahllari uchun kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog’, salsa, kulloh va jul tikishdir. Bu kiyimlar xon buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan biron ta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida aytib o‘tilgan kiyimlardan hech birini o‘ziga buyurtirishga haqi yo‘q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg’a qilgandagina kiyishlari mumkin edi.



Buxoro 2016-2017



Buxoro 2002-2003

Zamonaviy zarbof erkak va ayollar kiyimlari



Zamonaviy zarbof ayollar nimchasi va oyoq kiyimlari (Buxoro 2016-2017 yillar)

Ayollar va bolalarning zardo‘zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning an’analalaridagina kiyilgan, kiyimlarni ular biron ta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8-10 yoshdan katta bo‘limgan o‘g’il bolalariga sunnat to‘yi munosabati bilan zarbof to‘n kiydirishgan.

XIX-XX asr boshlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang’itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli zarbof kiyimlar yagona yodgorliklari nusxasi hisoblanadi. 1800—1826 yillarda Haydarxon podsho zamonasida ishlangan zardo‘zi maxsi (1810 yilda ishlangan) saqlanib qolgan. 1827—1860 yillarda Amir Nasrulloxonidan juda ko‘p zarbof kiyimlar saqlanib qolgan. 1895 yil-dan 1911 yilgacha hukmronlik qilgan Abdulahadxonga mansub juda ko‘p zardo‘zlik kiyimlar ko‘p saqlanib, o‘sha davr zardo‘zlik san’ati gullab yashnagan davr hisoblanadi. O‘rta Osiyoda zardo‘zlar boshqa hunarmandchilik kabi maxsus tashkilotga uyushgan edi. O‘sha vaqtida Buxoroda 350 ga yaqin zardo‘z ustalar bo‘lgan. Ular ustidan nazorat qilib turadigan maxsus tashkilot bo‘lgan. Sex ustaviga o‘xshash risolalari bo‘lib, u diniy rasm-rusumlarga hamda urf-

odatlarga amal qilishni talab etar edi. Zardo'zlarning ko'pchiligi tevarak-atrofdagi guzarlarga yaqin joylarda yashar edilar. Shaharlarda bozorbop buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalarining katta qismi aynan guzarda joylashgan edi.



Buxoro “Zarkon” zardo’zlik fabrikasi. Zardo’zlikda tikilayotgan (zamonaviy) zardo’zi pardalar. Talabalar amaliyotda.



“Kulloh” erkaklar bosh kiyimi

Tashkilot uyushmasining boshlig'i eng hurmatli va tajribali usta — oqsoqol yoki bobo bo‘lgan. U rasmiy ravishda saylanmay, bobo diniy-axloqiy masalalarni hamda ustalarining xatti-harakatlarini kuzatib borar edi. Agarda bobo bo‘lmanan holda oqsoqol uning o‘rnini bosib turar edi. Oqsoqol Amir saroyi

bilan amirlik ma'muriyati o'rtasidagi tashkilotning rasmiy vakili hisoblangan. U yirik buyurtmalar olishda va taqsimlashda, usta, xalfa, shogird o'rtasidagi kizolarni hal qilishda, bozordan chakana ustaxonalardan belbog', ayollar bezagi, ro'mol va hokazolarni sotib olishda xizmat qilgan.

Amirning bosh amaldori zarur buyumlar ro'yxatini qushbegidan oqsoqolga bergan. Oqsoqol yakka holda ishlaydigan ustalardan buyum narxini kelishib» olgan va buyurtma ro'yxatidagi narsalarni olib qushbegiga ko'rsatgan. Keyin esa oqsoqol ustalarni rozi qilgan. Oqsoqol bundan tashqari uyushma a'zolarining turmushi bilan chambarchas bog'langan bo'lган. Oqsoqol uyushma a'zolarining rilasida chaqaloq tug'ilsa, to'y va marosimlarda nechta odam aytish, nimalar kerak bo'lishini, qancha to'yna qilish va boshqalarni hamda mana shu marosimlarga boshidan oxirigacha bosh-qosh bo'lган. Oqsoqolga alohida maosh ajratilmay saroy topshiriqlarini bajargani, har xil xizmatlari uchun, to'y va marosimlarda choponlar kiygizishgan, pul va sovg'alar taqdim qilishgan. Oqsoqolga poykor, ya'ni yordamchi tayinlanar edi, u yosh ustalardan saylanib, unga x,am maosh ajratilmas edi. Poykorga uyushma a'zolari to'y, o'lim, hovli to'yi va boshqa ma'rakalarda arzon matodan tikilgan chopon in'om etar edilar. Buxoro amirining shahardan tashqaridagi Sitorai Mohi Xossa hamda Shirbudun saroylarida har yili bozor sayli bo'lib, unda xalq amaliy san'ati turlaridan kulolchilik, misgarlik, kandakorlik, pichoqchilik, do'ppido'zlik va boshqalar qatori zardo'zlik buyumlari ham tashkil etilar edi.

Eron, Arabiston hamda Rossiyadan keltiriladigan zar simlarining to'xtab qolishi zardo'zlik san'atining rivojiga putur etkazdi. Bu paytda zardo'zlik buyumlarining xillari ham o'zgardi. Keyinchalik esa dabdabali kimxob to'nlar o'rniga do'ppi, ayollarning nimchalari, sumka, tuqli, albom muqovalari, choyshablar, ko'zoynak g'iloflari shuningdek divan yostiqlarining g'ilofi va boshqalar tikila boshlandi. Zardo'zlik san'ati bilan amirlik zamonida faqat erkaklar shug'ullangan, chunki ayol qo'li tegsa, zar xira tortadi deb ularni bu ishga jalb qilinmas ekan.

1930 yilda O‘zbekistonda rassomlar uyushmasi, uning qoshida zardo‘zlik arteli tashkil etilib unga tajribali zardo‘zlar taklif etildi.Dastlabki yillarda artel xalq talablarini to‘liq qoniqtira olmadi. Lekin keyinchalik artel kengaytirilib fabrikaga aylantirildi. Ishchilar va ustalar soni kundan kun ortib bordi. O‘sha davrda talantli rassom Olimjon Majidov, talantli zardo‘z Fayzullo G‘aybulaev, Umar Hayotov va boshqa ustalar ko‘plab shogirdlar qabul qilishgan edi. Ular yangi uslubda tikish, yangi shakllar topish ustida ijodiy izla-nib, turli buyumlar tikishardi.

Milliy kiyimlar ichida eng keng tarqalgani zardo‘zi do‘ppilar bo‘ldi. Jumhuriyatimizni turli chekkalariga keng tarqalgan bo‘lib, har bir rayonning o‘ziga xos kashta tikish usuli bor. Zar do‘ppilar faqat Buxoroda tikilardi. Ayniqsa, xotin-qizlar paranji tashlashidan so‘ng. ular chiroyli do‘ppilar kiya boshladilar. Buxorodagi zardo‘z ustalar do‘ppilarning yangi ajoyib nusxalarini yaratdilar, ayniqsa qizlar, kelinchaklar kiyadigan yoqo‘t, olmosdek charaqlagan «Gulnoz», «Bahor», «Navro‘z», «Dilorom», «Gulbahor», «Dilafro‘z», «Ra’no», «Festival», «Qo‘shbodom» va «Baxt» deb nomlangan do‘ppilar tikildi)1960 yillardan buyon xotin-sizlar oyoq kiyimlari (ham uyda, ham ko‘chada kiyish uchun mo‘ljallangan). tuflilir zardan (shakli uch xil) tikila boshlandi. Zardo‘z buyumlarga Lola, oftob, archa, bodom, minorai kalon, «Somoniy maqbarasi» kabi naqsh va rasmlar aks ettirildi.

Zardo‘zlik san’atining yirik namoyandalyrkshan biri, buxorolik zardo‘z usta No‘mon Aminovdir. U Buxoro shahrida 1908 yil zardo‘zlar oilasida dunyoga keldi, otasi Raimjoy Lajidov Buxoro amirligi ustaxonasida 12 yil ishlagan edi. U No‘mon jonga yoshlik chog‘idanoq zardo‘zlik sirlarini o‘rgata boshladi. 1920 yilgacha Buxoro amirining ustaxonasida 300 ta erkak shug‘ullanar edi. No‘monjon asta-sekin gulburlik, rassomlik, zardo‘zlik sirlarini egallay boshladi. Zardo‘zlik Artelda ishslash uning uchun uncha qiyin bo‘lmadi, aksincha zavqli bo‘ldi. U erda zardo‘zi to‘nlar, buxorocha do‘ppilar, telpaklar tikildi. U artelda san’at dargohining jonkuyarlaridan biri bo‘lib xizmat qildi.

Zardo‘zlikda mahalliy jaydari va chetdan keltirilgan materiallar ishlatiladi. Erkaklar choponi baxmal bershim degan barqutlardan tikilgan. Baxmal bershim chetdan keltirilgan barqutlarning a’lo navi hisoblanib to‘nlar uchun faqat shu barqutdan foydalanilgan. Rus barquti, ya’ni baxmali faranj ham keng iste’mol qilingan. Bu barqut Rossiya orqali G’arbiy Evropadan keltirilgani uchun baxmali zagronish deb yuritilgan. Ruscha zagraničniy so‘zidan olingan. Bu barqutlarning yo‘l-yo‘l, katak-katak, sidirg’a, bosma gulli navlari bo‘lgan.

Odamlar sho‘x gulli barqutlarni ko‘proq xarid qilganlar. Ayniqsa, qizil binafsha, yashil va ko‘k rangli barqutlar odamlarga yoqqan. Binafsha va qizil rangdagi g’oyat tekis barqutlar bolalar va ayollar kiyimi uchun juda mos bo‘lgan. Silliq, yarim ipak barqut, ya’ni baxmali musi chompsondan tashqari barcha buyumlar uchun keng qo‘llanilgan. Bundan tashqari Buxoro baxmali jaydari baxmal bo‘lib, u ko‘p ishlatilgan. Uning to‘q yashil hamda to‘q qizillari jul va poyafzal tikishlarda qo‘llanilgan. Zardo‘zlikda barqutdan tashqari surp, movut, shoyi, atlas, doka, jaydari alacha hamda teridan foydalanilgan. Atlas buyumlarga zardan gullar tikilgan. Atlas zarga chidamsiz va tez sitilib ketgan. Gulli hamda sidirg’a atlasdan belbog’lar va ro‘mollar tikilgan. Shoyi gazlamadan ayollar ustki kiyimlari ro‘mol va belbog’lar tikiladi. Ayniqsa silliq yoki doki xanjariy nomi bilan yuritilgan. Surp barqutga qaraganda juda ko‘p ishlatilgan.

Erkaklar ustki kiyimlarini Hindistondan olib kelingan llovutdan tikishgan. Uning nomi kashmiri deb yuritilgan. Kashmiridan salsa va to‘nlarga zardan gullar tikilgan. Undan faqat saroy ahlining oliy tabaqalari zar kashtalar tikilgan kiyim kiyishgan. Jaydari movut zardo‘zlikda ishlatilmay, yarim shoyi jaydari alacha gazmolidan zardo‘zlikda so‘zana, takyapo‘sh, joynamoz, lo‘la bolish jildlari va boshqa narsalar tikilgan.

Alacha gazmolidan ayollar hamda bolalar kiyimi tikilgan, lekin erkaklar choponi kam tikilgan. Sidirg’a turli-tuman alachalar zardo‘zlikda ko‘p

ishlatilgan. Qarshilik usta Mulloning alachalari sham’iy alachasi eng yaxshi gazmol hisoblangan. Teridan ayollar kovushi tikib, u maxsi bilan kiyilgan.

Zardo‘zlikda turli xil sim iplar ishlatilgan. U asosiy xom ashyo hisoblanib zar va kumush iplar tayyorlash tarixi uzundir. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush iplar tayyorlash texnologiyasi ma’lum bo‘lgan. Dastlab «o‘rama oltin»degan zar simlar ishlab chiqarilgan. O‘rta Osiyoda ham zar simlar ishlab chiqarilgan.

O‘ramazar simlar dastlab Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. Hindiston chet ellarga juda ko‘p zar simlar chiqargan. Bundan tashqari Eronda shero-ziy deb yuritiladigan zar simlar ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoroga u zar simlar faqat Moskvadan, keyinchalik esa Angliyadan keltirilgan.

XVII asr boshlarigacha Rossiyaga Sharqdan zar simlar keltirilgan. O‘sha davrda Moskvada podsho saroyida nemis ustalari yordamida zar va kumush simlar ishlab chiqarilar edi. O‘ndan ortiq turli xil zar va kumush simlar Buxoro bozorlarida sotilar edi. O‘sha vaqtida kalobatun degan zar tola mashhur edi. U momiq bo‘lib, goh zar, goh kumush ip o‘rnida qo‘llaniladi. Tilla kalobatunni tayyorlashda sim ipga tilla suvi yurgizilgan. Kalobatunda 84% li kumush qotishmasi ko‘llanilgan. Uning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi har xil bo‘lgan.

XIX asrning 30—70-yillarida tikilgan buyumlarda kalobatunning asosi tovlanuvchan sariq tilla rang ip, 80-yillarda to‘q sariq ipak ip 90-yillarda esa to‘q sariq tus shoyi ip bilan tilla rang ip qo‘shib tikiladigan bo‘lgan. 1900-yillardan so‘ng alvon tusli ipni to‘q jiggarrang va och jigarrang iplar bilan qo‘shib ishlatishgan, XX asrning 10-yillarida yana to‘q sariq tusdagi iplar ishlatila boshlandi. Bu ip bilan erkak, ayollarning bosh kiyimlari tikilgan. Kalobatun bilan sim buxorolik zardo‘zlar uchun asosiy xom ashyo hisoblangan.

XIX asrdan boshlab shu daargacha barcha buyumlarda kalobatun uchraydi. Bu nav dastlab Buxorodan olib keltirilgan. Kalobatunning xar xili: masalan, «yak raxi o‘rusi hali baland», «kalobatuni jingila» va boshqalar. *Yak raxi o‘rusi xali* baland obdon tilla suvi yogurtirilgan bir yo‘lli rus kalobatuni

bo‘lib, bu ip zardo‘zlikda juda keng ishlatilgan. U tilla suvi yurgizilgan sof kumush simni alvon tusli ipak ipga qo‘shib yigirilgan.

Zardo‘zlikda *likkak* degan zar ip ham ishlatilgan. U shoyi ip qo‘shilmagan pishiq yigirilgan ingichka simdan iborat. Buxoro ustalari likkakni onda sonda ishlatganlar. Zardo‘zlikda zar iplardan tashqari jaydari rangdor iplardan ham foydalanilgan. Ular gullarga qo‘shimcha oro berishda vd matoga zar yo‘l tushirishda ishlatilgan. Bu ishlarda sariq, to‘q sariq, qizg’ish-sariq, jigarrang, ayrim hollardagina boshqa rangdor oq ipak iplar ishlatilgan.

Bershimi tilloyi chor tor — u to‘rt yo‘lli zar ip va eng yaxshi sifatli ipak ip. Bu har bir ipak ipni ikkiga bo‘lib, ikkita qilib eshilgan. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikish uchun ishlatilgan. Responi pechak-40. 40-g’altak ip XIXasrning 90-yillari boshida paydo bo‘lgan bo‘lib, zardo‘zlikda keng ishlatiladigan xom ashyo. Uning rang tovlanishi xuddi ipakdagagi singari bo‘lib, faqat unga qizil hamda to‘q qizil ranglar ham qo‘shilgan. Mana shu g’altak ip keyinchalik o‘ta qimmatbaho zardo‘zlik buyumlarida ishlatiladigan ipak o‘rnini egallagan. Ayrim paytlarda bitta buyumning o‘zida x,am u, ham bu ip ishlatilgan. Zardo‘zlikda yana pulakcha, olmos qubbalar, zarhal po‘g’alar va boshqalar ishlatilgan.

Pulakcha — zardo‘zlikda ishlatiladigan kichkina tangacha. Mayda ok, sariq, qizil va boshqa ranglarda bo‘ladi, buyumga qadash uchun o‘rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha.

Olmos qubbalar — zardo‘zlikda ishlatiladigan turli nav oltindan zardo‘zlarning o‘zлари yasagan zargarlik taqinchoqlariga o‘xshab ketuvchi bo‘rtma naqshlar hamda qimmatbaho toshlar.

Har bir kasbda o‘ziga xos asbob-uskunalar bo‘ladi. Zardo‘zlikda asbob-uskunalar uncha ko‘p bo‘lmasada o‘ziga xos tomonlariga va tuzilishiga ega. Ularni birma-bir xarakterlab o‘tamiz.

Chambarak — korcho‘b, uning to‘n, jun hamda mayda-chuyda buyumlar uchun mo‘ljallangan uch turi mavjud. Ular katta-kichikligi bilan bir-biridan farqlanadi. Korcho‘b uzunligi 3,20 santimetrgacha bo‘lgan ikki teng

yonli silliq yog'och dastadan iborat bo'lib, uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni xohlagan kattalikka keltirish mumkin. Chambarak bo'zdan qilingan kerish (tavar) tortiladi hamda u tikib tayyor bo'lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Zardo'zlar ko'rpa chada chordona holda o'tirib ishlaganlar. Zardo'zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatiladi. Patila oddiy yog'ochdan chorrax (to'rt qirrali) va nafis qilib tarashlangan, ichini kovlab qo'rgoshin kuyib vazminlashtirilgan bo'ladi. Unga to'rt qavat qilib zar o'raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi. Bunday patilalar ipni zikh qilib o'rashni ta'minlagan, Zardo'zlikda angishvona ham ishlatiladi.

Angishvona — forscha, angusht, ya'ni barmoq, vona, bona, saqlovchi degan ma'noni bildiradi. Yostiq, ko'rpa tikishda qo'lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g'ilof. Angishvonaning ustki va yoni ignani keti qadaladigan, ya'ni nina toyib ketmasligi uchun chuqurchalardan iborat bo'ladi. Qadimda metall kam bo'lganligi uchun charmdan ham tayyorlangan. Zardo'zlikda ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Birinchisi fabrika angishvonasi bo'ladi, uni o'rta barmoqqa ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalgani chap qo'lning uchta bardlog'iga taqilib ishlanadi. CHarmli angishvonani fabrikada metalldan ishlangani ham bo'ladi.

Igná — zardo'zlikda chatish-tikish uchun ishlatiladigan o'rtacha kattalikdagi igna.

Qaychi shuturgardan — zardo'zlikda ishlatiladigan qaychi turi bo'lib, u tuya bo'yin qaychi degan ma'noni beradi. Ya'ni tuya bo'yniga o'xshash qaychi bo'lib gul qirqishda ishlatiladi. Zardo'zlikda oddiy qaychilar ham ishlatiladi.


Zardo'zlikda zar tikish usullari

Zardo'zlikda 30 xil klassik tikish usullari mavjud. Bu usullar o'ziga xos tomonlarining nomlari bilan bir-biridan farq qiladi. N. Aminov o'zining «Biz zardo'zlarmiz» risolasida zardo'zlik sirlari, zar tikish xillari va usullari

to‘g’risida bat afsil to‘xtalib o‘tgan. Zardo‘zlik umuman ikkiga bo‘linadi, birinchisi — zamindo‘zi, ikkinchisi — guldo‘zi



Zardo'zlik dastgohi (korcho')da bo'z tortilgan, duxoba mato yuzasidan gulnaqsh (kompozitsiya) qadab chiqish jarayoni



Zamonaviy zardo'likda panno (2022 y)

Zamindo‘zi — bunda zar tikilayotgan kiyim yoki kiyim gulnaqshining zamini yoppasiga zar bilan tikiladi. Zamindo‘zi siddi ustiga tikilib, siddi jaydari ipakdan tayyorlanadi. Birinchi navbatda ip 4 yoki 5 qavat qilib, keyin esa ikki qavat qilib eshiladi. Shu hosil bo‘lgan ingichka shnurni (buravani) zardo‘zlikda *siddi* deb yuritiladi. Zardo‘zlikda tikilish, joyining yuzasi katta yoki kichikligiga qarab, o‘lchamga moslab stanokda siddilar sariq bo‘z ustiga sakkiz, yigirma, yigirma to‘rt qator qilib tortiladi. Siddilar aniq hisob bilan tikilib ular sanab tikiladi hamda ularning soni mo‘ljaldagidan ortiq bo‘lmasligi kerak. Aks holda, mavj yoki nusxalar buziladi. Zaminduzida mavji yak ro‘ya va

mavji du ro‘ya qismlari bor. Zamindo‘zi qadimda qimmatbaho to‘nlarda ishlatilgan bo‘lib hozir zardo‘zi do‘ppilarning jiyagidagina qo‘llanib kelinadi.

Guldo‘zi — bunda tikilayotgan naqshning tagi okiq qolib faqat gul naqshlarining o‘zi zar bilan tikiladi. Guldo‘zi tikish usuli o‘ziga xos bo‘libbu kuyidagi bosqichda bajariladi. Naqqosh tomonidan naqsh chiziladi. Naqsh nusxasi qalin qog’oz, karton yoki teridan qirqib andazasi tayyorlanadi. Sidirg’a baxmal matoga qadab chiqiladi, ya’ni omonat tikib chiqiladi yoki elimlanadi. Karton nusxani zar ip bilan qoplab tikib chiqiladi. Biroz bo‘rtma naqsh gul hosil bo‘ladi. Endi zardo‘zlikda zar tikish xillari hamda usullari to‘g’risida to‘xtalib o‘tamiz. Bu aytib o‘tiladigan tikish xillarining ko‘pchiligi zardo‘zlikda qo‘llanilyapti. Ayrimlari deyarli qo‘llanilmayapti.

Bu tikish xillari kam qo‘llansada lekin uning ishlatish sohasini topsa bo‘ladi. Bu usullarning yo‘q bo‘lib, unutilib ketayotgani kishini achintiradi. Qadimdan qo‘llanilib kelingan tikish usullaridan yosh avlod foydalansa, xalq yaratgan an’anaviy, nodir uslub-larni asrab qolgan bo‘lur edik.

Yak ra mavj, yak ra chashmi bulbul — bu tikish usulida mavji yak ro‘ya bilan chashmi bulbul qo‘shib tikilib, bir yo‘li mavj hamda bir yo‘li chashmi bulbul hosil qilingani uchun uni shu nom bilan yuritiladi. Bu usul zardo‘zlarni shu san’atga ijodiy yondoshishi tufayli yuzaga kelgan.

Chashmi bulbul — bulbulning ko‘zi degani. U shaxmat xonalariga o‘xshab ketib to‘rtburchak naqshlar ajoyib mavjlanib turadi. Naqshlar siddi bilan sanab tikiladi. Xuddi boshqa zamindo‘zidagidek tikiladi. Tovus, xurshid kabi qadimgi buxorocha do‘ppilar gir aylanasining tepe qismiga «obiponcha» ishlatilgan. U kartondan kesib, zamindo‘zi ustiga to‘rt qavat kumush zar bilan tikib chiqiladi.

Mavji cheg’i — **mavji ocha-bacha** deb ham yuritiladi. Zamindo‘zining bir turi bo‘lib, o‘ziga xos tikiladi. Chunonchi siddilar to‘rt va ikkitadan sanab tikiladi. Natijada katta va kichik mavjlar hosil bo‘ladi. Zardo‘zlar katta mavjni- ocha, ona deb yuritsalar, kichigini esa bacha, ya’ni bola deb yuritadilar.

Mavji du ro‘ya — ikki tomonlama mavj, zamindo‘zining qismlaridan biri bo‘lib, engi shabadada daryoning mavj urib turganligini eslatadi. Shuning uchun mavji du ro‘ya deb ataladi. Obi lo‘la deb ataladigan ip ishlatiladi. U zardo‘zlikda ip siddilardan yo‘g’onroq bo‘lib, jaydari ipdan yigirma-yigirma besh qavat qilib, qattiq eshiladi. Chegara misol siddilarning har ikki chetiga tortiladi. Obi lo‘la zamin do‘zining chetlari chiroyli chiqishi uchun ishlatilib, zamindo‘zi enining kengligiga qarab siddilar soni ko‘paytiriladi. Lekin obi lo‘la ikki qatorligicha qolaveradi.

Mavji yak ro‘ya – bir tomonlama mavj, zamindo‘zining qismlaridan biri bo‘lib, u daryo mavjiga o‘xshash bo‘ladi. Shuning uchun mavji yak ro‘ya deb ataladi.

Sochmado‘zi – ikki qavat zar va bir qavat mayin ipak bilan birga qo‘shib eshiladi hamda lola, sebarga, barga gullar, shakarak kabi tikiladi. Har gal sochma tikilganda zar bilan ipak birgalikda albatta o‘rtaga qilib eshilishi lozim. (Bu usul gullarga tiriklik mavjini beradi. U katta namoyonlarda ishlatilsa, ajoyib manzaralar hosil bo‘ladi. Bu tikilgan gullar quyosh nurida tovlangan gulzorni eslatadi.

Qubbi almosi – sariq bo‘z ustiga tikiladigan qubba bo‘lib, uning gullari olti bargli, sakkiz bargli bo‘lishi mumkin. Qadimda qubbalarni latun zar ipda tikilgan hozirda esa zar mishura bilan tikiladi. Chunki latun zar iplar yo‘q. Quyidagi barglar tikiladi va bo‘sh qolgan oralari o‘rtaga eshilgan ikki qavat zar bilan tahrir tikishida to‘ldiriladi. Bir xil rangli ip bilan qubbaning o‘rtasidagi uzuk ko‘ziga o‘xshash joyi to‘ldirilib tikiladi. Tayyor qubbani bo‘z ustidan kesib olinib, gumbaz hosil qilish uchun uning tagiga paxta qo‘yiladi. Uni joyiga o‘rnatilib atrofi kobuli tikishda sherozi, ya’ni 8 qavat zar bilan tikib chiqiladi. SHundan so‘ng ajoyib gumbazsimon gul hosil bo‘ladi. Ba’zi hollarda mis qubbalar va kumush qubbalar ham bo‘ladi. Mis va kumush qubbalar maxsus buyurtmalarga bajariladi. Ular ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega.

Qandahori – zar tikishning qadimiylari juda chiroyli usullaridan bo‘lib, bunda uch xil, ya’ni 8 baxyali, 6 baxyali va 4 baxyali qilib, sariq bo‘z ustiga

tikiladi. Ba’zi hollarda duxoba ustiga ham tikish mumkin, lekin duxobaga tikish uncha samara bermaydi. Chunki duxobaning tuklari zar orasidan chiqib, mahsulotning sifati buziladi. Qandahori tikish turi aslida Afg’onistonidan kelib chiqqan bo‘lib, uni tikishda asosan bo‘zdan foydalaniladi. Qandahorida asosan yupqa matolar ishlatilgan bo‘lsa, to‘rt qavat zar o‘rash lozim. U sakkiz yoki olti qavat zar bilan tikiladigan xilidir. Ba’zi hollarda qandahori atrofi oq kumush zar bilan kobuli qilib tikib chiqiladi. Bu juda chiroyli nusxa.

Xishti haram – murakkab tikish xili bo‘lib zamindo‘zi gruppasiga kiradi. Xishti haram tikish uchun uch yoki to‘rt xil ipak ip yoki mulina iplar va har xil rangdagi ip uchun bittadan igna lozim. Tikishda naqshlarga qat’iy rioya silish kerak bo‘ladi. Uning umumiyo ko‘rinishi koshinkorlik devorlarini eslatadi. Har bir xisht bir-biridan yaxshi ajralib turishi uchun, zar ip, ko‘k, yashil, havorang, binafsha rang ipak turlari ishlati-ladi. 1906 yilda tikishning usulini Aminjon Majidov yaratgan.

Shashxol – u zamindo‘zi gruppasiga kirib, tuzilishi jihatidan chashmi bulbulga o‘xshasa-da shashxolning chashmi bulbuldan enliroq bo‘lishi bilan undan farq qiladi. U qanchalik enliroq tikilsa, shuncha badiiy chiqadi. Shashxol tikish xili kuylak oldi qismlarida, choponlarda ishlatiladi. Davlat gerblari va ayollar sumkasi shu usulda tikiladi. U boshqa zamindo‘zlarga qaraganda ancha murakkab bo‘lib, agar igna no-to‘g’ri urilsa shashxol buziladi. U romb shakli ko‘rinishida bo‘lib o‘rtasida nuqtalari bo‘ladi. Shuning uchun ishshxol, ya’ni olti xol deb nomlangan. Buxorolik zardo‘z N. Aminovning «Go‘ri Amir» pannosidagi maqbara devorlari shu usulda tikilgan.

Bozbandcha — tumorcha degani. Tumorcha ko‘rinishda bo‘lgani uchun shu nom bilan yuritiladi. N. Aminov «Go‘ri Amir» pannosida gumbazni pastki qismi bozbandcha usulda tikilgan bo‘lib, o‘ziga xos ajoyib ko‘rinish bergen.

Shoxchai du ro‘ya — ikki yoqlama shox degani, keyingi yillarda paydo bo‘lgan tikysh xillari-dan biri. Tuzilishi jihatidan qarasang shoxsimon naqshlar ikki tomonga joylashgan bo‘ladi.

Shoxcha — zamindo‘zining bir turi bo‘lib, shoxlar ajoyib ko‘rinishda tasvirlanib, u do‘ppilar atrofgirdiga tikiladi. SHoxchadan ba’zi bir hoshiyalarda foydalanish mumkin.

Sambo‘sa — u xuddi varaqi somsani eslatadi, shuning uchun tojikcha sambo‘sa o‘zbekcha somsa. SHuning’ uchun zar tikishning bu turini sambo‘sa deb yuritiladi. Aylana do‘ppilarda zar tikishning sambo‘sa usuli ishlatiladi. Zamindo‘zi o‘rniga obi kofta tikiladi. «Kofta» tojik so‘zidan olinib o‘zbekcha kovlanib olingan degan ma’noni anglatadi. Obi kofta ikki xil ipak bilan tikib to‘ldirib o‘ziga xos ko‘rinishdagi naqsh tasvirini beradi.

Shakarak — zar ip ikki qavat qilib o‘rtaga eshilib yana ikki qavat qilib eshib tikish usulidir. Bu eshilgan zar ip bilan maxsus gullar hamda barglar tikiladi. Maxsus gullar sebarga, panj barga, chappado‘zi, lolalar shakarak usulida tikilsa o‘ziga xos nafis qamda go‘zal chiqadi. SHakarak asosan guldo‘ziga o‘xshab ketsada ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, shakarakda gullar hamda barglar alohida tovlanib va jilovlanib ko‘rinishga aniqlik kiritadi.

Marg’o‘lai dumchanok — dumli marg’o‘la, zar tikishning bu usuli kam ishlatiladi. U ayollar ro‘moliga, kamkor chophonlar, yostiqchalar hoshiyasiga zar iplar bilan tikiladi. Uning ikki xil sherozi, ya’ni 8 qavat eshilgan zar ipda hamda 4-5 qavatli zar iplar bilan tikib chiqiladi.

Qobuli – tikish xili afg’onlardan olingan bo‘lib, shuning uchun Afg’iston poytaxtining nomi bilan *qobuli* deb yuritiladi. Ayniqsa afg’on va hind zardo‘zlarida qobuli tikish xili juda ko‘p qo‘llanilgan. Qobuli asosan sabr, bodom, chilolak deb ataladigan gullar qubba hamda zamindo‘zilarning ichki tomoniga qo‘llaniladi. Qobulini gul atroflariga ishlatilganida zardo‘zi yanada badiiy chiqadi.

Tahrir — tikish usulini bunday deb atalishining sababi qo‘lyozmaning g’aliz jumlalarini uzatishdek jarayonni eslatishdir. U asosan guldo‘zi atroflarini to‘ldirish uchun kerak. Gul tikishda zar bo‘laklari oddiy ip bilan ilintirilib tikiladi. U biroz bo‘lsada ko‘rinib turadi, shunitsg uchun har bir gul bargining ho-shiyasi sheroziy zar bilan tikiladi. Bu tahririy tikish guldo‘zining

yanada badiiy chiqishiga olib keladi. Agarda ayrim kamchilik bo‘lsa, tahrir o‘sha aybni bekitish uchun xizmat qiladi.

Tagalak — tikishning bu usuli qo‘y shoxining ko‘rinishini eslatgani uchun uni shunday nomlanadi. U zar gullar orasini to‘ldirish uchun ishlatilishi mumkin. Yana bo‘sh joy qoldirilsa, unga marg’o‘la qo‘shib tikiladi. Tagalak yupqa matoga to‘rt hamda olti qavat zar ip bilan tikiladi. Agarda duxoba bo‘lsa unga 8 qavatli tofta zar bilan tikilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Marg’o‘la — forscha zulf ma’nosini bildiradi. Zardo‘zlikda zar tikishning qadimiy usullaridan biri. Marg’o‘la usulida olti qavat zar ip bilan yupqa qamda nozik gazlama, ya’ni sidirg’a krepdeshin yoki atlasga tikiladi. Zardo‘zlar keyinchalik marg’o‘lani sakkiz qavat eshilgan zar ipda duxobaga tikkanlar. Buni ustalarimiz sakkiz kavatli tofta zar, ya’ni «sherozi» deb yuritadilar. XVIII asr oxiri XIX asr boshlalarida sherozi zar kelib chiqqan. Marg’o‘la zar ip tikish usuli ayollar peshonabandiga juda mos tushadigan tikish turidir. Raqqosalarimiz shunday peshonabandlarni kiyib raqsga tushadilar. O‘zbek milliy kiyimlaridan biri bo‘lib an’anaviy ravishda davom etib kelmoqda.

Guldo‘zi — zardo‘zlik san’atining eng qadimiy hamda asosiy usullaridan biri, u qadimda zarbof to‘nlar tikishda qo‘llanib kelangan. Guldo‘zi usulida karton gullar yuzasi to‘rt qavat qilib o‘ralgan zar ip bilan bir tekisda qoplanadi hamda zar ip matodan o‘tmaganligi sababli karton tomoni oddiy ipda tikiladi.

Xorak — zar tikishning usuli XIX asr oxir-larida ixtiro qilingan. U zardo‘zlikning juda ko‘rkam turlaridan biri. Xorak guldo‘zi va simdo‘zilar atrofiga bezak sifatida tahrir o‘rnida ishlatiladi. Xorak to‘rt-besh qavat zar ip bilan tikiladi.

Kungurai sedona — uning ikki turi bo‘lib, sherozi duxoba ustiga, olti qavat zar ip bilan yupqa matolarga tikiladi. Uning «kungurai sedonai yak raftor» va kungurai sedonai du raftor» xillari bor.

Mavji tunuk — nafis gazlamaga asosan sallalarni tikishda qo‘llaniladi. Hozir esa na-moyonlarda qo‘llanilyapti. Masalan, N. Aminovning «Salyut» deb nomlangan namoyoniga mavji tunuk tikish turi qo‘llanilgan.

Mavji xanjar — burchak shaklida tikish xili bo‘lib, kumush zar bilan qobuli uslubida uchburchak tikiladi. Burchak o‘rtasiga tilla zarda xanjari tikib chiqiladi.

Dabbusa — uzun hoshiya, davra do‘ppilarda ishlatiladigan tikish turidir. Zardo‘zlar ikki oba zar ipda tikib chiqilgach, ularning o‘rtasi dabbusa sim bilan tikib to‘ldirilib chiqiladi.

Zardo‘zlikni bilish uchun asosan uch hunarni yaxshi bilish kerak, birinchisi – rasm solish va naqsh chizishni, ikkinchisi – gul kesishni, ya’ni gulbur bo‘lishni, uchinchisi – kesilgan gulga zarni tika bilishi kerak. Agar zardo‘zlar bularni birortasini bilmasa uchalasidan bittasiga muhtoj bo‘lishi kerak bo‘ladi. Shuning uchala kasbni chuqur o‘rganishga to‘g’ri keladi.

Zardo‘z quyidagi tartibda ishlaydi. Usta erda, ko‘rpacha ustiga o‘tirib korcho‘pda tikadi. Korcho‘p oddiy yog’och ramkadir. Bu ramkaga mato tortilib chiqiladi hamda bu mato ustiga sidirg’a ko‘k, to‘q qizil yoki binafsha rangdagi baxmal qadab chiqiladi. Usta zardo‘z ikkita o‘ymoq angushvona yordamida tikib, o‘ng qo‘lining barmog’iga tikuvchilar ishlaydigan charmdan tikilgan o‘ymoq kiyib tikadi. Hammamizga ayonki zardo‘zlik ikki qo‘l bilan tikilib, zardo‘zlik ignasi kalta va nozik bo‘lishi lozim bo‘ladi. Tilla rangli zarni qizil hamda sariq iplar bilan kumush zarni oq ip bilan tikiladi.

Zar 4 qavat qilib patilaga, ya’ni zar o‘raydigan cho‘pga o‘raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi. “Patila» degani oddiy yog’ochdan yasalgan bo‘lib, chorrax va nafis qilib tarashlagan ichi kovlab qo‘rg’oshin quyilgan bo‘ladi. Gullarni kesish uchun «gulbur» ishlatiladi. Axta va xoka yordamida kartonga naqsh tushuriladi. Keyin esa maxsus qaychi yordamida gulni kesib olinadi.

Qadimgi zamonda karton bo‘l magani uchun qo‘y terisi» «mesh» dan qilingan gullarni kesib tayyorlaganlar. XIX asrning o‘rtalarigacha zardo‘zlik gullari charmdan kesilgan oq charmni tila zar bilan tikish

uchun sariq rang bilan bo‘yaganlar yoki oq zar bilan tikishga esa shundayligicha ishlatilgan. Charm yumshoq bo‘lganidan zar tekis chiqmagan, shuning ustiga surp yoki doka yopib, temir bilan urib tekislangan. Bu usul XIX asr o‘rtalariga qadar davom etgan.

Rossiya shaharlariga olib borib sotiladigan tovarlar ichida zarbof karton qog’ozlarga o‘rog’lik holda olib borilgan. Keyinchalik kartondan foydalanganlar. Buxoroliklar bu kartonni «qog’oz latta» deb yuritadilar. Qog’oz latta hozirgi kartonga qaraganda egiluvchan va sinmasdi. Hozir sinadigan kartondan foy-dalaniladi. Kartonni yuziga sariq bo‘z yopish-tirishgan, bu holatda karton sinmaydi va bir tekisda chiqadi. O‘sha davrda kartonni zardo‘zlikda ishlatilishi katta ixtiro hisoblangan. Kartondan gul kesish tez va oson, ikkinchidan zar bilan tikish qulay va sifatlari bo‘lgan.

Nazorat savollari

1. Zardo‘zlik san ‘atining vatani qayer?
2. O‘zbekistonda zardo‘zlik san’ati rivojlanishi tarixi qanday?
3. Zardo‘zlik asbob va uskunalariga nimalar kiradi?
4. Zardo‘zlik texnologiyalarini gapiring bering.
5. Zardo‘zlikda usta shogird an’analarini qanday rivojlangan?

2-MODUL.KOMPOZITSIYA TUZISH

2.1.§.Naqqoshlikda naqsh kompozitsiyasini tuzish

Reja:

- 1.Naqqoshlikda naqsh elementlaridan foydalanib kompozisiya tuzish.**
- 2.Naqsh kompozisiyalatini tuzish turlari.**

Tayanch so‘zlar: Kompozitsiya, bofta islamiy, erkin islamiy, turunj, bandi rumiy, islamiy guldona.

Naqqoshlik, ganchkorlik, kashtachilik va boshqa xalq amaliy san’ati turlarida kompozitsiya tuzishda simmetriyani, markaz topishni, bezaklarning takrorlanishi, bezakning dinamikligi, chiroylligi va tabiiyligi, ranglarning

yorqinligi va uyg'unligini hisobga olish kerak. Bulardan har birining o'ziga xos qonun-qoidalari bor.

Kompozitsiya (mujassamot) — lotincha «kompositio» so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish, degan ma'noni anglatadi.

Ustalar chizadigan nusxalar o'z xususiyatiga ko'ra namoyon, turunj, ruta, munabbat, va morpech, zanjira kabi maxsus kompozitsiyalarga bo'linadi. Ustalar har bir naqshning tuzilishi, xarakteri va falsafiy ma'nosiga qarab, ularga nom qo'yadilar. Chunonchi, Toshkent ganchkorlik mакtabining yirik namoyandası Mahmud Usmonov «San'atim-saodatim» risolasida naqsh kompozitsiyalari nomini birma-bir sanab o'tar ekan: «xashti tufsor, sarnig'on, tufsori qanot, turna qanot, xonagi bo'rtma, xashti davra, chorsor davra yulduz, mashdona, parrak, oftoba, lola islimiy, bofta islimiy, erkin islimiy, turunj, bandi rumiy, islimiy guldona, islimiy madohil, Lola hoshiya» va boshqa atamalar mavjud, deb qayd qiladi.

Kompanovka (joylashtirish) - chizish kerak bo'lgan naqshni yoki biror tasvirni qog'oz, ganch, faner yoki biror yuzaga to'g'ri joylashtirish.

Simmetriya - grekcha bo'lib, o'lchovlarning bir-biriga mutanosibligidir.

Ritm - naqsh elementining ma'lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdag'i harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi.

Asimmetriya - kompozitsiyada simmetrik muvozanatning buzilishi.

Stilizatsiya - tabiatdagi o'simlik, hayvon va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirish.

Naqsh kompozitsiyasini chizishda quyidagilarga:

- tanob yoki novda tagidan gul, bargni qoldirib tasvirlash mumkin emasligiga; tanob bilan novdani farqlab tasvirlashga; taqsimda oitiqcha nusxa chizib qo'ymaslikka;

- tanobdan hech qachon gul, novda, g'uncha va boshqalar o'sib chiqmasligiga;

- naqsh elementlarining nisbatini saqlashga;

- ganch o‘ymaga moslab naqsh kompozitsiyasi tuzishga;
- naqshning zichligiga;
- naqsh orasidagi zamin bo‘shliqlari nisbatini saqlash va hokazolarga amal qilish kerak.

O‘rgangan naqsh elementlarimiz asosida oddiy naqsh kompozitsiyalarini tuzamiz. Simmetriknaqshlar tuzmoqchi bo‘lsak, avval qog’ozga taqsimlash asosida simmetrik to‘r chiziqlarni chizib olamiz. Naqshlarning takrorlanuvchi eng xarakterli qismi «taqsim» deb yuritiladi.

Taqsim naqqoshlikda naqshning ma’lum bir shaklda takrorlanuvchi qismi, bo‘lagi. O‘rta Osiyo naqshlari o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lib, naqshlarning deyarli hammasi takrorlanuvchi bo‘lakdan (qismidan) iboratdir. Shu taqsim sathi «taqsim yuzi» deyiladi. Naqqoshlar naqsh chizishdan avval taqsim yuzini qog’ozga belgilab, naqsh kompozitsiyasining bir qismini chizib, axtasini oladilar. Naqqosh bezatiladigan yuzaga shu axta yordamida naqshni takrorlab tushirib, to‘ldirib chiqadi va bezatadi.

Taqsim kompozitsiyasining takrorlanuvchi qismi har xil bo‘ladi. Chunonchi, uchburchak, to‘rburchak, kvadrat va hokazo. Doira yoki gumbazga mo‘ljallangan naqsh taqsimiy kompozitsiya yuzining to‘rtadan, oltidan, sakkizdan, o‘n ikki-dan bir va hokazo qismlarini tashkil etib, taqsim doirasida yonma-yon takrorlanadi. Bunday taqsim «aylana taqsim» deb ataladi. Taqsim to‘g’ri chiziq bo‘yicha takrorlansa, «to‘g’ri taqsim» deb yuritiladi. Taqsim to‘g’ri va oyna shaklida almashinib takrorlansa, unda «chopurost taqsim» deyiladi. Ganch o‘ymakorligida taqsimning o‘zi chizib olinsa bo‘ldi. Keyin shu taqsim bo‘yicha muayyan naqsh kompozitsiyasining axtasini bemalol tayyorlash mumkin.

Kompozitsiya chizishni yaxshilab o‘rganib olish uchun naqsh kompozitsiyalaridan bir nechta chizib, mashq qilinadi. Chizilgan kompozitsiyalarning eng yaxshisi tanlab olinadi. Zanjiralardan birini hoshiya tariqasida qo‘llash ham mumkin.

Agar zanjira qilmasangiz chetidan, albatta, ramka qoldiring. Ramkasiz naqshni bezalmagan uyga o‘xshatish mumkin. Tuzilgan naqsh kompozitsiyasini kalka (shaffof) qog’ozga ko‘chirib, axta (ulgi) tayyorlanadi.

Axta — naqsh yoki biror rasmni shaffof qog’ozga chizib, chiziq yo‘llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andaza. Xorazmda «ulgi», Buxoroda «so‘zan» deb yuritiladi. Ilk davrlarda ustalar buyum yuziga yoki naqsh chiziladigan sirtga tasvirni to‘g’ridan-to‘g’ri chizib, o‘yib, naqsh ishlay bergenlar, keyinchalik axta orqali tasvir tushirish qulayligini bilib, undan foydalana boshlaganlar.

Naqqoshlar, ganchkorlar, yog’och o‘ymakorligi ustalari va boshqalar naqsh kompo-zitsiyalarining andazasini yillar davomida saqlab kelganlar. Bu esa xohlagan vaqtida ulardan foydalanish, zarur bo‘lsa uni takomillashtirish imkonini berar edi. Bu axtalar otadan bolaga meros bo‘lib qolardi. Axtani tayyorlash uchun shaffof qog’oz naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o‘qi bo‘yicha ikkiga, to‘rtga va hokazoga bukланади. Bukлананинг bir qismiga naqsh chiziladi. Naqshli shaffof qog’oz yupqa yostiqcha ustiga qo‘yiladi va naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik va maydaligiga qarab igna tanlanadi. Ignan bilan teshiladigan teshiklarning oralig’i naqshning mayda va yirikligiga bog’liq bo‘ladi. Agar naqsh mayda bo‘lsa, igna oralig’idagi masofa yaqin bo‘ladi va aksincha naqsh yirik bo‘lsa, teshiklar oralig’i masofasi katta bo‘ladi. Naqsh nusxasi igna bilan teshib bo‘lingandan keyin, shaffof qog’oz yoyib yuboriladi, natijada axta hosil bo‘ladi.

Tayyor bo‘lgan axtani ish yuzasiga qo‘yib, ustidan xoka urib va bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi ish yuzasiga ko‘chiriladi. Ganch taxta tayyor bo‘lgandan so‘ng, uning ustiga naqsh kompozitsiyasi axta va xoka yordamida tushiriladi yoki qo‘l bilan qora qalamda to‘g’ridan-to‘g’ri chiziladi. Naqshning o‘yiladigan chegara chiziqlari skalpelda tirnab kesib chiqiladi. Shunday qilinmasa ganchni o‘yish jarayonida chiziqlar o‘chib ketishi va o‘yma noto‘g’ri o‘yilishi mumkin. Naqsh zamini skalpelda o‘yilib, chetlari iskana yordamida tekislab chiqiladi. O‘yma relyefiga mos pardoz turi beriladi. Masalan, pax pardoz,

choka pardoz, Lola pardoz yoki tabaqa pardoz. Ayrim hollarda kompozitsiyada bir necha pardozni bir vaqtida qo'llash ham mumkin.

Munabbat shaklidagi naqsh kompozitsiyasini tuzish. Endi biz to‘g’ri to‘rtburchak (munabbat) shaklidagi naqsh kompozitsiyasi tuzish, o‘yish va unga tegishli pardoz berishni o‘rganamiz. Bunday naqsh kompozitsiyasi kvadrat bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, kvadrat va to‘g’rj to‘rtburchak ichidagi naqsh kompozitsiyasi hech tomonga ulanmaydigan oddiy naqsh kompozitsiya yoki har tomonga ulanuvchan munabbat naqshi ham bo‘lishi mumkin.

Munabbat — arabcha «o‘sirmoq» degan ma’noni anglatadi. Asosi kvadrat yoki to‘rtburchakdan tashkil topib, to‘rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi. Katta yuzalarni bezashda munabbatdan foydalilaniladi. U O‘rta Osiyo naqsh kompozitsiyasida ko‘p qo’llaniladi. Naqqosh munabbatni chizishdan avval uning to‘rtdan bir bo‘lagini chizib olib, keyin axtasini tayyorlaydi. Munabbatning o‘simliksimon, geometrik va boshqa turlarihor. Uning munabbat, mehrob, munabbat bofta, munabbat islimi, munabbati girih va boshqa atamalari mavjud.



Munabbat kompozisiyasi

Biz munabbat shaklidagi naqsh kompozitsiyasi tuzishni mashq qilish uchun, avvalo, munabbat shaklidagi naqsh kompozitsiyasini ko‘rib chiqamiz va shu asosda uni chizamiz. Chizishda kompozitsianing biror takrorlanadigan ikkidan bir yoki to‘rtdan bir qismini chizib olamiz. Keyin esa shu naqshning axtasini tayyorlaymiz. Ganch taxta qo‘yib, ustiga axta yordamida naqsh nusxasini tushirib o‘yamiz va unga tegishli pardoz beramiz.

Davragul kompozitsiyasi tuzish. Davragul ikki so‘zdan iborat bo‘lib, «davra», ya’ni doira va gul, ya’ni «doira ichidagi naqsh» ma’nosini anglatadi. Davragul — davra shaklidagi naqsh kompozitsiyasi keng tarqalgan kompozitsiya turlaridan biri.

Davragul asosan shiftning markaziga yoki devorga ko‘p ishlatiladi. Bu naqsh turi tuzilishi jihatidan islimiy, handasiy (geometrik) va boshqa naqsh turlaridan iborat bo‘ladi. Ko‘proq binolarning ichki va tashqi qismlarini bezashda ishlatiladi. Davragul kompozitsiyasi quyma va o‘yma asosida ham ishlanadi. Biz hozircha faqat o‘yma usuldagagi davragul kompozitsiyasi ishlashni o‘rganamiz.

Davragul asosan shiftning markaziga yoki devorga ko‘p ishlatiladi. Bu naqsh turi tuzilishi jihatidan islimiy, handasiy (geometrik) va boshqa naqsh turlaridan iborat bo‘ladi. Ko‘proq binolarning ichki va tashqi qismlarini bezashda ishlatiladi. Davragul kompozitsiyasi quyma va o‘yma asosida ham ishlanadi. Biz hozircha faqat o‘yma usuldagagi davragul kompozitsiyasi ishlashni o‘rganamiz.



Davragul kompozisiyasi

Davragul asosan shiftning markaziga yoki devorga ko‘p ishlatiladi. Bu naqsh turi tuzilishi jihatidan islimiy, handasiy (geometrik) va boshqa naqsh turlaridan iborat bo‘ladi. Ko‘proq binolarning ichki va tashqi qismlarini bezashda ishlatiladi. Davragul kompozitsiyasi quyma va o‘yma asosida ham ishlanadi. Biz hozircha faqat o‘yma usuldagи davragul kompozitsiyasi ishlashni o‘rganamiz.

Davragul kompozitsiyasi chizishdan oldin, bu naqsh binoning qayeriga joylashtirilishiga qarab, uzoqdan ko‘rinishi uchun yirikroq, yaqindan ko‘rinishiga ega bo‘lishi uchun maydaroq naqsh tanlanadi. Davragul naqshi diametrik aniqlab olinadi. Albom varag’ida kichkina xomaki naqsh nusxalari bajariladi. Shulardan o‘zingizga ma’qul tushgan xomaki rasm bo‘yicha kattalashtirilgan davragul naqsh kompozitsiyasi bajariladi.

Buning uchun davragulning haqiqiy kattaligidagi diametrda aylana chizib olinadi va shu aylana to‘rt, sakkiz, o‘n, o‘n ikkiga va hokazolarga bo‘lib olinib, naqshning taqsimi aniqlanadi. Bu taqsim doirada yonma-yon takrorlanadi, ya’ni aylanma taqsimga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Shu naqsh taqsimi bo‘yicha uning axtasi tayyorlanadi. Ganch taxta quyilib axta yordamida naqsh nusxasi tushiriladi va o‘yib pardoz beriladi.

Har bir xalq amaliy san’at turlarida o‘ziga xos tuzilishga, ko‘rinishga, mazmunga ega bo‘lgan naqshlar ishlatiladi. Shu qatori ganch o‘ymakorligida ishlatiladigan naqshlar ham o‘ziga xos xarakterga ega. Tabiiyki naqsh elementlari naqqoshlik, yog’och o‘ymakorligi, tosh o‘ymakorligi, kashtachilik va boshqa turlarida ishlatiladigan naqsh elementlari va naqshlari bilan o‘ziga xos farq qiladi. Ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, guncha, kabutar, tovus va boshqalarning tuzilishini, o‘sish qonun-qoidalari, ko‘rinishini sinchiklab o‘rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarini stillashtirib olganlar.

Chunonchi, usta gulni stillashtirib olishda uning go‘zalligini qaysi holatda (ustidan, yonidan, tagidan) ko‘rinishini tasvirlashni, izlab topadi.

Har qanday kishi ganch o‘ymakorligi, naqqoshlik, yog’och o‘ymakorligi va boshqalarni o‘rganish uchun naqsh elementlari chiza olishni o‘rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlashni alifbosi hisoblanadi. Bu darsdan biz o‘simliksimon naqsh elementlari barg, gul, margula va tanob, shkufta, boglam va sirtmoqlarning turlari, nomlari va ularni chizishni o‘rganamiz.

Stilizatsiya - qush, baliq hashoratlar, barg, gul, rang va shaklini ko‘rinishini naqshga moslashtirib hamda umumlashtirib olingan turlari mavjud. Chunonchi, shobarg (shoxona barg) eng katta barg, ko‘p barg, chor barg, (to‘rtta barg), xurmo bargi, tol bargi, anor bargi, kashkarchi bargi, madoxil bargi, qush bodom bargi, qalampir bargi, nok bargi, sambig bargi va boshqa 50 dan ortiq turlari bor.


Barg o‘simliksimon naqsh elementlari bo‘lib, naqqoshlar tomonidian tabiatdagi o‘simlik bargni stillashtirib olgan tasviri. Barg naqsh kompozitsiyasida to‘ldiruvchi va husn beruvchi elementdir.



Barg elementi

Ular tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkab turlarga bo‘linadi, Oddiy barglarga uch barg, bodom bargi, tol bargi va boshqalar kiradi. Murakkab barglarga esa ko‘p barg, shobarg va boshqalar kiradi.


G’uncha - tabiatdagi gunchalarni usta tomonidan stillashtirib olingan tasviri.



G’uncha elementi

Gul - tabiatdagi nakdoshlar tomonidan stillashtirib olingan tasviri. Gul Naqsh kompozitsiyasida tuldiruvchi va xusn beruvchi element bo‘lib xisoblanadi. Gullarning har xil turlari bo‘lib, ular O‘ziga xos nomlanadi. Chunonchi, uch-besh

yaproqli oygul, lola gul, paxta gul, no'xat gul, chinni gul, sava gul, atir gul, gulaflshon, gultojixo'roz va boshqalar.




Gul elementlari

Gullar tuzilishiga ko‘ra oddiy va murakkabga bo‘linadi. Murakkab gullarga 1ta gul, ko‘p bargli gul va boshqalar, oddiy gullarga esa oygul, lola gul, no‘xat gul va boshqalar kiradi.

Gullar har xil tuzilishga ega bo‘lganligi uchun ularni o‘ziga xos nomlari bor.

Shkufta – o‘simgulsimon naqsh elementi bo‘lib, novdalar bir-birini bog’lash va yuzalarini to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Shkufta tuzilishi jixatidan turlicha bo‘ladi. Bir yerda kichik sodda bo‘lsa, ikkinchi o‘rinda anchagini takomillashgan, uchinchi o‘rinda ikki tomondan kelayotgan shkufta madoxil yoki shunga o‘xhash shaklni hosil qiladi.



Shkufta elementlari

Bog'lam va sirtmoqlari – o'simliksimon naqsh elementlari bo'lib, bandi rumiy boftanining oddiy turi hisoblanadi. Ikki tanobni uchinchi sirtmoqsimon egib o'ziga bog'lashi sirtmoq yoyiladi. Sirtmoqlar bir-biri bilan chalkashib o'tadi, umumiy ko'rinishi xuddi sakkiz raqamini eslatadi.

Bofta - Tanob aylanib o'tib xosil qilgan shakl, islimiyligini naqsh elementi. Boftalar to'g'ri, egri xamda aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'ladi.



Bofta elementlaridan tuzilgan kompozisiya

Marg'ula – qo'sh chiziqli gajak, o'simliksimon naqshi elementi. U misgarlik, naqqoshlik, zardo'zlik kabilarda ishlataladi. Agar bir novdani uchidan ikki marg'ula hosil bo'lgan bo'lsa, uni qush marg'ula deb yuritiladi. Agar novda bilan marg'ula tasvirlangan bo'lsa, marg'ulali novda deb yuritiladi. Naqsh kompozitsiyasida marg'ula to'ldiruvchi element hisoblanadi.

Band - (novda nabotiy) Naqshlardagi o'simlik va daraxt novdasini ifodalovchi gul bilan u tanobga nisbatan ikkilamchidir. O'simliksimon naqsh elementi bo'lib, u gullarning novdasi hisoblanadi. Band tabiatdag'i daraxt yoki o'simliklarning novdasini va tanasini stillashtirib olingan tasvirdir, har bir naqsh elementi singari bandning ham kompozitsiyada qo'llanishning o'ziga xos tasodiflari bor. Masalan, bandning aniq, bir o'lchamda bo'lishi kompozitsiyada gullarga nisbatan saqlanish, u naqshda gullar, barglar va tanoblarining tagidan o'tishi va turli naqshlardan kompozitsiyada banddan o'ziga xos metodda foydalilaniladi, shuning uchun ham naqshlar bir-biridan farq qiladi. Chunonchi, Xorazm naqshida bandlar kam, kurtak va barglar deyarli bo'lmaydi.

Novdalarning o‘zi prujina singari bir-biriga qo‘silib ketadi. Bundan tashqari novda shoxlash paytida Buxoro, Toshkent va Samarkand nusxalaridan ko‘pincha shkurka bilan shoxlari bir-biriga mustahkamlashsa, xorazmliklarda shkurka ajratilmay o‘rniga novdacha quo‘siladi..

Tanob - arabcha chilvir, arqon degan ma’noni beradi. Murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va naqshiga shakl beruvchi chizik tanob deyiladi. Markaziy Osiyo naqshlarida bir xil yo‘g’onlikdagi chiziq bo‘lib, ustalarimiz tabiat manzarasida uchraydigan anxrrning shartli tasviri deb olganlar. Naqqosh naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi navbatda tanob tortib, keyin novdalarni chizadi. So‘ngra novdalarni yo‘nalishiga moslab gullar joylashtirib chiqadi. Ustalar naqsh kompozitsiya chizishda tanobni birinchi rejaga qo‘yadilar. Tanob ustidan xech qachon, gul, novda yoki barg bosib o‘tmaydi. Tashqari tanob barg ranglarini bir—biridan ajratib turadi. Tanoblar xilma-xil bo‘lib, bir kompozitsiyada boshlanganicha uzlusiz davom etadi, ba’zi nusxalarda tanob ikki nuqtadan boshlanib bir-biriga qarab yo‘nalib, bir-biriga chirmashib gullaydi, yana boshqa nusxalarda tanob bir nuqtadan boshlanib ikkinchi tomonga yo‘nalib tatssim chetiga borib tugallanadi.

Tanob egri, tugri, aralash chiziklardan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Agar kompozitsiyada tanoblar kesib o‘tuvchi rangli naqshlarda ishlatsa, unda albatta ikkalasi ikki xil rangga bo‘yaladi. Agar bir xil rangga bo‘ysa, unda asosiy shakl o‘zini ko‘rsata olmaydi. Tanob bir-birini kesib o‘tmay birbiriga parallel bo‘lsa, bunday nusxani "qush tanobli isimli" deb ataladi. Agar tugallangan mustakil kompozitsiya bo‘lsa,,„qo‘s sh tanobli namoyon“ deb ataladi. Kompozitsiyada tanob bir-biridan ortiq xam bo‘lishi mumkin. Agar ikki tanobli kompozitsiya bo‘lsa, bir boshi ikkinchi gul, barg va boshqalarning o‘tishi mumkin emas.

Nazorat savollari

1. Naqh so‘zining ma’nosi nimada?
2. Ruta naqsh kompozisiyasining nashda o‘rni?
3. Grix nima?

4. Kompozisiya tuzishda nimalarga e'tibor beramiz?

5. Axta nima?

2.2§. Yog'och buyumlaridan quticha yuzalariga naqsh ishlash

Reja:

1. Buyumlarni naqshlash jarayoni va bosqichlari

2. Yog'och qutichani naqshlashda kerak bo'ladigan asbob uskunalar

Tayanch so'zlar: estetik, lak, xontaxta, siyoh, kunjut, faktura, stilizatsiya, pista ko'mir, zanjira.

Xalq amaliy bezak san'ati o'zining qadimiy va jozibadorligi bilan kishilar qalbidan joy olgan. Ayniqsa naqqoshlik san'ati an'analarga nihoyatda boy. Naqqosh ustalarning ish uslublari rang-barang va serqirraligi bilan ajralib turadi. Naqqosh o'z ishida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakklardan, material fakturasidan mohirlik bilan foydalanib, yorqin ifodalikka erishadi.

Insoniyat o'zi uchun zarur hisoblagan barcha kiyim-kechak, ro'zg'or va uy-ro'zg'or anjomlarini doimo takomillashtirib, bezatib keladi. Shu bilan birga, har qanday badiiy bezatilgan buyum va jihozlarning o'z bezatilish usullari, materiallarga ishlov berishdagi o'ziga xos bosqichlari mavjud. Bunday bezak va ishlov berib yasatilgan buyumlar kishilarga estetik zavq bag'ishlab, hayotga bo'lgan munabbatlarini yanada oshiradi.

Ustalarimiz tomonidan sayqal topayotgan zargarlik, pichoqchilik, kashtachilik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorlik buyumlari nafaqat bugunimiz, balki kelajak avlodlarimizning ham boyliklari, ma'naviy qadriyatlari hisoblanadi. An'anaviy o'zbek naqqoshligida nafaqat binolarni bezash, balki yog'ochdan yasalgan buyumlarga ishlov berish ham yaxshi rivojlangan. Bularga mebellar, sovg'abob buyumlar, musiqa asboblari va uy-ro'zg'or buyumlari ham kiradi. Shuningdek, quticha, xontaxta, kursi, stol-stullar, tuzdon, non idishi, sabzi taxta, qoshiq, lagan, sandiq va xokazolar shular jumlasidandir.

Uy-ro‘zg’or buyumlari va jihozlariga badiiy ishlov berish asosan ularga naqsh namunalarini tushirish, pardozlash kishidan anchagina malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishni talab etadi. Zero, yog’och buyumlarini naqshlashda xalq ustalari erishgan yutuqlar benihoya kattadir. Ularning ijod namunalari respublikamiz va chet-ellarda turli muzey, ko‘rgazma zallarida, keng namoyish etilib kelinmoqda. Ularning barchasi haqli ravishda yuqori baholar olmoqda. Naqsh san’atida yog’och buyumlariga o‘ta mohirlik bilan jilo bergan ustalar O.Qosimjonov, Yo.Raupov, J.Hakimov, T.To‘xtaxo‘jaevlardir. Shu jumladan zamonaviy naqqosh ustalarning ham ijodiy ishlari tahsinga loyiq. Ulardan Mahmud To‘raev, Anvar Ilhomov, Abdulla Akbarov, Hamidulla Isoqjonov va boshqalarni misol tariqasida ko‘rsatish mumkin.

Naqshlanadigan buyumlarning shakl-shamoyilini, foydalanishdagi qulayliklarini hisobga olgan holda boshlang’ich qoralama eskizlari ishlanadi. Hosil bo‘lgan aniq o‘lchamlardagi qoralamalar asosida buyum yasalib, naqsh kompozitsiyalari tuziladi. Buyumlarni naqshlash jarayonida bir necha amaliy bosqichlar bajarilishi lozim:

- tayyor bo‘lgan (yasalgan) yog’och buyumlariga jilvirlash orqali ishlov berish.
- Yuza sirtlarini bo‘r va elim aralashmasi (shpaklyovka) yordamida silliqlab chiqish.
- Naqsh kompozitsiyasini buyum sathiga ulgi yordamida tushurish.
- Naqshni ranglash bosqichlarini ketma-ket bajarish.
- Pardozlash va laklash.

Naqshlanishi kerak bo‘lgan buyumning rang koloriti aniqlangach, ranglash bosqichlari quyidagi tartibda bajariladi:

1. Naqsh zaminini ranglash.
2. Naqshning gullari va barglarini turlash.
3. Naqshning bandlariga, shakllariga rang berish.
4. Siyoh qalam tortish.
5. Naqshning gullari va barglariga targ’il tortish.

6. Naqshning oq bandlari va obisini tortish.



Yog'och buyumlarini naqshlashda mola, obi, siyoh qalam deb ataluvchi turli nomerlardagi yumshoq mo'yqalamlardan foydalaniladi. Pardozlash usullari naqshning rang koloritiga asosan qora, qizil, to'q ko'k, to'q yashil, jigar rang kabi to'qroq tusdagi bo'yoqlar yordamida bajariladi.

Yog'och buyumlarini laklaganda rangsiz smola, domar va spirtli lakkardan foydalaniladi. Laklar asosan kunjut yog' va kanifol-dan tayyorlangan.



Toshkent naqqoshlaridan Olimjon Qosimjonovning aytishiga ko‘ra, fabrika laki ishlab chiqarilgunga qadar, ustalar egar moyi” deb atalgan lakni ishlatganlar. Bu lakning aralashmasi elim (tog’ o‘simliklarining suvi), kunjut moyi va kanifol bo‘lgan. “Egar moyi” bo‘yoqlarning rang tuslarini yanada yorqinlashtirgan va bezatiladigan yuzani darz ketishidan, emirilishidan saqlagan.

Yog’och buyumlarni naqshlash uchun quyidagi asbob-uskuna va materiallar kerak bo‘ladi. Jilvir qog’oz, shpatel, bo‘r, duradgorlik yelimi, pista ko‘mir, doka, xitoy qog’ozi, igna, alif, lak, tilla va kumushdan tayyorlangan hallar, 1- 20 raqamli mo‘yqalamlar va boshqalar.

Naqsh ishslash uchun qayin, qora qayin, qarag’ay, nok, yong’oq, DSP va boshqa yog’ochlar tanlanadi. Yog’och buyumlarini naqshlash uchun yana shpaklyovka, xoka va axta tayyorlanadi.

Naqqoshlikda ishlatiladigan bo‘yoq turlari quyidagilardan iborat: quruq bo‘yoq, guash, akvarel, emulsiyali bo‘yoq, mineral bo‘yoq, moy bo‘yoq, tempera bo‘yoqlari. Yog’och buyumlarini naqshlashda eng ko‘p qo‘llaniladigan bo‘yoq – guashdir. Rang tuslarini tayyorlashda oq bo‘yoqni boshqa bo‘yoqlar

bilan aralashtirib, kerakli rangni topa bilish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, guash bo‘yoqlari zarur quyuqlikda va nafis tiniqlikda tayyorlanishi lozim. Yog’och buyumlariga badiiy ishlov berishda avval buyumni jilvir qog’ozi bilan jilvirlab chiqish kerak bo‘ladi. So‘ngra, unga alif moyi yoki duradgorlik elimi surtiladi.

Buyum yuzasini yanada tekislash, silliqlash maqsadida maxsus qoplama (shpaklyovka) ham surtiladi. U quriganidan so‘ng, mayda donali jilvir qog’ozi bilan buyum sirti yana bir bor silliqlanadi. Buyumga axta va ulgi yordamida oldindan tayyorlangan naqsh kompozitsiyasi tushiriladi. Buyum sathidagi naqshlar ranglanib, pardoz beriladi. So‘ng u quriganidan keyin, rangsiz lak bilan qoplab chiqiladi.

Shpaklyovka naqshlanadigan sirtlarga silliqlab, tekslash uchun qo‘llaniladigan maxsus quyuq massa. U bo‘r (mel), yog’och elimi, alif moyi, suv,sovun kabi moddalarini qo‘shgan holda aralashtirib tayyorlanadi.



Qoplama (shpaklyovka) lar tarkibida qo‘llanilgan moddalariga ko‘ra elimli va moyli deb yuritiladi. Moyli qoplama tarkibiga alif qo‘shilganligi sababli ana shunday ataladi. Undan moybo‘yoqlar ishlov beriladigan sirtlarni silliqlashda foydalilanadi. Elimli shpaklyovka devor sathlarini pardozlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning ustidan suv bo‘yoqlari surtiladi.

Xoka tayyorlash: surup mato yoki dokaga chala yongan yog’och (pista) kukuni ezib solinadi va u xaltacha tugib qo‘yiladi.

Test topshirig‘i	To‘g‘ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
-------------------------	----------------------	----------------------	----------------------	----------------------

Axta – ya’ni ulgini tayyorlash quyidagicha bajariladi: shaffof (kalka) qog’oz tanlangan naqsh kompozitsiyasining bo‘laklariga mos ravishda buklab chiqiladi va uning faqat bir bo‘lagi chizib olinadi. So‘ng, buklangan qog’oz qavatlari igna bilan yalpisiga teshib chiqiladi. Buklangan qog’oz qati yozilganidan so‘ng esa yaxlit naqsh kompozitsiyasining hosil bo‘lganligini ko‘ramiz. Endi uni buyumning sirtiga qo‘yib, xoka yordamida naqsh tasvirini tushurish mumkin.

Nazorat savollari.

1. Naqsh san’atida yog’och buyumlariga o‘ta mohirlik bilan jilo bergen ustalarни sanab o‘ting?
2. Yog’och qutichaga naqsh ishslash bosqichlarini bilasizmi?
3. Yog’och qutichani naqsh vhizishga tayyorlash qanday amalga oshiriladi?
4. Xoka nima?
5. Axta nima uchun zarur?

Test savollari.

Amaliy san'atga oid iboralar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*zardo`z, kulol, kashtachi, o`ymakor,naq qosh	haykal, porteret, manzara	interyer, eksteryer, dekorasiya	retush, sous, pastel, koshin, kigiz
Abdulla Boltaev qaysi naqqoshlik maktabi namoyondasi?	*Toshkent	Farg`ona	Xiva	Samarqand
O`zbek xalq amaliy san`at turlarini sanab bering	*Naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi, kulolchilik, zardo`zlik	Rangtasvir, qalamtas vir, grafika	Haykaltar oshlik, miniatura, mazayka	Ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi, grafika, sgraffito
Akvarel bo`yoq qanday bo`yoq?	*Suvda eriydigan tiniq bo`yoq, ranglar bir- birini qoplamataydi	Suvda erimaydig an hamda bir-birini qoplama ydigan ranglar	Moy bilan qo'shib ishlatiladi gan bo`yoq	Suvda erimaydig an bo`yoq
Amaliy san'atga oid iboralar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*zardo`z, kulol, kashtachi, o`ymakor,naq qosh	haykal, porteret, manzara	interyer, eksteryer, dekorasiya	retush, sous, pastel, koshin, kigiz
Angob bu...	*Kogoz ustiga suriladigan bo`yoq	Sopol ustiga suriladigan pardoz buyogi	Yogoch ustiga suriladigan pardoz buyogi	Metal sirtiga suriladigan bo`yoq
Asosiy ranglarni toping	*Oq va qora kulrang	Xromatik ranglar	Qizil, sariq, ko`k	Ko`k, yashil, sariq
8.Assimetriya iborasi qaysi qatorda to`g`ri berilgan ?	*Mutanosibili k, buyum bo`laklarining bir-biriga mos kelishi:	Rangtasvir ishlash:	Buyum bo`laklari ning bir- biriga o`xsham	Qalamtasvir ishlash.
Axromatik ranglar to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping	*Spektrdag i 7 rang	Spektrda gi 3 rang	Issiq ranglar	qizil, sariq, ko`k
Axta (ulgi) nima?	*Nusxani	Elimli	Doira	Naqshni

	yuzaga ko`chirish uchun ishlatiladigan, naqsh yo`llari teshilgan shaffof qog`oz.	bo`yoq turi.	shaklidagi naqsh	tushirish uchun qora yog`och kukuni
Xalq amaliy bezak san`ati kitobining muallifi kim?	*S.Bulatov	O.Kozok ov	J.Hakimo v	O.Qosimjo nov
Axta nima uchun tayyorlanadi?	*Naqshni yuzaga tushirish uchun	Jilo berish uchun	Nusxa ko`chirish uchun	Pardozlash uchun
Bofta nima?	*tanobni aylanib o`tishdan hosil bo`lgan shakl	atanobni ng bir turi	gulning bir turi	novda, gul, mug`ja, tanob va bslimiy elementlardan tashkil topgan naqsh
Bo`yash-rang berish maqsadida amalga oshiriladigan qanday jarayon?	*Fizik- mexanik	Fizik- kimyovi y	Kimyoviy - mexanik	Fizik- kimyoviy va mexanik
Girix nakshining ta`rifi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*Tugun" degan ma`noni anglatib, xandasiy (geometrik)	Navo naqsh kompozit siyasi	Oddiy elementlar dan tuzilgan islimiyl naqsh naqshdir.	Ruta naksh kompozitsiyasi
Girix nima?	*Geometrik shakllardan tashkil topgan tukima naqsh	Nakshni ng o`zgarishi	Gullar guruxi	Yo`lsimon naqsh
Girix yasovchi ustalar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	8Sh.Murodov, Z.Bositxonov, A.Il?omov	O`Tansi qboyev, M.Nabiyev, S.Abdullaev	usta Sh.Murodov, A.Ilhomov, M.To`rayev,	A.Boltayev , O.Yoqubov , R.Masharipov

			K.Karimov usta c)	
Gorizontal chizig`i nima?	*Rassomning ko`z qorachig`i balandligi orqali o`tuvchi chiziq	Rasmdagi kesma chiziq	Osmon bilan arning kesishish nuqtasi	Perspektiva dagi paralel chiziqlar
Gul va barglarni, ikkita tanobni birlashtiruvchi va asosiy shakl beruvchi, tuldiruvchi element nomini aniqlang?	*Shukufta	Shobarg	Shingila	Mugja
Edirma usuli qaysi naqqoshlik mактабига mansub?	*Buxoro	Samarqand	Toshkent	Xiva
Jigarrang qaysi ranglardan hosil bo`ladi?	*Yashil va qizil	qora va yashil	Sariq va ko`k	qizil va sariq
Zamin deganimiz nima?	*Naqshning tag (fon) qismi	Naqsh turi	Qushlarni ng rasmi	Yo`lsimon naqsh.
Interyer so`zi qaysi tildan olingan?	*fransuz tili	ispan tili	ingliz tili	grek tili
Interyer so`zi nimani anglatadi?	*binoning ichki qism ko`rinishi	mos degan ma`noni anglatadi	ranglash degan ma`noni anglatadi	ma`lum tartibda joylashtiris h
Islimiy naqsh nima?	*O`simliksim on naqsh	Geometrik naqsh	Qushlarni ng rasmi	Yulsimon naqsh.
Qanday naqsh kompozitsiyalarini bilasiz?	*Navo, turunj, namoyon, ruta, girix, islumi, murakkab	Shobarg, oygul, mehrob	Ofort, batal	Zarduzlik, ganchkorlik , kashtachilik, kandakorlik
Qizil va ko`k rangdan qaysi rang paydo bo`ladi?	*Binafsha	Yashil	Qizil	Jigarrang
Kichik o`lchamli naqshlar asosan qaerda chiziladi?	*Uy ro`zg`or buyumlari va dekorativ yodgorlik buyumlarida	Uyning shift qismida	Devorlarda	Uyning izora qismida

Kolorit so`zi kanday ma`noni anglatadi ?	*Ranglarning bir-biriga kieslanishi.	Sovuq ranglar	Bir-biriga karama-karshi ranglar	Issiq ranglar
Kompozitsiya so`zining lug`aviy ma`nosi qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?	*Lotincha kompozito tuzilish, birlashish, bog`lanish	Frantsuz cha komposit o tuzish, to`qish, birlashish	Ital`yancha kompozito izlanish, birlashish, umumlash tirish	Lotincha kompoziyu yasash, to`qish, birlashtirish
Kompozitsiya deganimiz nima?	*Tuzish, kurish, moslashtirish	O`ylab topish	Joylashtirish	Ornatish, chizib ko`rsatish
Ko`k va sariq ranglar aralashmasidan qanday rang hosil bo`ladi?	*Yashil rang	qizg`ish rang	qora rang	Jigar rang
Kundalik hayotda, ro`zg`orda ishlatalidigan yoki zeb-ziynat vazifasini o`taydigan buyumlarning umumlashma nomi nima	*Badiiy buyumlar	Materiallar	Metall buyumlar	Asbob uskuna
Qo`sh barg nima?	*Qo`shaloq shakldagi bir juft barg	Yakka holdagi ko`p barg	To`rt juft barg	Yakka barg
Labi hovuz ansambli qaysi shaharda	*Buxoro	Xiva	Samarqand	Toshkkent
Lokal rang deganimiz nima?	*Sof rangning ishlatalishi	Ikki rangdan paydo bo`	Predmetning yorug` rangi	Predmetning soya qismi
Madoxil naqshi ta`rifini keltiring?	*Chapu-rost takrorlanuvchi lolasimon xoshiya naqsh	Handasa viy naqsh	Navonaqshi	Doira shaklidagi naqsh
Maxmud To`raev qaysi naqqoshlik maktabining namoyondasi?	*Toshkent	Rishton	Buxoro	Qo`qon
Moxi-xosa tarixiy yodgorligi qaysi shaharda joylashgan?	*Buxoro	Samarqand	Qo`qon	Toshkent
Naqqoshlikda "Band" nima	*Islimiyl bo`lagi,	Barg elementl	Naqqoshlikda	Naqsh konturlari

	tabiatdag o`simliklar novdasi tasviri	ari	ishlatiladi gan gullar	
Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob- uskunalar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*qalam, mo`yqalam, guash, kal`ka, tempera, akvarel'	Stek, karkas, plastilin, xovonda, ganch, skal`pel	Xolost, moybo`yo q, mo`yqala m	Qog`oz, akovarel', mo`yqalam , qalam
Naqqoshlikda ishlatiladigan eng katta bargning nomini aniqlang?	*Shobarg	Bodomb arg	Kushbarg	Tolbarg
Naqqoshlikda qaysi hayvon yunglaridan tayyorlangan mo`yqalam ishlatiladi?	*Bo`rsiq, suvsar, olmaxon	Echki, quyon	Qo`y, ondatra	Suvsar, echki
Naqqoshlikda kontrast tushunchasi?	*Ranglar qarama- qarshiligi	Mustaqil naqsh chizish	Namoyon naqshning o`zgacha nomi	Stilizatsiya so`zining o`zgacha nomi)
Naqqoshlikda necha xil naqsh turi mayjudligi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*3 xil: islimi, girix, murakkab	2 xil: ramziy, geometrik	4 xil: islimi, geometrik , zajira, gulli girix	5 xil: zanjira, islimi, geometrik, ramziy, gulli girix
Naqqoshlikda pardoz turlari	*Targil, edirma	Tabaka, choka, tartil	Targil, edirma, choka	Pog`onali, lula, choka
Naqqoshlikda yashil rang qanday ma`noni bildiradi?	*Yoshlik ma`nosini	Baxt ma`nosin i	Kun ma`nosini	Yorug`lik ma`nosini
Naqsh qanday ma`noni anglatadi?	*Arabcha tasvir, gul degan ma`noni bildiradi, turli shakllarning ma`lum tartibda takrorlanishid	Yo`l ichidagi naqsh	Geometrik shakllarda n tuzilgan naqsh	Lotincha "ornament" - bezak degan ma`noni anglatadi

	an hosil qilingan bezak			
Shkufta naksh kompozitsiyasida kanday vazifani bajaradi?	*Gul va barglarni, ikkita tanobni birlashtiruvch i va asosiy shakl beruvchi, tuldiruvchi element	Bezak turi	Nakshni ikki bulakka buluvchi alohida, alohida tasvirlana digan naksh kompazits iyasi turi	Naksh kompoziyiy asi markazi
Naqsh so`zi qaysi tildan olingan?	*Arab tilidan	Nemis tilidan	Rus tilidan	O`zbek tilidan
Naqshni bo`yash (turlash) nimadan boshlanadi?	*Zaminni bo`yashdan	Gul va barg elementl arini bo`yashd an	Shkifta va bofta elementlar ini bo`yashda n	Band elementlari ni bo`yashdan
Naqshni zarhal bilan ishlash	*Tazxib	Obi	Tanob	Pardoz
Naqshni to`liq pardozlash ketma-ketligi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*Targ`il, siyoh va obi tortish	Targ`il, taroq va laklash	Shpaklyov ka qilish, jilvirlash, gruntlash	Siyoh qalam, targ`il tortish
Naqshni chizish ketma- ketligi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*Naqshni chizish, bo`yash, pardozlash, siyoh va obi tortish	Naqshni chizish, pardozla sh, bo`yash	Naqshni chizish, siyoh va obi tortish, pardozlas h	Pardozlash, siyoh va obi tortish, naqshni chizish
Naqshning bir bo`lagi chizilib qayta takrorlab, yaxlit kompozitsiya chizish uchun foydalaniladigan qog`oz nomi nima?	*Shaffof qog`ozdan tayyorlangan ulgi	Yupqa format	Karton qog`oz	Rangli qog`oz
Namoyon bu...	*Tugal naqsh kompozitsiyas i	Tugallan magan naqsh komposit	To`rtdan bir qismi tugallanga n naqsh	Yarim tugallangan naqsh kompozitsi

		siyasi	kompozitsiyasi	yasi
Namoyon naqshi ta`rifi qaysi katorda to`g`ri keltirilgan?	*"Ko`rinish, manzara" demakdir. U mustaqil naqsh bo`lib, islimiy, xandasaviy, gulli girix turlari mavjud.	Doira shaklida gi naqsh	Hoshiya naqshi	Geometrik (xandasaviy) naqsh
Neytral rang nima?	*Oq va qora	Issiq rang	Sovuq ranglar	Hosila ranglar
Novda elementi xakida to`g`ri ta`rif berilgan katorni ko`rsating?	*Kompozitsiy aning asosini tashkil etuvchi, gul va barglarni birlashtiruvchisi, tuldiruvchi, boglovchi	Kompozitsiyaning asosiy shaklini kursatib beruvchi	Tanoblarning birlashtiruvchi va tuldiruvchisi	Girix nakshi bulagi
Rang kaloriti deganda nimani tushunasiz?	*Rang tusi	Ranglar mutanosi bligi	Jilo berish	Ranglar qarama-qarshiligi
Rapport tushunchasi ta`rifini keltiring.	*Naqsh taqsimi bo`lib, naqshning ma`lum bir shaklda takrorlanuvchisi qismidir.	Doira shaklida gi naqsh	Rang tusi	Naqshning asosiy qismi
Ritm deganda nimani tushunasiz?	*Berilgan shakl, naqsh bo`lagining takrorlanishi	Qo`zg`al uvchanlik	Narsaning ko`rinishi	Ranglar mutanosibligi
Ritm iborasining ta`rifi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*Naqsh bezak elementlarininig bir qismi ma`lum	O`lchovlarning bir-biriga mos kelishi (mutanosiblik)	Ranglar qarama-qarshiligi	Rang tusi

Ruta kanday kompozitsion naqsh turi?	*Ikki tomonga cheksiz ulanadigan yo‘l ichida naqsh kompozitsiyasi	Islimiylar, geometrik, gulligirix	Ramziy shakl ichidan tugallangan naksh kompozitsiya	Zanjira, bofta, tanob
Samarqanddagi tarixiy obidalarni ko`rsating?	*Tillakori, Sherdor, Ulug`bek madrasalari, Shoxi-Zinda maqbarasi, Al-Buxoriy maqbarasi	Minorai Kalon, Samoniylar maqbarasi, Chor-Minor	Ko`kaldos h, Abul?qosim madrasalar, Tilla-shayx, Shayx-Zayniddin masjidlari	Kalta minor, Ichan qal`a
Seraftor qanday ma`noni bildiradi?	3yo`nalishdagi oshiya naqshi	2yo`nalishdagi hoshiya naqshi	1yo`nalishdagi hoshiya naqshi	1 va 2 yo`nalishdagagi hoshiya naqshi
Siyoh qalam bu	*Qora qalam	Naqsh chegarasini chizishda ishlatalidigan kichik mo`yqalam	Rangli qalam	Kuraksimon mo`yqalam
Simmetriya iborasiga to`g`ri ta`rif berilgan qatorni ko`rsating?	*Mutanosiblik, buyum bo`laklarining to`g`ri chiziq yoki nuqtaga nisbatan bir biriga mos kelishi	Buyum bulaklari ning bir biriga o`xshamasligi	Buyum bulaklarini to`g`ri joylashtirish	Ranglar uyg`unligi
Somoniylar maqbarasi qaerda joylashgan?	*Buxoroda	Toshkentda	Samarqanda	Xivada
Spektr ranglari qaysi ranglardan iborat?	*7 xil kamalak ranglari	5 xil-yashil, qizil, sariq,	Barcha issiq ranglar	4 xil-yashil, qizil, sariq, ko`k ranglar

		ko`k oq ranglar		
Stilizasiya suzining ta`rifi qaysi qatorda keltirilgan?	*Narsaning rasmi, rang va shaklini dekorativ tarzda umumlashtiris h	Mutanosi blik	Naqshga shakl beruvchi chiziq	Naqsh elementlari ning takrorlanishi
Tanob naqsh kompozitsiyasida qanday vazifani bajaradi?	*To`ldiruvchi, birlashtiruvchi	Chegaral ovchi, qusn beruvchi	To`ldtruvchi, chegaralo vchi	Chegaralov chi, shakl beruvchi
Tanob nima?	*Naqsh kompozitsiyasining asosiy yo`l chizig`i	Naqshning ramziy ma`nolar i nomi	Naqsh kompozitsiyasining tuzilishi	Naqshning gul elementlari
Targil berish qaysi san`at turida qo`llaniladi?	*Naqqoshlikda	Yog`och o`ymakorligi	Ganch o`ymakorligida	Miskandakorligida
Targ`il iborasining ta`rifini ko`rsating	*Naqqoshlikda taroq tishlarisimon pardoz berish tur	Kichik mo`yqalam bilan naqsh chegarasi ni chizib chiqish	Naqshning asosiy qismini chizish	Naqshlarni zar hal bilan ishslashg)
Tasvirlanadigan narsani qog`oz yuziga joylashtirish nima deb ataladi?	*Komponovka	Dekor	Litografika	Kompozitsiya
Toshkent naqqoshlik maktabi namoyondalari qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*Abdulla Boltaev, Odamboy Yoqubov	Usta Shirin Murodov, T.Arslon qulov	Jalil Hakimov, Toyir To`xtaxo`jaev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Anvar Ilxomov, Komil	S.Norqo`ziev, Usta Raxmonqul, Yo.Raufov, J.Hakimov

			Karimov	
To`qima, to`g`ilgan shakldagi islimiyl naqsh bo`lagi nomini ayting?	*Bofta	Tanob	Shukufta	Novda
To`rt bargdan iborat naqsh nima deb ataladi?	*Chorbarg	Qo`shbar g	Sebarg	Tokbarg
Umumiy ta`lim mакtablarida naqqoshlik to`garagi mashg`ulotlarini necha guruhga bo`lib o`tiladi?	*3guruh	2 guruxh	4guruh	6 guruhga
Ustoz deb kim nomlanadi?	*Ustolar sulolasidan usto darajasiga ko`tarilgan farzand	Uso ko`rmagan shogird	Ustolar ishidan nusxa oluvchi shogird	Usta bo`lmagan shogird
O`zbek xalq amaliy san`at turlarini sanab bering	*Naqqoshlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi, kulolchilik, zardo`zlik	Rangtasvir, qalamtas vir, grafika	Haykaltar oshlik, miniatura, mazayka	Ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi, grafika, sgraffito
Xalq amaliy bezak san`ati kitobining muallifi kim?	*S.Bulatov	O.Kozakov	J.Hakimov	O.Qosimjonov
Xattotlik san`ati nima?	*Unvonli yozuv, arab yozuvarini naqshga o`xshatib yozish	Naturani o`ziga qarab ishlangan rasm	Xayoldan ishlangant asvir	Bino yoki biron narsaga ishlangan naqsh
Xasht barg nima?	*8 ta bargdan tashkil topgan naqsh qismi	Guldasta shaklida gi naqsh	4 ta guldan tashkil topgan naqsh qismi	Olti bargdan tashkil topgan islimiyl naqsh qismi
86. Xiva naqqoshlik mакtabi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?	*A.Boltaev, O.Yoqubov, R.Masharipov , E.Sapaev	O.Qosimjonov, Yo.Raufov, Z.Bositxonov	J.Hakimov, T.To`xtaxo`jaev, A.Ilxomo	Sh.Murodov, T.Arslonov , S.Norqo`zi ev


Xoka iborasi ta`rifi qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?	*Naqshni yuzaga tushirish uchun qo`llaniladigan qora yog`och kukuni	Naqshga shakl beruvchi chizi?	Xoshiya naqshi	Xandasaviy naqsh
88. Xromatik ranglarni ko`rsating?	*Oq va qoradan paydo bo`lgan ranglaa	Sovuq ranglar	Oq va qora	Rang tusi
Chapu rost takrorlanuvchi lolasimon naqsh turining nomini aniqlang?	*Madoxil	Munabba t	Islimiyl	Girix
Chiziqli perspektiva nima?	*Predmetlarning rassomdan uzoqlashgan sari kichrayib ko`rinish	Rassomidan uzoqdagi predmetning katta ko`rinishib	Rassomning ko`z qorachig`i balandligi orqali o`tuvchi chizi?	Osmon bilan ernen kesilish chizig`i
Sharqning "Rafaeli" deb atalgan miniatyurachi rassom kim?	*K.Behzod	Muxamed Murad	Farruxbek	Pir Said Tabriziy
92. Shkufta naqsh kompozisiyasida qanday vazifani bajaradi?	*Gul va barglarni, ikkit a tanobni birlashtiruvchi va asosiy shakl beruvchi, to`ldiruvchi element	Bezak turi	Naqshni ikki bo`lakka bo`luvchi	Naqsh kompozisiyasi markazi
Amaliy san`at turlari kaysi?	*zarduzlik	xaykaltar oshlik	nakkoshlik	Tugri xavob yuk
Egri chiziqli o`simlik elementlaridan iborat naqshning nomi?	*Islimiyl	Girix	Murakkab	Madohil
Yashil va qizil rangdan qaysi rang paydo bo`ladi?	*qo`ng`ir	Ko`k	Yashil	Kulrang
Band nima?	*novdani bog`lovchi	kompozisiyadagi ikkinchi	naqsh elementi	o`simlik bargi

		darajali naqsh		
Barokko stili Vatani?	*Italiya	Frantsiya	Germaniya	Angliya
Burtma tasvir nomi kaysi katorda to`g`ri kursatilgan?	*Rel'ef	Gorel'ef	Barel'ef	To`g`ri javob yuk
Inter'er nima ?	*Binoning ichki ko`rinishi:	Binoni tepadagi ko`rinishi i:	Binoning tashqi ko`rinishi	Binoning rejasi.
Ustoz - kim?	*o‘qitgan, hunar, ilm, tarbiya bergan va fan-hunar cho‘qqilariga yetaklagan inson;	sohani o‘rgatuvchi;	hunar o‘rgatuvchi	odobli, vatanparvar, fidoiy inson;
Ustozning kasbiy fazilatlariga nimalar kiradi?	* yaxshi nutq, o‘quvchanlik, muomala, muloqot, bilimdonlik va boshqalar;	saxiylik, odoblilik, marhamatlilik, or-nomus talabchalik;	sabrlik, o‘quvchanlik, muomala, muloqot, ochiqyuzlik, odoblilik;	sof muhabbat muomala, muloqot, riyokorlik.
Sharqda naqqoshlik san’ati qaysi davrdan boshlab rivojlangan?	* Paleolit	Neolit	Mezeolit;	Mis davri
Qaysi qatorda naqqoshlikga oid atamalar berilgan?	*kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, shobarg;	etyud, etyudnik, natura, molbert;	kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, sangina, pastel;	sangina, pastel, retush, sous.
Mustaqil fikr yurita oladigan inson ...	*aqli;	sog’lom;	mehnatsevar;	vatanparvar.
Toshkentdagi Amaly san’at muzeyi kim tomonidan qurdirilgan?	*A. V. Polevtsev;	Amir Olimxon;	V.A .Verishagen;	Xudoyorxon.
Registon maydonidagi Sher dor madrasasi peshtoqida qaysi hayvonlar	*yo‘lbars, sher, ohu;	sichqon, turna, burgut;	kabutar, kiyik, yo‘lbars;	tovus, ayiq, laylak.

ramziy ma'nodaifodalangan?				
O'zbek xalq amaliy san'at turlarini sanab bering.	*naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zardo'zlik	rang tasvir, qalam tasvir, kompozit siya;	haykaltaro shlik, miniatyura, mahobatli rangtasvir;	yog'och o'ymakorligi, grafika, dizayn.
«Hunar» deganda nimani tushunasiz?	*muayyan tayyorgarlikni talab etib, odatda tirikchilik manbai bo'lgan mehnat faoliyatidir;	san'at turidan biri;	kasbning bir turi;	ustachilik.
Charxpalak nimaning ramzi?	*hayotning tinimsiz harakatda ekani;	kun bilan tunning almashuvi;	oy bilan quyosh;	yilning asr bilan almashuvi.
Oliy Majlis binosi uchun ishlangan o'yma bezakli eshiklar qaysi yog'och o'ymakor ustalar tomonidan ishlangan?	*S.Mahmudo v, Q. Shoislomov	M.To'ra yev, A.Ilxon ov	H.Nuraliy ev, S.Shukurov;	Barcha javoblar to'g'ri.
Shogirdning odobiga nimalar kiradi?	*o'z kasbini sevish, ustoz oldida hokisor bo'lish, noloyiq ishlar qilmaslik va boshqalar;	ustozni hurmat qilish, ustozdan haqqini talab qilish;	pokizalik, aqlilik, hushyorilik;	samimiylilik;
«Odam borki odamlarning naqshidir,odam borki hayvon undan yaxshidir» kimning qalamiga mansub?	*A.Navoiy	A.Avlony	M.Ulug'b ek;	Beruniy.
Samarqanddagi tarixiy obidalarni ko'rsating.	*Tillakori, Sherdor, Ulug'bek madrasalari, Shohi-Zinda	Minorai Kalon, Somoniylar maqbaralar, Chor	Abdulqosim madrasalar, Tilla-shayx, Shayx	Kalta-minora, Ichan qal'a. Ko'kaldosh, Al-Buxoriy

		Minor;	Zayniddin masjidlari	maqbarasi.
Naqqoshlikda qaysi gul, parranda va hayvonlar shakliko‘plab uchraydi?	*G’uncha, lola, anorgul, tovus, bulbul, sher, humo;	Atirgul, o‘rdak, echki, quyon;	Gulsafsar, burgut, bulbul, sher, humo, ondatra, qo‘y;	Moychecha k, olma, kabutar, suvsar, echki;
Shogird deganda kim tushuniladi?	* usta yoki mutaxassisdan hunar yoki ilm o‘rganayotgan kishi	*o‘rganuvchi shaxs;	hunar o‘rgatuvchi;	ustozni yordamchisi;
Ilk naqqoshlikka oid san’at namunalari respublikamizningqaysi viloyatlarida rivojlangan?	*Xorazm, Sug’d, Baqtriya viloyatlari;	Misr, Yunoniston, Rim;	Qadimgi Xitoy, Hindiston, Yaponiya;	Eron, Arabiston, Afg’oniston;
Odob bor yerda – nima bor?	* tinchlik, shodlik va mukammallik ;	tinchlik bor;	xotirjamlik bor;	imon bor;
Go‘ri-Amir maqbarasi gumbazining naqshlari qaysiashyoda bajarilgan?	*ganchdan;	marmar va toshdan;	sopol koshinlardi an;	granit hamda shishadan;
«Naqqoshlik» san’atida ishlatiladigan terminlar qaysi qatordako‘rsatilgan?	* kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, shobarg	etyud, natura, molbert;	kundal, mehrob, axta, bofta, namoyon, sangina, pastel;	sangina, pastel, retush, sous;
Naqsh termini qanday ma’noni anglatadi?	* arabcha «tasvir», «gul» degan ma’noni bildiradi	geometrik shakllardan tuzilgan naqsh;	lotincha «chigal», «tugun» degan ma’noni bildiradi;	lotincha «ornament» -bezak degan ma’noni anglatadi.

Talabalar ijodiy ishlaridan namunalar





Sh



Sh





Mundarija

Kirish

I-modul. Amaliy san'at turlari

1.1. Amaliy san'at tarixi va turlari -----	7
1.2. Ganchkorlik san'ati -----	13
1.3. Yog'och o'ymakorligi san'ati -----	18
1.4. Naqqoshlik san'ati -----	28
1.5. Kulolchilik san'ati -----	35
1.6. Pichoqchilik san'ati-----	44
1.7. Zargarlik san'ati -----	49
1.8. Kashtachilik san'ati -----	58
1.9. Gilam to'qish san'ati -----	69
1.10. Zardo'zlik san'ati -----	72

2-modul. Kompozitsiyatuzish

2.1. Naqqoshlikda naqsh kompozitsiyasini tuzish -----	89
2.2. Yog'och buyumlaridan quticha yuzalariga naqsh ishlash -----	100
Test savollari-----	105
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati -----	124

Содержание

Введение

I-модуль. Виды прикладного искусства

1.1. История и виды прикладного искусства -----	7
1.2. Искусство чеканки -----	13
1.3. Искусство резьбы по дереву -----	18
1.4. Искусство живописи -----	28
1.5. Гончарное искусство -----	35
1.6. Искусство изготовления ножей-----	44
1.7. Ювелирное искусство -----	49
1.8. Искусство вышивки -----	58
1.9. Искусство ковроткачества -----	69
1.10. Искусство ювелирного дела -----	7

Модуль 2. Создание композиции

2.1. Составление узорной композиции в живописи -----	89
2.2. Изготовление узоров на поверхностях ящиков из деревянных изделий-100	
Контрольные вопросы-----	105
Список использованной литературы -----	124

Content

Introduction

I-module. Applied Arts

1.1. History and applied arts -----	7
1.2. The art of coinage -----	13
1.3. The art of wood carving -----	18
1.4. The art of painting -----	28
1.5. Pottery -----	35
1.6. The Art of Knife Making-----	44
1.7. Jewelry Art -----	49
1.8. The art of embroidery -----	58
1.9. The Art of Carpet Weaving -----	69
1.10. The art of jewelry -----	7

Module 2

2.1. Drawing up a patterned composition in painting -----	89
2.2. Making patterns on the surfaces of boxes from wooden products-----	100
Test questions-----	105
List of used literature -----	124

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.S. Bulatov “Naqqoshlik”.— Fan va texnologiya. T- 2010 yil
2. B.Q. Xolmatov “Naqqoshlik”-Iqtisod-moliya. T-2007 yil
3. P.Qodirxo‘jayev “Badiiy bezak san’ati”- Iqtisod-moliya. T-2008 yil
4. K.A. G’ulomov “Amaliy san’at”- Iqtisod-moliya. T-2007 yil
5. F. Melhuish “The Grammar of Ornament”- rare books librarian-L: 2009 yil
6. D.I. Mamurova “Amaliy va badiiy bezak san’ati”- Durdon-B: 2021 yil
7. Sh.Sh. Bakayev “Amaliy bezak san’ati”- Durdon-B: 2021 yil
8. N.I. Ibatova, I.Kamolov “Amaliy san’at”-Intelekt-Q: 2021 yil
9. D.J. Xaitboyev “Badiiy bezak san’ati asoslari”-uslubiy qo‘llanma, U:2005 yil
10. V.R.Tuhsanova “Amaliy san’at turlari”- uslubiy qo‘llanma, Durdon-B-2020 yil